

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ
TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**Qo`lyozma huquqida
UDK**

NORQUVATOVA GULMIRA IZATILLAYEVNA

“Navoiy viloyatining rekreatsion resurslari va turizm”

5A 110501- “Geografiya o`qitish metodikasi”

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

**Ilmiy rahbar:
g.f.n. Shodiyev S.R.**

NAVOIY-2014y

MUNDARIJA

	Kirish.....	3
I BOB.	O'zbekiston respublikasida rekreatsiya va turizmning rivojlanishi haqida.....	10
1.1.	Rekreatsiya va rekreatsion resurslarning salohiyatini belgilovchi omillar.....	10
1.2.	Rekreatsiyaning siyosiy, iqtisodiy ijtimoiy va ekologik jarayonlar bilan bog'liqligi.....	17
1.3.	O'zbekiston turizmining rivojlanishi va uning tahlili.....	25
	I bob bo'yicha xulosa.....	34
II BOB.	Turistik rekreatsion resurslar tushunchasi uning o'ziga xos xususiyatlari.....	35
2.1.	Turistik-rekreatsion resurslar tushunchasi.....	35
2.2.	Navoiy viloyatning turistik-rekreatsion salohiyati.....	37
2.3.	Viloyatning turistik-rekreatsion resurslaridan samarali foydalanish va turizmni rivojlantirish istiqbollari.....	49
	II bob bo'yicha xulosa.....	54
III BOB.	Navoiy viloyatida turizmni rivojlantirish.....	55
3.1.	Navoiy viloyati turizmining rivojlanishi va uning hududiy tahlili.....	55
3.2.	Turizm infrastrukturasi rivojlantirishning iqtisodiy-ijtimoiy muammolari va viloyatda xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish.....	70
3.3.	Navoiy viloyatining ba'zi tumanlarida turizmni rivojlantirish bo'yicha takliflar.....	80
	III bob bo'yicha xulosa.....	83
	Xulosa.....	84
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	87
	Ilovalar.....	93

KIRISH

Bugungi kunda jahon xo'jaligida noishlab chiqarish tarmoqlarining hissasi muttasil olib bormoqda. Fikrimiz isboti sifatida rivojlangan g'arb davlatlarida yalpi milliy mahsulot hajmining moddiy ishlab chiqarish sohalariga nisbatan xizmat ko'rsatish tarmoqlari ulushining oshib ketganligini keltirishimiz mumkin. Xizmat ko'rsatish va servis sohasi keng ko'lamiga ega bo'lib, insonlar hayotini yaxshilashda muhim o'rnin tutmoqda. Shuning uchun so'ngi yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bu esa xizmatlar bozorida yangi istiqbolli xizmat turlarining ya'ni rekreatsiya va turizm xizmatlarining shakllanishiga asos bo'lmoqda. Mamlakatlarning rekreatsion faoliyati va salohiyati bevosita ularning rivojlanganlik darajasi, ijtimoiy, iqtisodiy, tibbiy sharoiti ya'ni, tabiat komplekslari, texnik infratuzilmalarining rivojlanishi sanoat tarmog'i, xizmat ko'rsatish tizimi, ma'daniyat, san'at ilm fanning rivojlanganligi bilan, ya'ni bir so'z bilan aytganda, mamlakatlarning tabiiy va iqtisodiy geografik o'rni bilan bo'g'liq.

Ko'pgina mamlakatlar rekreatsion xizmat iqtisodiyotning yirik va mustaqil tarmog'i bo'lib, band aholining 10-15 % ini o'ziga jalb qiladi. Rekreatsion faoliyatni tashkil qilish hududning tabiiy va iqtisodiy sharoiti bilan, ayniqsa hududning geografik joylashuvi bilan bo'g'liq. Masalan, Turkiya davlatining geografik o'rni, ya'ni uning Yevropa, Osiyo, Afrika bilan tutash hududida joylashganligi unda bu faoliyatning rivojlanishida bosh omil bo'lgan. Shuningdek, mamlakatlarning tarixiy, etnografik va ma'daniy o'rni ham bunda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, bu hududlar dam olish uylari, turistlar bazalari, sport lagerlari, sanatoriyalar, sanoat, transport, savdo va aloqa muassasalarining rivojlanish rekreatsion faoliyatning rivojlanishiga asos bo'ladi.

Mamlakatimizda turizm sohasiga mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq katta e'tibor berildi. Soha rivoji uchun barcha zarur tashkiliy-huquqiy mexanizm vujudga keltirilib, muhim me'yoriy hujjatlar qabul qilindi va bu ish hozirda ham davom etmoqda. Bunga misol qilib 1998 yil 15 aprelda qabul qilingan "2005

yilgacha bo'gan davrda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat dasturi" to'grisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorini keltirish mumkin. Qarorning asosiy mazmuni xalqaro turistik bozorda integratsiya va millatlararo aloqalarni kengaytirish va mustahkamlashga erishish. O'zbekistonning tarixiy ma'daniy obidalarni tashviqot qilish hamda turistlarga jahon andozalari darajasida xizmat ko'rsatish sifatini oshirishdan iboratdir.

Prezident I.Karimov 2009 yilning yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida "Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishda investitsiyalar jalb etish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport kommunikasiyalarini yanada rivojlantirish hamda ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yunalishiga aylandi" deb ta'kidlaydilar.

Turizm ichki imkoniyatlar asosida investitsiyalarni jalb qiluvchi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biridir. Bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri tabiiy muhitni saqlash masalalarini hal qilishga yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishdir. Ushbu yondashuvlarni majmual holida murakkab, ijtimoiy- iqtisodiy va ekologik tizim sifatida qaralishida muommolarni hal qilishda etakchi o'rinni turizm egallaydi.

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi. Ayni vaqtda turizm sohasini rivojlantirish mintaqalar iqtisodiyotini belgilashda ham muhim ahamiyatga ega. Shu bois mazkur tarmoqni rivojlantirish uchun ko'plab ishlar amalga oshirildi, unga tegishli ma'rifiy va huquqiy asoslar yaratildi. Ammo shunga qaramasdan mavjud imkoniyatlardan to'la foydalanilmayapdi, turizmda yaratilgan shart sharoitlar mintaqalar talab darajasida emas. Bu esa turizm infratuzilmasini tadqiq etish lozimligini ko'rsatib boradi. Mintaqalarimiz orasida Navoiy viloyatiga turizmi haqida so'z olar ekanmiz bu tadqiqot ishimizni shu yo'nalishda davom ettirar ekanmiz, bu borada barchamizga yaxshi ma'lumki, 2011 yil 9 iyun kuni Navoiy viloyati hokimining shaxsan o'zlarining tashabbusi bilan "Navoiy

viloyatida turizm sohasini rivojlantirish va qo'llab quvvatlash to'g'risida"gi 128-sonli qarori qabul qilinib, mazkur qaror asosida viloyatda Turizmni qo'llab quvvatlash va rivojlantirish Kengashi tashkil etilgan.

Kengashning Nizomi ishlab chiqilib, qaror asosida viloyatda turizmni qo'llab quvvatlash va rivojlantirishning asosiy dolzarb masalalari belgilab berilgan. 2011 yilda Navoiy viloyati turizm sohasini rivojlantirish, turizm infratuzilmasini yaxshilash va yanada takomillashtirishning 2011-2015 yillarga mo'ljallangan kompleks chora tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan.

Mamlakatimiz ya'ni O'zbekiston Respublikasida va Navoiy viloyatining taraqqiy etishda, bozor munosabatlarini shakllantirishda xizmat ko'rsatish sohasidagi iqtisodiy munosabatlarning hal etishida, o'ziga xos roli bor. Chunki bu soha bozor sub'ekti sifatida tez rivojlanish bosqichida, uning tarkibiy qismi bo'lgan turizm sohasi ham o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda. Turizm viloyatimiz iqtisodiyotida nisbatan yangi soha bo'lishiga qaramasdan o'z mavqieni mustahkamlab bormoqda. Bu kelajakda ham istiqbolli porloq sohalardan biri bo'lib qoladi. Navoiy viloyatida, rekreatsion-turistik resurslardan foydalanish, mahsulotlarni shakllantirish, sohani zamon talablari darajasida rivojlantirish masalasi mamlakatimizda etarli darajada o'rganilmagan. O'rganish sust bo'lganligi uchun shu mavzu bo'yicha adabiyotlar ham kam nashr qilingan. Shunday ekan Navoiy viloyatida turistik resurslardan foydalanish imkoniyatlarini ilmiy- nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etishni talab qiladi.

Ushbu tadqiqod ishda mazkur masalalar viloyatimizda rekreatsiya va turizmni rivojlantirish miqyosida o'rganiladi.

Navoiy viloyat turizm imkoniyatlari Respublikada, balki O'rta Osiyoda ham etakchidir. Ushbu imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish, dunyo sayyohlarini jalb qilishda, ular uchun yaratilayotgan sharoitlarni chuqur tahlil qilish va baholash, turizm infrastruktura tarmoqlari va mehmonxona xo'jaligidagi muommolarini, rekreatsion dam olish joylarini yaratish muommolarini hal qilish uchun tavsiyalarni ishlab chiqish mazkur tadqiqod ishining dolzarblisini asoslab beradi.

Tadqiqotning ob’ekti. Magistrlik dissertatsiya ishining tadqiqod ob’ekti sifatida, Navoiy viloyati rekreatsion nuqtalari va turizm infrastruktura majmuasi tanlangan.

Tadqiqot predmeti. Tadqiqot ishida viloyatda rekreatsiya va rekreatsion resurslar salohiyati. Viloyatning tarixiy-me’moriy obidalar, muzeylari va mehmonxonalar misolida turizm infrastrukturasining shakllanishi hamda rivojlangan omillarini geografik jihatdan o’rganish lozim.

Dissertatsiya ishining maqsadi. Rekreatsiya va turizm har bir davlat, mintaqa yoki hududning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma’daniy, ma’rifiy sohalarga sezilarli darajada ta’sir ko’rsatishni e’tiborga olgan holda mamlakat iqtisodiyotiga katta hissa qo’shadi. Navoiy viloyatining turistik rekreatsion resurslaridan foydalanish va xalqaro turizmni rivojlantirish.

Dissertatsiya ishining vaziflari. Navoiy viloyati turizm infrastrukturasining rivojlanishini tahlil qilish asosida uni hududiy tuzilishini yaxshilash yo’llarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda, uning quyidagi vazifalari belgilandi va hal etildi.

- Turistik –rekreatsion resurslarning geografik jihatdan o’rganishning o’ziga xos xususiyatlarini rivojlantirish istiqbollarini belgilash.

- Viloyatning turistik rekreatsion resurslaridan samarali foydalanish va turizmni rivojlantirish istiqbollarini belgilash

- Navoiy viloyati turizmining rivojlanishi va uni hududiy tahlil qilish.

- Turizm infrastrukturasini rivojlantirishning iqtisodiy ijtimoiy muammolari va viloyatda xizmat ko’rsatish sohalarini rivojlantirish choralarini aniqlash.

Disertatsiya ishining asosiy masalalari va farazlari. Bajarilgan tadqiqot ishining asosiy masalalaridan eng avvalo viloyatda turizm infrastrukturasining rivojlanishida, rekreatsion resurslarini o’rganish, turistik rekreatsion nuqtalarini aniqlash va tarixiy-me’moriy obidalar, muzeylarini tahlil qilish hamda mehmonxona xo’jaliklarini hududiy tashkil etilishi masalalari asosida kompleks geografik tadqiqot o’tkazilishi bilan tavsivlanadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Turizim sohasini ilmiy jihatdan tadqiq qilish asosan XX asrning yarmidan boshlandi. Sobiq ittifoq davrida, rekreatsion resurslar va ulardan foydalanish masalalari ko'proq o'rganildi.

MDH mamlakatlari turizm tarmog'ining geografik jhati bilan A.Y. Aliksandrova, S.R. Yerdalitov, E.T. Dalabonov, V.G. Gulyayev, V.S. Yankiyevich, E.N. Buturov, A. Nizomiyev singari olimlar shug'ullangan. O'zbekistonda bu soha bilan Aliyeva M.T, Umarjonov.A.A, Ho'jayev U.X, Irmatov M.M, Mirzayev R, Soliyev A, Usmonov M, Ibobekov F, F.Kamilova kabi olimlar turizmni geografik jihatdan nazariy va amaliy muammolarini o'z tadqiqot ishlarida o'rganganlar.

Jumladan, F. Komilovanning "Xalqaro turizm bozori" nomli o'quv qo'llanmasida turizimning milliy iqtisodiyotdagi rolini oshirish, turistik infrastruktura tarmoqlarining shakllanishi va turizm marketingi kabi mavzularda keng malumotlar berilgan.

Taniqli olimlarimizdan O'z.M.U geografiya fakulteti professori A. Soliyev va D.U. dotsenti M. Usmonovlarni "Turizm geografiyasi monografiya"sida turizim tarixi, mamlakatimiz turistik salohiyati va uni turistik geografik rayonlashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. Umuman olganda mamlakatimizda bu sohada hali qilinishi kerak bo'lgan tadqiqotlar juda ko'p. Jumladan turizm rivojlanishi uchun asos bo'lib hizmat qiladigan asosiy majmua. Turizmni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish. Turizm infrastrukturasi bugungi kunda yetarli darajada o'rganilmagan uni istiqbolli rejalarini tuzish va o'rganish.

Tadqiqot usullari: maskur disertatsiya ishi "O'zbekturizmi" Milliy kompaniyasi, Navoiy viloyati " Ekskursiya va sayyohlik byurosi ma'lumotlari va mahalliy ilmiy adaboyotlar, Internet materiallari hamda ilmiy va kartografik manbalar asosida tayyorlandi. Magestrlik dissertatsiyasini tayyorlashda bir-biri bilan bog'liq bo'lgan ilmiy yondashuvlar, tamoyillar va usullardan foydalanildi. Tadqiqot negizida kartografik, qiyosiy tahlil, tabiiy geografik, tarixiy majmualar landshaft, geobotanik, geoekologik va stastik usullardan foydalanildi.

Ushbu usullar viloyat turizm tizimlarini va resurslarini aniqlashda foydalanildi, hamda ulardan nazariy va amaliy ishlarda foydalanish mumkin bo'ladi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Bajarilgan magistrlik dissertatsiyasining natija va xulosalarini viloyatda turizmni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan istiqbol rejasini ijrosini ta'minlash bo'yicha tadbirlardan foydalanish mumkin. Aniqrog'i Navoiy viloyati turizm sohasini rivojlantirish, turizm infratuzilmasini yaxshilash va yanada takomillashtirishning 2011-2015 yillarga mo'ljallangan kompleks chora-tadbirlar dasturini bajarishda ham foydalansa bo'ladi. Bundan tashqari tadqiqotning ilmiy va amaliy tavsiyalari, mavjud statistik ma'lumotlari oliy o'quv yurtlari hamda akademik litsey va kollejlarning o'quv jarayonini amalga oshirishda ko'mak beradi. Ishning yana bir ilmiy ahamiyati Navoiy viloyatini modernizatsiyalash sharoitida turistik resurslardan foydalanish va turistik mahsulotlarni shakllantirish bilan bog'liq muammolarning nazariy echimlarini o'rganish, tadqiq qilish uchun ilmiy asos bo'lishi mumkin. Shu bilan bir qatorda mintaqadagi turistik resurslardan samarali foydalanish maqsadida yangi istiqbolli turistik marshrutlar tashkil etishda dasturiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi. Butun dunyoda rekreatsiya va turizmni rivojlanishi barcha sohalarga kirib boradi. Turizm birinchi navbatda xalqlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi. Turizm sohasini rivojlanishi mamlakatda ham, mintaqada ham undan keladigan mablag' evaziga, buyudjetga salmoqli daromad keltiradi. Tadqiqot jarayonida turizmga oid mavjud bilimlar tahlil qilinib, ulardan foydalanilgan va bayon qilingan usullar orqali o'rganish va foydalanish yo'llari ishlab chiqildi. Navoiy viloyati hududi uchun mavjud rekreatsion turistik resurslari va sharoitlarini o'rganishi asosida dam olish nuqtalari, sayyohlarga sayohat qilishlari uchun zarur bo'lgan ob'ektlar aniqlandi. Turizm infrastrukturasini rivojlanishidagi iqtisodiy ijtimoiy muommolarni hal qilish ilmiy asoslandi. Turistik rekreatsion salohiyati baholandi. Navoiy viloyatida turizm bilan bog'liq bo'lgan tadbirlarni rejalashtirish, turistik ob'ektlarni ilmiy asoslangan

holda joylashtirish, turizm indisturiyasini rivojlantirish ishlarini ilmiy yondashgan holda amalga oshirishga imkon beradi.

Dissertatsiya ishining tarkibi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya ishining to'liq matni 100 betdan iborat. Desertatsiyada 2 ta jadval, 6 ta raqamlanmagan qo'shimcha rasm va 6 ta raqamlangan asosiy rasm, 1 ta chizma va 6 ta ilovadan iborat.

I BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA REKREATSIYA VA TURIZMNING RIVOJLANISHI HAQIDA.

1.1. Rekreatsiya va rekreatsion resurslarning salohiyatini belgilovchi omillar.

XX asrning 60 yillaridan boshlab, shu mazmunlarda meditsina, ijtimoiy-iqtisod, arxitektura, qurilish va aholi dam olishi bilan bog'liq boshqa tashkiliy muammolarida qo'llanib kelingan. Agar dam olish davolanish bilan bog'liq bo'lsa, demak rekreatsiya bunda salomatlikni tiklashga daxildordir. Rekreatsiya kuch va faoliyatni tiklash doirasidagi vaqt yoki ish (faoliyat) dan bo'sh davrdagi muddat birligi sifatida xarakterlanadi va salomatlikni tiklashning intensiv yo'nalishi hisoblanadi.

Rekreatsiyaning rivojlanishi jamiyatning eng dolzarb va o'z o'rnida eng nozik tizimlari bilan chambarchas bog'liq, bular madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqalar. Rekreatsiya (polyakcha rekreacja-dam olish, lotincha rekreatio-tiklanish), u qadimda 1) bayramlar, ta'tillar; 2) dam olish inshooti; 3) dam olish, insonning mehnat jarayonida sarflangan kuchini qayta tiklash ma'nolarida tushinilgan.

Ma'lumki, rekreantlar dam olishi, ya'ni mehnat qobiliyatlarini qayta tiklash davomida iste'mol predmetlaridan foydalanadi. Bu o'z navbatida, ishlab chigarish vositalarining harakati va joylashuvi; mahsulotlar taqsimoti yoki ta'minoti, umumiy ovqatlanish tizimi ishlab chigarishi, maishiy xizmat majmualaridan foydalanish kabilarni o'z ichiga oladi.

Rekreatsion korxonalar tarkibiga rekreantlar bevosita iste'mol qiladigan mahsulotlar ishlab chigaruvchi va xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalarni kiritish mumkin. Ko'pgina tadqiqotchilar, bu korxonalar tizimini "turizm sanoati" deya e'tirof etishadi. Shu o'rinda, "rekreatsion tarmoq" va "turizm sanoati" tushunchalarinning chegaralarini belgilash zaruriyati kelib chigadi. Ob'ektiv asoslarga ko'ra, xalq xo'jaligi tarkibini jamoat mehnat taqsimoti belgilaydi. Shu

bois, ishlab chiqarishning barcha tarmoqlarini "turizm sanoati" o'z ichiga ololmaydi, ya'ni ishlab chiqarish tarmoqlarining bevosita turizm yoki rekreatsion faoliyat uchun xizmat qiluvchi qisminigina qamraydi, xolos.

Rekreatsion vaqt birligi jamoat ishlab chiqarish darajasi va ishlab chiqarish munosabatlari xarakteri hamda aholining yoshi, jinsi, kasbi kabi qator ijtimoiy demografik omillar bilan bog'liq bo'ladi. Mamlakatlar ishlab chiqarish darajasi o'sishi rekreatsiya vaqtining ham ortishiga olib keladi. Boshqa tomondan esa rekreatsion vaqtning ortishi o'z navbatida ishlab chiqarish hajmining o'sishi, inson tafakkuri imkoniyatlari, intellektual salohiyati, jismoniy va ma'naviy imkoniyatning ortishi uchun xizmat qildi.

Insonning rekreatsion extiyoji - sotsial- iqtisodiy kategoriya bo'lib, ishlab chiqarish kuchlari xarakteri va ishlab chiqarish munosabatlari ta'sirida o'zgarib turadi.

Ishlab chiqarishning o'sishi davomida rekreatsion vaqt zaruriyat birligi sifatida maydonga chiqadi.

Fan texnika inqilobi sharoitida jismoniy mehnatning qisqarishi hisobiga kishilarda intellektual va ruhiy emotsional hissiyotning ortishi yuz beradi. Bu rekreatsiya xususiyati o'zgarishga olib keladi.

Rekreatsion faoliyat esa turizm, jismoniy tarbiya, sport, badiiy va texnik ijodkorlik kabi mashg'ulot turlarini o'z ichiga oladi. Bu faoliyat turlarining ijtimoiy natijadorligi shaxsning garmonik rivojlanishi barobarida sotsial va fiziologik harakat me'yorini tartibga solib turadi. Rekreatsion faoliyatning ba'zi turlari mehnat jarayoni bilan bog'liq va amaliy ahamiyat kasb etadi. Rekreatsion faoliyat davlat va nodavlat muassasalari tomonidan amalga oshirilib, uni amalga oshiruvchi muassasa, klublarni yagona maqsad doirasida jamlaydi va jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

Rekreatsion faoliyatning tarkibiy xususiyatlari tasnifi. Biz rekreatsion geografiyani insonning bo'sh vaqtini ko'ngilli, mazmunli o'tkazishi va dam olishi haqidagi fan sifatida tasavvur qilamiz. Odatda, insonning bo'sh vaqtini tashkil qilish ish vaqti yoki kundalik belgilangan mashg'ulotini tashkil etishdan

ham murakkab jarayon. Chunki, inson ishlashi yoki mehnat qilishi davomida o'ziga tegishli vazifani bajaradi, ya'ni biror lavozim yoki vazifani u aniq tasavvur qiladi. Nimagaki, u yoki bu kasbda mehnat qilish uchun inson uzoq vaqt nimanidir o'rganadi, malaka yoki ko'nikma orttiradi. Bir so'z bilan aytganda, biror kasbga ixtisoslashadi.

Aholining rekreatsion faoliyatini boshqarish yoki tartibga solish uchun soha mutaxassisleri xuddi shu ixtisoslashishni ta'minlashlari zarur. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bu jarayon iqtisodiy, tabiiy, madaniy, tibbiy, psixologik omillar bilan bog'liqligicha qolaveradi. Ayniqsa, asrlar davomida orzuga aylangan va nihoyat endigina o'z mustaqilligiga erishgan davlatlarda milliylik (mentalitet) muhim tamoyil sifatida qadrlanadi. Shu bois, chetdan kirib keladigan har qanday uqtiruvlarni to'g'ridan to'g'ri qabul qilib bo'lmaydi.

Shunday ekan, rekreatsion faoliyat ham o'z xususiyatlariga ko'ra, turli mamlakatlarda turlicha bo'lishi mumkin. Chunki, bo'sh vaqtni qanday tashkil qilishi turli mamlakatlarda turlicha kechadi.

Bo'sh vaqtni ikkita asosiy vazifani bajaradi: 1) ishdan ajralmagan holda insonning o'z jismoniy quvvatini tiklashi; 2) insonning ruhiy quvvatining tiklanishi. Insonning ruhiy va jismoniy quvvatining tiklanishi esa, yaxshi ovqatlanish, uyqu, harakat orqali qanoatlantiriladi.

Rekreatsion faoliyatning turli shakllari mavjud. Ular cho'milish, piyoda yurish, meva terish, yodgorlik yoki ziyoratgohlarga borish, muzey yoki yarmarkalarni tomosha qilish va boshqalar. Bu kabi rekreatsion faoliyat dam oluvchining ixtiyoriga ko'ra amalga oshadi.

Rekreatsion mashg'ulot turlarini to'rtga bo'lish mumkin:

- a) rekreatsion mashg'ulotlar yordamida davolanish;
- b) sog'lomlashtiruvchi rekreatsion mashg'ulotlar;
- v) sport bilan bog'liq rekreatsion mashg'ulotlar;
- g) dam oluvchi ongi va tafakkurini boyituvchi mashg'ulotlar.

Rekreatsion mashg'ulotlar yordamida davolanish va sog'lomlashtiruvchi rekreatsion mashg'ulotlar oromgoh (sanatoriya)larning kun tartibiga ko'ra, yoki

dam oluvchining o'z xohishiga ko'ra, quyosh nurida toblanish, balchiqli vanna qabul qilish, cho'milish o'yinlar kabi mashg'ulotlar bilan band bo'lish kiradi. Sport bilan bog'liq rekreatsion mashg'ulotlar insonning jismoniy quvvatini oshirishga mo'ljallangan tadbirlarni jamlagan. Ularga suvda suzish, qoyalarga tirmashib chiqish kabi mashg'ulotlar kiradi. Dam oluvchining ongini va tafakkurini boyituvchi mashg'ulotlarga esa, yuqorida ta'kidlaganimizdek, muzeylar, yodgorliklar, kinoteatrlar, yarmarkalarga borish kabi mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi.

Ilmiy adabiyotlarda rekreatsion faoliyatning turlicha tasniflash (klassifikatsiya) va guruhlashni kuzatish mumkin. Ularning asosida rekreatsion faoliyatning huquqiy maqomi, davomiyligi, hududiy belgilari, ishtirokchilar soni, ijtimoiy shart-sharoitlari, harakat darajasi kabilar uchraydi.

Rekreatsion faoliyat vazifa bajarishi va texnologiyasiga ko'ra, davolanish, sog'lomlashtirish va tanishuv kabilarga ajratiladi.

Davolanish va kurort rekreatsiyasi asosan davolanishning tabiiy omillariga ko'ra farq qiladi. Bu faktorlar: iqlim omillari, mineral buloqlar, malhamli balchiqlar kabilardir. Jumladan, O'zbekistonda shu kabi shifobaxsh suvlar keng tarqalgan. Ularning har biri shifobaxshlik xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Masalan, Respublika janubidagi "Omonxona", "Anjir Ota" suvlari shular jumlasidandir. Qizilqum hududidagi "Issiq suv" bulog'I ham o'zining shifo baxsh xususiyati bilan ajralib turadi.

Sog'lomlashtirish va sport rekreatsiyasi. Dunyo bo'yicha cho'milish maydonlarida (plyaj) dam olish va suv sportining rivojlanganligi, quyosh vannasi, qirg'oq bo'ylab sayr qilish an'anaviy tus olgan.

Rekreatsion mashg'ulotlar ichida *baliq ovlash* ommaviy tus olganligi bilan ajralib turadi. Albatta, har bir mamlakatda baliq ovlash haqidagi me'yoriy hujjatlar mavjud. Baliq ovlash esa shu qonunchilik doirasida amalga oshiriladi.

Ovchilik - tabiatda dam olish mashg'ulotlari ichida eng qiziqarlisi bo'lib, u maqsadga ko'ra turli ko'rinishga ega. Rekreatsion mashg'ulot sifatida foto va kino ovchilari nafaqat dam olishi balki, o'z mashg'ulotlari bilan tabiat

muhofazasiga hissa qo'shadilar.

Yo'nalishli turizm - turizmning barcha jihatlarini qamrab oladi, ya'ni u ham davolanish, ham sport va sog'lomlashtirish, ham ong va tafakkurni boyituvchi rekreatsion faoliyat xarakteriga ega bo'lishi mumkin. Yo'nalishli turizm "O'lkashunoslik" turizmi bilan uzviy bog'langan. Turizmning bu yo'nalishi o'lkamiz uchun juda qadimiydir. Chunki, butun dunyo mamlakatlari tan olgan "Buyuk Ipak yo'li" tarix sahnasida o'z mavqeyga ega. Qadimda bu hududda (Respublikamizning hozirgi kundagi hududida) yuzlab karvonsaroylar mavjud bo'lgan IX-X asrlarda Sharq uyg'onishining paydo bo'lishidagi bosh omil ham "Buyuk Ipak yo'li"ning aynan shu mintaqadan o'tganligidir.

Alpinizm ham xuddi shunday rekreatsion sport mashg'ulotidir. Dam olishning bu turida ham yuqorida ta'kidlaganimizdek, xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislar va qutqaruvchilar guruhlar talab etiladi.

Tog' chang'i turizmi - rekreatsion faoliyat ichida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Biroq, dam olishning bu turining o'ziga xos qaltisliklari ham mavjud.

Jumladan, qor ko'chkisi chang'i halokati kabi hodisalar dam oluvchilarni cho'chitishi mumkin. Mazkur qaltisliklarni bartaraf etish uchun qutqaruv guruhlar, qor qalinligi va ob-havo o'zgarishlari haqida axborot berib turuvchi muassasalarning mavjudligi va ular faoliyatining namunali tashkil etilishi soha rivojiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi Chimyon chang'i majmuasi respublikamizda bu turdagi rekreatsion faoliyatning yagona maskanidir.

Tanishuv rekreatsiyasi - biror joyning tabiati, tarixi, madaniyati, an'analari, turmush tarzi bilan tanishish doimo dunyo xalqlarining diqqatini o'ziga jalb etib kelgan. Mamlakatlarning o'rta asrga xos yodgorliklari ularning o'sha davr tarixi, madaniyati, ilm-fanining rivojlanganlik darajasi, xo'jaligi, turmush tarzi haqida keng ma'lumotlar beradi.

Transport vositalaridan foydalanish xarakteriga ko'ra, turizm avtomobil (yakka tartibda), avtobusda, samolyotda (yo'nalishli, xususiy), temir yo'lda, dengiz transportida (bizning mamlakatimizda yo'q) turistlarni tashish kabilarga

ajratiladi. Umuman olganda, transport rekreatsion faoliyatni rivojlantirishdagi eng muhim omillardan biridir.

Rekreatsioon hududlarning asosiy turlari. Hozirgi kunda kishilar dam olishni tashkil etish dunyo miqyosida turli omillar bilan bog'liq bo'lib qoldi. Ular tabiiy, iqtisodiy, ekologik, ilmiy-texnikaviy, geosiyosiy va boshqa omillar. 1580 yillarda Rossiya hududida bir necha rekreatsion rayonlar tarkib topdi. Keyinchalik, sobiq Ittifoq tarkibidagi bir qancha respublikalarning mustaqillikka erishishi, mintaqadagi geosiyosiy vaziyatlar o'zgarishi, bu tizimning izdan chiqishiga olib keldi. Chunki, Boltiqbo'yi davlatlari birinchi navbatda, "Ittifoq" tarkibidan chiqib ketdi. Kavkazda etnik to'qnashuvlar rekreatsion manzilgohlarda rekreatsiya tizimini izdan chiqishiga sabab bo'ldi.

Aholining aksariyat qismi dengiz bo'yi rekreatsion rayonlariga, sanitar davanish kurortlariga tog' chang'i kurortlariga dam olish uchun borishar edi. Hozirda esa, rekreatsion manzilgohlarga faoliyatini, rekreatsiya tizimini saqlab qolishga harakat qilmoqda.

Jumladan, O'zbekistonda ham jahon sayyohlarining diqqatini o'ziga jalb etgan manzilgohlar ko'p. Osiyo "Shveysariyasi" nomini olgan G'arbiy Tyanshan tog'lari xuddi shunday manzilgohlardan biridir. G'arbiy Tyanshan tog' rekreatsion rayoni Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston Respublikalari hududlarining tutashgan joyi hisoblanadi. Hudud tabiatining jozibasini sayyohlar Alp tog'laridagi rekreatsion manzilgohlar bilan qiyoslashadi hududda mahalliy daryolarda hozirgi kunda suv turizmi rivojlanmoqda. Hudud tabiati o'ttiz yil muqaddam, ya'ni 1975 yillardayoq, turistik guruhlar e'tiborini tortgan edi. Bugungi kunda Jahon banki biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha Markaziy Osiy loyihasini moddiy jihatdan qo'llab quvvatlamoqda. G'arbiy Tyanshanning tabiiy boyliklari jahon hamjamiyatining e'tiborini tortmoqda. Ayniqsa, xorijlik Rafting (havo to'ldirilgan qayiqda suzish) ishqibozlari Chotqol daryosida suzish uchun guruh-guruh bo'lib kelishadi.

O'zbekistonning G'arbiy Tyanshanda yana Oqtosh, Chorvoqsoy va Chimyon kurort zonalari mavjud bo'lib, ularda qishda chang'i sport bilan

shug'ullanish va dam olish maqsadida rekreantlar kelishadi.

Bulardan tashqari, O'zbekistonda faol dam olishning bir qancha turlari yoki bosqichlari mavjud. Ular:

1. Cho'lda tuyada sayohat qilish yoki "Cemel" bosqichi. Bu bosqichning mart va oktyabr oylarining oxirida bo'lishi maqsadga muvofiq. Ya'ni bu oylarda rekreantlarga dam olish sayohat qilishlari uchun, qulay tabiiy sharoit yuzaga keladi.

2. Ugom-Chotqol davlat tabiiy parkida Ko'ksuv qirg'oqlarida baliq ovlash.

3. Chimyon tog'larida otda yurish odatda, mart va oktabr oylari mavsumida o'tkaziladi. Unda turistlar yoki rekreant Jar quyosh tafti, tog' landshafti, sayohat qiyinchilik va xursandchiliklarini do'stlar va sheriklar bilan baham ko'rishdan zavqlanadi.

4. Chimyon va Bildirsoy o'tloqlarida sayr qilish. Bu bosqich sayohatga chiqish bahor oylari va yozning birinchi yarmi qulaylik tug'diradi. Unda rekreantlar tog' landshaftiga xos boy va xilma-xil o'simlik va hayvonot olamini kuzatishadi, iqlimga xos o'zgarishlardan bahramand bo'lishadi.

5. "Qishloq hayoti" bosqichida yozda rekreantlar hosil yig'ish tabiatning boy ne'matlaridan (qovun, tarbuz, uzum, olma, anor, anjir, qulupnay, nok kabi) bahramand bo'lishdan, soya-salqin joylarda hordiq chiqarishdan to'y va sayllardan davolanadi.

6. "O'zbekiston hunarmandchiligi" bosqichi. Bu bosqichda turistlar yoki rekreantlar respublikaning turli mintaqalariga xos milliy hunarmandchilik namunalari bilan tanishadilar. Ularning yaratilish jarayonini kuzatadi. Bu ne'matlarni yaratishning zavqi nimada ekanligini anglab yetadi va bunda hunarmandlar faoliyatining davomiyligi ajdodlardan avlodlarga o'tish an'anasi bilan tanishadi.

7. "Islom madaniyati" bosqichida islom olamida shuhrat qozongan allomalarning muqaddas qadamjoylarni ziyorat qilish, ular qoldirgan ilmiy-madaniy, ma'rifiy meros bilan tanishish. Jumladan, Samarqandda Ismoil A1

Buxoriy qabri, Shohi Zinda majmuasi, Buxoroda Bahouddin Naqshbandiy, Qosim Shayx majmuasi, Abduxoliq G'ijduvoniyning qabrlarini ziyorat etish. Bu bosqichda O'rta Osiyo madaniyati va hayotiga islom dini ta'siri haqida ko'p ma'lumotlar olish rekreantlar uchun ma'naviy, ruhiy quvvat olish imkonini beradi.

Umuman, ruhshunos olimlar fikriga ko'ra, o'tganlarni ziyorat qilish, ular hayotida qilgan amallarni qadrlash insonga ruhiy quvvat bag'ishlaydi.

1.2. Rekreatsiyaning siyosiy, iqtisodiy ijtimoiy va ekologik jarayonlar bilan bog'liqligi.

Rekreatsiyaning siyosiy jarayonlar bilan bog'liqligi. Insoniyat hayot faoliyatining ikkita qutbiy shakli mavjud. Shulardan biri ishlab chiqarish kuchlarining mehnat sarfi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi mehnat qilish davomida sarflangan ruhiy, jismoniy energiyani qayta tiklash bilan bog'liq. Bu ikki qutbiy shaklning dialektik uyg'unligi shundaki, mehnat sarfi (mehnat qobiliyati, quvvati) qayta tiklanmas ekan uning takror sarf bo'lishi mumkin emas.

Insoniyat tarixi, formatsiyalar almashinuvi, xalqaro mehnat taqsimoti tarixiga ko'ra, birformatsiya (boshqaruv shakli) ikkinchisini inkor etishi, va inkorni inkor qonuniga asosan birining o'rnini ikkinchisi egallagan, va, hargal inkorning asosini mehnatning og'irligi, inson mehnatiga muvofiq rag'batlantirilmaganligi asos sifatida e'tirof etadi.

Shu bois, bu bog'liqlik tarixiy xarakter kasb etadi. Boshqacha qilib aytganda, bu ikki qutbiy shakl ishlab chiqarish tarmoqlaridagi o'zgarishlarda bosh omil vazifasini o'taydi. Masalan, Sobiq Ittifoqning rejalashtirilgan iqtisodiy tizimida savdo-xizmat ko'rsatish sohalari hozirgidek darajasida rivojlanmagan edi. Bugungi kunda ishlab chiqarish mohiyati global ahamiyat kasb eta borayotganligi, ba'zan mamlakatdagi tabiiy resurslar mamlakatlarning rivojlanishida yetarli asos bo'la olmayotganligi, ya'ni inson omili, intellektual

salohiyat uning o'rnini qoplayotganligi, ma'lum. Buni Yaponiya, Shveysariya davlatlari misolida ko'rish mumkin.

Rekreatsiya inson mehnati qobiliyatini qayta tiklash doirasida sodir bo'ladigan jarayon sifatida xarakterlanadi. Qat'iy aytilganda, bu ko'rsatkich jamiyat ishlab chiqarishining mahsuldorligi bilan bog'liq.

Shuningdek, ish vaqti birligi ham o'z navbatida rekreatsion faoliyat "ishlab chiqarish mahsuldorligi" va xizmat ko'rsatish tizimining to'la global vazifa bajarish bilan bog'liq bo'ladi. Masalan. Daniyada aholi manzilgohlarida qurilgan ko'ngil ochar manzilgohlari, attraksionlar, bolalar o'yingohlari, hovuzlarning qurilishi va tinimsiz xizmat ko'rsatilishining barchasi chiqindi yig'uvchi muassasalar hisobidan bajarilar ekan. Aholi qog'oz, shisha sinig'i, chiqindi metallar, polietilen chiqindilarini o'z o'rniga tashlash orqali chiqindi yig'uvchi va ikkilamchi mahsulotlarni qayta ishlovchi korxonalarga katta daromad keltirishadi. Hatto kishilarning eshik oldi zinalarigacha tozalab qo'yishi ular zimmasida bo'lib, aholidan xizmat xaqi olinmaydi. Afsuski, xizmat ko'rsatish tizimidagi tarkibiy muammolar va ularning omillari barcha mamlakatlarda rekreatsion vazifani to'la bajarish imkonini bermaydi. Natijada kishilarning rekreatsion vaqti qisqaradi.

Mehnat qobiliyatini qayta tiklashning vazifa bajarishiga ko'ra quyidagilarga ajratish mumkin;

I-ish vaqti davomidagi tanaffus.

II-ish vaqtidan song har kuni (parklar, teatr)

III-ish haftasi oxirida, har haftada (shahar atrofi, dala hovli, zoopark va boshqalar)

IV-yillik ta'til davri (kurort shaharlar, sanatoriyalar, dam olish uylari v.b.)

Yuqoridagi rekreatsiya shakllarining barchasida davriy mehnat qobiliyatini qayta tiklash bosh masala hisoblanadi. Ba'zan rekreatsion faoliyatning qisqarishiga nafaqat, transportning kechikishi, magazin yoki xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar faoliyatining sustligi balki, huquqlardagi etnik, adovatlar, siyosiy barqarorlik kabi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi yondashuvlar bilan birga rekreatsion faoliyatdagi ekologik rekreatsiya ahamiyatini ham hisobga olish lozim. Ekologik rekreatsiya tijorat rekreatsiyasidan farqli ravishda kishilarning jonli, ruhiy quvvatini qayta tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rekreatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liqligi. Barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar singari rekreatsion faoliyat ham o'zining rivojlanish tarixiga ega. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlardagi dunyo mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayotining barqarorlanishi rekreatsiya tempining o'sishi hamda miqyosning kengayishiga olib keldi.

Shuni ham e'tiborga olish lozimki, sayohat davrida bir turist bir necha mamlakatlarga sayohat qiladi. Shunga ko'ra haqiqatda turistlar soni keltirilgan ma'lumotlardan ozroq, 2006 yilda esa daromad ko'rsatkichlari 60 mlrd. dollarga yetdi. Rekreatsiya sog'lom turmush tarzining uzviy tarkibiy qismidir. Jahon xalqlari madaniyati, turmush tarzini o'rganish barobarida o'z milliy madaniyati, qadriyatlarini namoyish etish orqali, jahon hamjamiyatiga qo'shilish o'z navbatida rekreatsiyaning asosiy vazifalari qatorida turadi.

Rekreatsiyaning umumiy vazifa bajarishini to'rtta asosiy guruhga ajratish mumkin. Ular quyidagilar: 1) tibbiy biologik 2) ijtimoiy-ma'daniy 3) iqtisodiy 4) siyosiy vazifa bajarishi.

Tovar-pul munosabatlariga ko'ra, rekreatsiya yana boshqa vazifani ham bajaradi. Masalan, 1) dam oluvchi rekreatsion faoliyatda ishtirok etadi va rekreatsion faoliyatning kengayishiga o'z hissasini qo'shadi. Rekreatsion faoliyatning ko'plab ma'daniy-maishiy muassasalarning paydo bo'lishi, ish o'rinlarining ko'payishi imkonini beradi; 2) rekreatsiya pul-tovar yoki xizmatlarning aylanishiga ta'sir ko'rsatadi. Rekerantlar soni qancha ko'p bo'lsa, bu aylanish shuncha tezlashadi; 3) xorijiy turistlarning tashrif esa mamlakat uchun valyuta tushumlarining ortishiga olib keladi.

Rekreatsiyaning g'oyaviy-siyosiy vazifa bajarishi ham kishilarda tabiatga xalqlarga ularning rivojlanish tarixi, turmushining afzal xususiyatlarini anglashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Turizm kishilarda baynalminallik,

vatanparvarlik, tashabbuskorlik kabi tuyg'ularning shakllanishida katta ahamiyatga ega. Mamlakatlar, millatlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning kengayishiga yo'l ochadi. Turli kasb egalari uchun malaka oshirish imkonini beradi.

Rekreatsiyaning ekologik jarayonlar bilan bog'liqligi. Rekreatsion konsepsiyalari rekreologiya inson ekologiyasining ilmiy tamoyillariga ko'ra asoslangan fanlararo rekreatsion tizim doirasida rivojlanadi. Rekreatsiyaning rivojlanishi natijasida mamlakatlarning rekreatsion maskanlarida landshaft o'zgarishlar sodir bo'ladi. Chunki joy landshafti madaniy lanshaftlar bilan uyg'unlashganda inson ruhiyatida emotsional-estetik his uyg'otadi. Ko'pchilik holatida inson tabiiy va madaniy lanshaftlar to'qnashgan hududda dam olishni istaydi. Xalqaro turizm evolyutsiyasi jarayonida doimo davlatlar o'z aholi manzilgohlari va lanshaftlarini namoyish etishga intiladi.

Tabiatdan rekreatsion maqsadlarda foydalanish ba'zi holatlarda tabiat komplekslari uchun jiddiy salbiy oqibatlarini keltirib chiqaradi. Chunki rekreatsion resurslar ham tabiatning boshqa resurslari singari cheklangan. Undan foydalanish to'g'risida gapirganda yillar davomida, ular jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkinligi e'tiborga olinadi.

Masalan, tog' yonbag'irlarida suv omborlarining qurilishini olaylik, suv omborlarini qurish jarayoni ba'zan bir necha o'n yillarni o'z ichiga oladi. Mantiqan olganda, juda katta mehnat sarflanadi. Bitta suv ombori qurilishi natijasida o'nlab, ba'zan yuzlab aholi manzilgohlari quriladi. Qishloq xo'jaligi uchun yangi yerlar ochiladi. 20-30 yil davomida juda katta o'zgarishlar sodir etiladi. Tabiiy landshaftlar ma'daniy landshaftlarga aylanadi. Oqibatda tabiiy komplekslar izdan chiqadi. Agar birgina omil, tog'lar yonbag'irlaridagi tuproq tiplari va xususiyatlari e'tiborga olinmasa, 40-50 yil o'tgandan so'ng, suv ombori havzasi 50-60 foizga qisqaradi. Natijada, vegetatsiya davri davomida qishloq xo'jaligi, aholi manzilgohlarini sanoat korxonalarini suv bilan ta'minlashda jiddiy muammolar yuzaga keladi.

Rekreatsion faoliyatni keng rivojlantirish oqilona tashkil etilmasa, aholining nafaqat, rekreatsion faoliyati balki kundalik turmush tarzida jiddiy o'zgarishlarni sodir etadi.

Shunday ekan, rekreatsion faoliyatning keng rivojlanishi fan uchun yangi ilmiy, aholi uchun ommaviy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Hozirgi kunda bu kabi muammolar butun jahon mamlakatlari uchun xavf tug'dirmoqda. Qaysidir hududda qurg'oqchilik hukm surib daryolar qurib qolsa, qaysidir hududlarda ba'zi mavsumlarda tinimsiz yomg'irlar natijasida daryolar o'zanidan toshib ketadi. Bu esa aholi manzilgohlari, qishloq xo'jaligi ekinlari sanoat korxonalarini vayron qilishi kabi ko'p ofatlar insoniyat tag'dirining voz kechib bo'lmas qismiga aylanmoqda.

Shu bois rekreatsion geografiyaning amaliy vazifasi tabiatdan rekreatsion foydalanishning asoslarini ishlab chiqishda landshaftlar tuzilishi, o'zgarish holati va bu holatning rivojlanishi qonuniyatlarini e'tiborga olishni taqozo etadi.

Shundan kelib chiqib, tabiatdan foydalanishning barcha turlarida oqilona ish yuritish talab etiladi, tabiatdan rekreatsion foydalanish texnologiyasi umumiy tabiatdan foydalanishning tarkibiy qismi hisoblanadi va uni amalga oshirishda sotsial-iqtisodiy ekologik qonunlar mushtarakligini e'tiborga olish lozim.

Tabiatdan foydalanishning umumiy tizimi tabiatni muhofaza qilishning uchta mexanizmini o'z ichiga oladi;

1) tabiatdan foydalanish tizimini chegaralashning ma'muriy huquqiy mexanizmi;

2) tabiatdan foydalanishning ko'p maqsadli variantini qamrab olgan iqtisodiy-reja va ma'muriy-huquqiy mexanizmi;

3) xo'jalik hisobidagi yoki ijaradagi tabiatdan foydalanishning to'lovli mexanizmi, ya'ni, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan talofatlarni qoplash ijarachi zimmasiga yuklanadi.

Tabiatdan rekreatsion foydalanish asoslari mamlakatda shu sohada olib boriladigan ta'lim tarbiya jarayonlari bilan ham uzviy bog'liq. Ko'plab sharq mutafakkirlari o'zlarining asarlarida insoniyat hayotining davomiyligi bevosita

tabiat bilan bog'liqligini uqtirishga harakat qilishgan. Har qanday diniy qarashga e'tibor berilsa, tabiatning musaffoligi eng oliy ne'mat sifatida e'tirof etilgan. Demak, tabiatni muhofaza etish undan oqilona foydalanish nafaqat maktab balki, oliy ta'lim muassasalarida balki, oiladanoq e'tibor qaratish lozim.

"Tabiatdan foydalanishdagi rekreatsion faoliyat yuritishdagi tarbiyaviy jihatlarning bosqichlari haqida rus olimi D.L. Armond 1969 yildayoq o'z mulohazalarini yozib qoldirgan.

1. Rekreatsion jarayonlarda tabiat bilan madaniy aloqada bo'lish ko'nikmalarni shakillantirish bolalikning ilk davridan boshlanishi lozim. Tabiatni muhofaza qilishdagi umumiy targ'ibotlar va bu yo'nalishdagi bolalar tarbiyasi haqida barcha zamonaviy axborot vositalari orqali amalga oshirilishi lozim.

2. Maktabda avvalo, geografiya va tabiiy bilimlar darslarida tabiatni muhofaza etishning barcha elementlariga e'tibor qaratilishi lozim.

3. Oliy o'quvlarda maxsus fakultetlarni tashkil etish orqali tabiatni muhofaza qilish kurslarini chuqur o'rganish. Ixtisoslashgan darajada turizm nazoratchilari va ekskursovodlar tayyorlanishini tashkil etish zaruriyati.

4. Turistlarga ular sayohat qilayotgan o'lka tabiatni anglash orqali ko'proq rohat olishi mumkinligini badiiy tarixiy axborotlar orqali uqtirish.

5. Dam olish maskanlari, milliy bog'larda tartib saqlovchi, yong'in xavfsizlik nazoratchisi, tibbiyot xodimlari, chiqindilarni yig'ishturuvchilar ishlarini qat'iy tartibli tashkil etish. Hududning tabiiyligi va tozaligiga ahamiyatni kuchaytirish.

6. Qo'riqxonalarida qat'iy tartib o'rnatish nima uchun tashkil etilganligi va nima qo'riqlanayotganligi aks ettiruvchi har bir qo'riqxonada muzey bo'lishining maqsadga muvofiqligi.

Rekreatsion hududlarining sanitar-epidemiologik holati integral ko'rsatkich hisoblanib, u bir tomondan aholining salomatlik darajasi (kasallanish, nogironlik, jismoniy rivojlanish darajasi kabi demografik ko'rsatkichlar) boshqa tomondan atrof muhit holati (suv va havoning ifloslanishi, oziq-ovqat mahsulotlarining

sifati, mehnat, xizmat ko'rsatish, dam olish sharoitlari) bilan bog'liq.(1-rasm)
O'zbekistondagi sanitar epidemiologik vaziyat taxminga ko'ra, oxirgi o'n

Rasm -1. Salomatlik kartasi

besh yil davomida aholi salomatligi va atrof muhit holatini ifodalovchi alohida ko'rsatkichlar tahlilida ijobiy tomoni o'zgarish kuzatilmaydi. Shuningdek, u vaqt oralig'ida atrof muhit bilan bog'liq salomatlikning qator muhim ko'rsatkichlarida barqaror va ijobiy o'zgarishlar ta'minlangan

Suv ta'minoti xavfsizligi respublika aholisi xavfsizligining tarkibiy qismlaridan biri. Shuning uchun sanitariya-epidemiologiya xizmati ichimlik suvlarini doimiy nazorat qilib turadi.

Bu kabi muammolarni bartaraf etish maqsadida kelgusida quyidagi masalalar o'z yechimini topish lozim.

1. Kelgusida suv, tuproq tozaligi va sifat me'yorlariga yaqinligi oziq-ovqat mahsulotlarining sifati; mehnat, xizmat ko'rsatish va dam olish sharoitlari yaxshilashning qonuniy me'yoriy talablarini ta'minlash.

2. Suv, tuproq havoning ifloslanishi, oziq-ovqat mahsulotlari sifati ustida ishlovchi mutassadi va ijrochi xodimlarni ixtisoslik darajasini chuqurlashtirish va amaldagilarini qayta tayyorlash;

Sanitariya-epidemiologiya xizmatining moddiv-texnik hazasini muvofiqlashtirish:

2. Kelgusida ekologik va aholi salomatligi muammolarini bartaraf etish maqsadida sog'liqni saqlash va tabiatni muhofaza qilish muassasalari faoliyatini integratsiyalash.

1.3. O'zbekiston turizmining rivojlanishi va uning tahlili.

Butun dunyoda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham turizmning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri oshib bormoqda. Bunda albatta turizm faoliyati bilan shug'ullanuvchi firmalar, tashkilotlar, sayyohlik agentlarining o'рни beqiyos. Turistik xizmatni taqdim etuvchi tashkilotlar soni yildan-yilga oshib bormoqda.

Mamlakatimizda hozirgi kunda ham asosiy turistik tashkilot bo'lib «Uzbekturizm» Milliy kompaniyasi faoliyat ko'rsatmoqda. Uning tashkiliy tuzilmasida 17 ta korxona va 3 sho'ba korxonalar mavjud bo'lib, ularga:

- 3 ta mintaqaviy ho'limlar (Buxoro, Samarqand, Xorazm).

- 7 ta sayohat va ekskursiya byurolari (Qoraqalpog'iston, Qashqadaryo, Farg'ona, Namangan, Navoiy, Surxondaryo, Jizzax).

- 5 ta mehmonxona majmualari («Buxoro-Palas», «Afrosiyob Palas», «Prezident-otel», «Xiva», «Xorazm-Palas»).

- «Uzolmonxotels» qo'shma korxonasi.

- Sayohatlarga xizmat ko'rsatish va dispetcherlash boshqarmasi (SUDO).

Turizmdan tushayotgan daromadlarning aksariyat qismi mamlakatimizdagi kirib kelayotgan xorijiy mehmonlar hisobiga to'g'ri keladi.

Demak, mamlakatimizda turizmdan olinayotgan daromadlarni oshirish uchun qabul qilish turizimga jo'natish turizmidan kura ko'proq e'tibor berish kerakki, bu tarmoqning rivojlantirilishiga sarflanadigan harajatlar tezroq muddatlarda o'zlarini qoplash imkonini beradi.

Bunda inflyatsiya ta'sirini hisobdan chiqarish uchun qabul qilingan bir xorijiy turistdan o'rtacha olinayotgan daromadlarni hisoblab topish usulidan foydalanish mumkin.

Shunga e'tibor berish lozimki, xorijiy turistlarning o'lkamizga sarflayotgan mablag'larining o'sishi yangi xizmat turlarining ko'rsatilish hisobiga yuz

berayotgani yo`q. 1997 yilda narxlar arzonlashtirilishi mamlakatimizga keluvchi mehmonlar sonining 45 foizga o'sishiga olib keldi. Bunga shu yili Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yillik yubiley tantanalarida ishtirok etish uchun yetib kelgan xorijiy mehmonlar soni kuchli ta'sir ko'rsatgan, chunki Buxoroga 1996 yilda 14952 nafar xorijiy turist kelib ketgan bo'lsa, 1997 yilda 28211 xorij fuqarosi kelgan.

Xorazm viloyatida 1996 yilda 8942 nafar chet ellik qabul qilingan bo'lsa. 1997 yilda 9418 kishi (oldingi yilga nisbatan 5 foizga ko'p) yetib kelgan.

Tarixiy yodgorliklarni asli holida qanday bo'lgan bo'lsa huddi shunday qilib, milliy va sharqona dizayn uslublaridan foydalanib ta'mirlash kerak. Chunki qadimiy obidalarga boruvchilarni aynan uning qurilish arxitekturasini, bezaklari, ganj va naqshlarning tuzilishi qiziqtirishi tabiiy hol. Shuningdek, arxeologiya topilmalari, tarixiy buyum va ashyolarni muzey eksponatlari qatoriga qo'yish, zarur hollarda har bir turistik rayonlarda o'sha yerda yashovchi xalqning urf-odatlarini, udumlarini, xayot tarzini madaniyatini ifodalovchi maxsus ko'rgazma zallarini tashkil etish, turistlar xordiq chiqarishi uchun trenajyor zallari, suv havzalari va boshqa sport inshootlarini qurish, turli yangidan-yangi xiyobon, bog'lar tashkil etish masalalari turizm tarmog'i oldida turgan ustivor vazifalar qatoridan o'rin olmog'i lozim. Shular qatorida Respublika miqyosida turistlar oqimini muntazam urganib borish va kelajagi bor turistik hudud, obida va maskanlarni toppish, yangi noan'anaviy ishlab chiqarish hamda ularning amaldagi tadbirini ta'minlash kabi masalalarni o'z ichiga oladigan; shuningdek dunyo miqyosidagi iqtisodiy globallashuv talablaridan kelib chiqadigan va uning tamoyillarini inobatga oladigan, turizm marketing usullarini shakllantirishga ko'maklashadigan axborot-texnologiya va ularga mos kommunikatsiya tizimlarini o'zida mujassamlashtirgan turizmning global axborot tarmog'ini yaratish ham asosiy vazifalar qatoriga kiradi.

Bu vazifalarning bajarilishi mavjud imkoniyatlarning rivojlanishini ta'minlaydi. O'zbekistonning rekreatsiya resurslari iqlimiy, landshaft, tarixiy yodgorliklari, xalq amaliyoti Italiya, Gretsiya, Misr, Xitoy, Hindiston

singari turizm rivojlangan mamlakatlar darajasiga mos keladi. Hududlar bo'yicha quyidagi turizm turlarini amalga oshirish mumkin:

1. Kongress turizmi- Samarqand va Toshkentda;
2. Diniy turizm - Diniy obektlar bazasida;
3. Tanishtirish turizmi (sayohat turizmi)-Toshkent, Buxoro,(Samarqand, Xiva, Termiz,Qo'qon, Shahrisabz va Qarshi shaharlaridagi tarixiy madaniy yodgorliklar asosida;
4. Sport-sog'lomlashtirish turizmi davolash manbalari, sport komplekslari asosida, birinchi galda Toshkent viloyatidagi Chimyon-Chorvoq, Namangan viloyatidagi Chortoq, Jizzax viloyatidagi Zomin, Qashqadaryo viloyatidagi Miroqi dam olish zonalar va Respublikamizning boshqa tabiiy sharoiti qulay tog' va tog' oldi zonalarida.
5. Ekoturizm Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo,Sirdaryo, Navoiy viloyatlaridagi ekologik yomon holatli obektlarda;
6. Etnoturizm-Xorazm, Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro, Toshkent, Jizzax, Samarqand viloyatlari, Farg'ona vodiysi va Qoraqalpog'iston respublikalari mahalliy aholisi tili, urf-odatlar, san'ati, milliy taomlari, to'y tomoshalarining har xilligi va o'ziga xosligi bunda muhim omil bo'ladi;
7. Davlatlararo turizm O'zbekiston hududidagi o'tgan«Buyuk Ipak yo'li» asosida.

Shuningdek, milliy bog'lar, qo'riqxonalar, buyurtmaxonalarga, tabiiy muzeylariga, hayvonot, botanika bog'lariga sayohat uyushtirish O'zbekiston flora va faunasiga qiziquvchi barcha sayyohlar uchun ayni muddao bo'ladi. Bunda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga turizm ham salmoqli ta'sir o'tkaza boshlaydi.

Turizm infrastrukturasini rivojlantirishning iqtisodiy-ijtimoiy muammolari va bartaraf etish omillari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida va bozor munosabatlari rivojlanishi natijasida O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yuzaga kelayotganligi (turizmning respublika iqtisodiyotiga yanada integratsiyalanishini mamlakat iqtisodiyotida muhim

ahamiyat kasb etmoqda. Jahon iqtisodiyoti tajribasidan ma'lumki turizm mamlakat xazinasini uchun zarur bo'lgan valyuta tushumini ta'minlash, yangi ish joylarini vujudga keltirish va shu bilan birga aholining turmush darajasini ko'tarish uchun xizmat qiladi. Respublikamiz xalqaro turizm sohasidagi imkoniyatlarining kattaligi bilan qo'shni mamlakatlardan tubdan farq qiladi. O'zbekistonning geografik o'rni nihoyatda qulay, ajoyib tabiiy iqlim sharoitiga ega ekanligidan tashqari, uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni ham beqiyos. O'zbekiston nodir tarixiy arxitektura yodgorliklariga, shirin-shakar mevalar, xilma-xil taomlar, ajoyib milliy an'ana, urf-odatga ega bo'lgan mehmon do'st xalqqa ega. Bularning barchasi chet ellik turistlar e'tiborini o'ziga tortadi va kishilarni lol qoldiradi. Xalqaro turizmni rivojlanishida O'zbekistonda mavjud bo'lgan siyosiy barqarorlik ham muhim o'rin tutadi.

Mamlakatimizda xalqaro turizmni rivojlantirish va uni yangi bosqichga ko'tarish, ichki imkoniyatlardan oqilona foydalanish haqida gap borganda eng avvalo ko'hna, madaniy va me'morchilik yodgorliklarga boy bo'lgan, hamda 2700 yillik tarixga ega bo'lgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz kabi markazlar ustida to'xtalib o'tish lozim. Bu shaharlarda jahon ahlini xayratga soluvchi va lol qoldiruvchi tarixiy obidalar mavjud. Jahonning ko'pgina davlatlarida O'zbekiston ana shu turli ko'hna shaharlari bilan mashhur. Bu shaharlarda qad ko'targan qurilish va me'morchilik san'ati obidalari xorijdan kelgan turistlarning katta qiziqishlariga sabab bo'ladi. O'zbekistonning ana shunday shaharlarini xaqli ravishda Sharq javoxirlari deyishimiz mumkin.

Buyuk shoirlar, allomalar, tarixchilar bu shaharlarning ajoyib chiroyi, ularda hunarmandlar, me'mor ustalarning ishlariga qoyil qolganlar. Shuni hisobga olib, allomalarimiz qadamlari yetgan joylar bo'yicha maxsus turlar yaratish ham serdaromad tadbirga aylanishi mumkin.

O'zbekistonda keyingi yillarda ajoyib inshootlar, madaniy dam olish maskanlari, ziyoratgohlar vujudga keldi. So'nggi yillarda respublikamizda boks, o'zbek milliy kurashi, tennis bo'yicha jahon miqyosida ulkan turnirlar tashkil qilinmoqda, bu tadbirlar esa ko'pgina xorijiy mamlakatlardan turistlarning

kelishiga zamin bo`lmoqda. Tez-tez o`tkazib turiladigan milliy o'yinlarimiz festivali, Universiada, Barkamol avlod, Umid nihollari kabi sport musobaqalari ayniqsa qiziqarli o`tadi. Xalqaro turizmni rivojlantirishda bu omillarni ham nazardan chetda qoldirmaslik lozim.

2005 yilning oktabr oyida O'zbekistonning «Yevrosiyo iqtisodiy hamkorligi» tashkilotiga a'zo bo'lishi natijasida, Respublikaga tashrif buyuradigan sayyohlar soni ham yildan-yilga oshib borishi kutilmoqda.

Bu esa o'z navbatida respublikamiz turizm infratuzilmasi oldiga bir qancha yangidan-yangi vazifalarni qo'yadi va ularning bajarilishini talab qiladi. Shuning uchun ham xizmat ko'rsatishni jahon andozalari darajasida yo'lga qo'yib, hududdagi davlatlarning shu sohadagi o'zaro raqobatiga bardosh berish uchun harcha choralarni kechiktirmasdan ishlab chiqish lozim bo'ladi. Bu raqobatni yengib chiqish uchun soha xodimlarini keskin darajada ko'paytirish va boshqa jarayonlarni turistlar uchun eng qulay holda tashkil etish lozim bo'ladi. Jahon tajribasidan ma'lumki, mamlakatda xalqaro turizm bozorini rivojlantirish va uning faoliyatini yuqori darajaga olib chiqish o'ziga xos murakkab jarayondir. Xalqaro turizmida nazoratsizlik o'zbilarmonchilik bu jarayon rivojiga ziyon yetkazadi.

O'zbekistonda bozor munosabatlari sharoitida xalqaro turizmni rivojlantirish chora tadbirlari davlat tomonidan belgilangan bo'lib, iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirish uchun turli bitimlar, kelishuvlar amalga oshirilgan va oshirilmoqda.

O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishda ichki imkoniyatlarning roli beqiyos darajada katta. Xalqaro turizmni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan quyidagi omillarning bizda yaxshi rivojlanganligini ko'rsatish mumkin:

Milliy, tarixiy va diniy qadamjolarining ko'pligi;

Xalqimizning mehmondo'stligi va milliy an'alarimizning boyligi;

Respublikaning rang-barang tabiati, o'simlik va hayvonot olamining xilma-xilligi, boy rekreatsion resurslarning borligi;

Avtomobil, temir yo`l, xalqaro havo yo'llarining yetarli darajadagi infratuzilmaga ega ekanligi, Respublikaning Yevrosiyo materigining markazida (o'tmishda esa Buyuk Ipak yo'li chorraxasida) joylashganligi kabilar kiradi. Bu omillar albatta turizmning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

O'zbekiston bo'ylab turistik yo'nalishlar

Toshkent-	Samarqand – Toshkent (3 kun).
Toshkent-	Samarqand Navoiy- Buxoro- Toshkent (3-5 kun).
Toshkent-	Navoiy- Nurota tog'lari (Sarmishsoy rasmlari)- Toshkent (5-7 kun).
Toshkent-	Samarqand- Buxoro- Toshkent (3-5 kun).
Toshkent-	Samarqand- Buxoro- Xiva- Toshkent (6-8 kun).
Toshkent-	Urganch (samolyotda) Xiva –Buxoro- Samarqand- Toshkent (5-7kun).
Toshkent-	Qo'qon - Farg'ona- Toshkent (3 kun).
Toshkent-	Farg'ona – Marg'ilon – Toshkent (3-4 kun).
Farg'ona “Oltin xalqasi” (5-7 kun).	
Toshkent-	Samarqand –Termiz – Toshkent (7 kun).
Toshkent-	Chimyon – Toshkent (1-10 kun).
Toshkent-	Beldorsoy – Toshkent (1-10 kun).
Toshkent-	Burchmulla – Toshkent (1-10 kun).
Toshkent-	Aydarko'l – Toshkent (5-8 kun).
Xorazm “Oltin xalqasi” (8-10 kun).	

Ammo xalqaro turizm darajasini yuqori bosqichga olib chiqishda hali ko'p islohotlarni amalga oshirish, kechiktirib bo'lmaz muammolarning choralarini topish va ularni jadallik bilan xayotga tadbiq etish lozim bo'ladi.

Keyingi yillarda hukumatimiz tomonidan turizm sohasini rivojlantirishga e'tibor ko'payib bormoqda, buni hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qaror va farmonlar misolida ham ko'rib o'tish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 27 iyuldagi N 977 raqamli farmoniga asosan sobiq turistik tashkilotlar negizida « O'zbekturizm» Milliy kompaniyasi tashkil

etildi.

O'zbekistonda xalqaro turizmni yanada jonlantirish maqsadida 1995 yilning oktabr oyida Toshkent shahrida "Buyuk Ipak yo'li bo'ylab turizm" deb nomlangan birinchi xalqaro turistik yarmarka o'tkazildi. Yarmarka shundan buyon har yili o'tkazib kelinmoqda. So'nggi yillarda bu yarmarkada qatnashish istagini bilditayotgan davlatlar soni ortib bormoqda, hamda yarmarkalarda tuzilgan shartnoma va bitimlar xalqaro turizmni yanada rivojlantirish, respublikaning turizmga oid imkoniyatlarini samara bilan ishga solish va Buyuk Ipak yo'liga xos bo'lgan qadimgi an'analarni tiklash bobida keng yo'l ochib berilmoqda.¹

O'zbekistan Respublikasi Oliy majlisi tomonidan qabul qilingan «O'zbekistonda 2005 yilgacha turizmni rivojlantirish Davlat dasturi to'g'risida»gi va «Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasida xalqaro turizmni rivojlantirishning zamonaviy infrastrukturasini yaratish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori O'zbekistonda turizmni rivojlantirishga qaratilgan qator farmon, qarorlar orasida alohida ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizdagi turistik infratuzilmani shakilantirish va unga yangi iqtisodiy mexanizmlarni joriy qilish maqsadida bir qancha tadbirlarni hayotga tadbqiq etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bularga:

- Importni kamaytirish va mexmonxonalarni mijozlar uchun zamonaviy va milliy ruhdagi, xalqaro andozalarga javob beruvchi mebel va invertarlar bilan ta'minlash. Buning uchun mebel va invertarlar ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalar tashkil etish;
- Milliy hunarmandchilik bo'yicha kichik korxonalar ochish, ularning faoliyatini kengaytirish, turistlar uchun kundalik zarur maxsulotlarni ishlab chiqarish;
- Turistlar bo'sh vaqtini qiziqarli o'tkazishi uchun sport sog'lomlashtirish markazlari, ko'ngilochar klublar, turistik parklar, kazinolar, tennis kortlarini tashkil etish;

- Reklama faoliyatini kengaytirish, shunga mos poligrafiya ba'zalarini, audio, video, nashrli maxsulotlar sifatini yaxshilash;

- Suvenir mahsulotlari, sport inventarlari ishlab chiqaruvchi xususiy va qo'shma korxonalar tashkil etish;

- Xorijiy sayyohlarning qo'l mehnati evaziga yasalgan kulolchilik, zargarlik, tukuvchilik maxsulotlariga bo'lgan qiziqishlarini hisobga olgan holda kasanachilik va hunarmandchilikni rivojlantirish;

- Turizm iqtisodiga kapital quyilmalarini jalb qilish uchun soliq tartibi kafolatlari tizimni ishlab chiqish;

- Turizm sohasidagi korxonalarni tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish yo'li bilan sarmoyalarni jalb qilish uchun qulay muhit yaratish;

Mavjud material texnik bazani rekonstruksiyalash, uni xalqaro andozalar darajasiga yetkazish, mahalliy resurslarni to'liqroq ishlatishga imkon beruvchi loyihalarni moliyalashtirish, turistlarga xizmat ko'rsatish muammolarini yengillashtiruvchi 100-150 (nomerli) o'rinli mehmonxonalar qurish.

Turistik xizmat marketining turli xizmat ko'rsatishni tashkil etishdan ularni bozorga sotishgacha bo'lgan jarayonlarini o'z ichiga oladi: talabdagi xizmatni yaratish e'lon tarqatish sotish va foydalanish Marketingning ko'p bosqichlari mutaxassislar tomonidan kam o'rganilgan. Marketing-turist xizmatlarini takomillashtirishning quyidagi chora-tadbirlarini taklif etildi:

- Hukumatlararo o'tkaziladigan barcha tadbirlarda ishtirok etish;

- Turizm tizimining, ko'rinishini takomillashtirish, turizmning mavsumiy taqsimlanishini yaxshilash; sayohatlar geografiyasini kengaytirish,

- Turistik ekskursiya xizmati ko'rsatish turi sifatini rivojlantirish.

- Qo'shimcha xizmatlar assortimentni ko'paytirish va yaxshilash: jahon andozasiga muvofiq turistik obektlarni tavsiflash, talabga ko'ra narx belgilashni yo'lga qo'yish;

- Maishiy xizmat va aloqa vositalarini takomillashtirishda tashkilotlarning reklama-axborotini rivojlantirish va turistik tarmoqqa xizmat ko'rsatish;

- Kadrlar tayyorlash va ular malakasini oshirish tizimini yaxshilashtirish, xodimlarning chet elda chet el o`quv yurtlari va firmalarida amaliyot o`tashini ta'minlash;
- Turizmning rekreatsion, tarixiy-madaniy va rivojlanish potensialini o`rganish, uni himoya qilish, qayta tiklash, targ`ibot va foydalanishni yo`lga qo`yish:
- Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xivada tur maxsulotni sotish va reklama qilish.

Marketing tadbirlarini o`tkazish, minglab xorijiy va mahalliy turistlar tarmog`ini yuzaga keltiradi, millionlab dollar valyuta, 2000 ga yaqin andozasidagi (3-4 yulduzli) mehmonxona nomerlari, turizm sohasidagi tashkilotlarning yaxshi moliyaviy holati korxona, firma, kompaniyalar sonini oshirish orqali raqobatli muhit barpo qilish kabi natijalar beradi.

O`zbekistonda turizm infrastrukturasini rivojlantirish yuqoridagi muamolarning yechimiga bog`liq bo`lib, ushbu sohaga yanada ko`prok xorij investitsiyasini kiritish orqali takomillashtirib borish mumkin bo`ladi. Turistlarga xizmat ko`rsatish shahobchalarini shahar va qishloq joylarda ham bir tekisda rivojlantirish lozim. Chunki qishloq joylarda ko`plab tabiiy rekreatsion resurslar bilan birga, tarixiy diniy qadamjolarining ham xozircha foydalanilmayotgan markazlari hisoblanadi. Aynan qishloq joylarda turizmni rivojlantirish orqali xorijlik sayyohlarni xalqimizning etnografiyasi, urf-odatlarini, madaniyati bilan yaqindan tanishtirish imkoniyati tug`iladi. Albatta xorijlik turistlarga hozircha qishloq joylarda yetarlicha xizmat ko`rsatish tarmoqlari faolliyat yurgizmayapti. Ammo yaqin kelajakda shu muammolar bartaraf etilsa, turizmdan mahalliy byudjetlarga ham sezilarli daromadlar tusha boshlaydi. Qishloq aholisini ish bilan ta'minlash, ularning ma'naviy saviyasining oshishida ham ushbu soha ijobiy ta'sir ko`rsatadi. Shu sababdan ham avvaldan foydalanib kelinayotgan qadimiy shaharlarimizdagi turistik ob`ektlar bilan birga qishloq joylarga ham e'tibor qaratish, ularning turistik potensialidan unumli foydalanish, xorijiy va mahalliy turizmning ko'tarilishida muhim bo`g`inlardan biri sanaladi.

I– BOB BO‘YICHA XULOSA.

Fan texnika taraqqiy etgan va yuksalayotgan davrda insonlarda intellektual va ruxiy emosional hissiyotning ortishi yuz berdi. Bu holatda esa rekreatsiya ya'ni insonlarning mehnat jarayonida sarflangan kuchini qayta tiklash faoliyatini rivojlanishini ta'minladi.

Bugungi kunga kelib rekreatsiya bir necha sohalar bilan chambarchas bog'liqdir, bular ma'daniy, ta'lim, soliqni saqlash va boshqalar. Rekreatsion faoliyatning turli shakllari mavjud. Vazifasi va texnologiyasiga ko'ra davolanish, sog'lomlashtirish va tanishuv kabilar rekreasion faoliyat turlari mavjud.

O'zbekistonda rekreatsion – turizm manzilgohlari turli xilda joylashgan. “Osiyo Shvesaryasi” nomi bilan mashhur G'arbiy Tyanshan tizmasi tabiatining jozibasi Alp tog'laridagi rekreatsion manzilgohlar bilan qiyoslanadi. Respublikamizda davolanish va kurort rekreatsiya tizimi ham mavjud. Mamlakatimiz janubidagi “Omonxona”, “Anjir ota”, suvlari shular jumlasidandir. Bulardan tashqari O'zbekistonda faol dam olishning turlari va bosqichlari mavjud. Bular: cho'da tuyada sayir qilish, baliq ovlash, otda yurish, o'tloqlarda sayr qilish, qishloq hayotidan bahramand bo'lish, ya'ni soya salqin joyda dam olib tabiatning bor ne'matlaridan zavqlanish.

Yer resurslari va atmosfera rekreatsion salohiyatini belgilovchi muhim omillardir. Chunki yer resursi tabiatning asosiy boyligi bo'lib qolmasdan balki, respublikaning ijtimoiy, iqtisodiy o'sishga ham ta'sir ko'rsatadi. Atmosfera havosining ifloslanishda esa kimyo sanoatining qoldiqlari, radiaktiv moddalar, transport vositalaridan chiqadigan zaharli gazlar sabab bo'lmoqda.

Rekreatsiya nafaqat ekologik jarayonlar, balki siyosiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlar bilan ham bo'liqdir.

II-BOB. TURISTIK REKREATIONS RESURLAR TUSHUNCHASI

UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

2.1. Turistik-rekreations resurslar tushunchasi.

Ma'lumki turistik resurslarning asosini rekreatsiya resurslari tashkil etadi. Rekreatsiya resurslari bu - turli komponentlar birikmasidan iborat, insonning dam olishi va davolanishi ehtiyojlarini qondirishda xizmat qiladigan vositalardir. Kelib chiqishi va foydalanish xususiyatlariga ko'ra rekreations resurslar ikki guruhga ajratiladi: **tabiiy va antropogen** rekreations resurslar (1-chizma).

Tabiiy rekreations resurslarga, hududiy tabiiy komponentlar birikmasidan iborat, go'zal tabiat go'sha(landshaft)lari kiradi. Ular daryo, ko'l, dengiz bo'ylari, tog' etaklaridagi o'simlik dunyosi, xilma – xil manzarali joylar, mineral suvli shifobaxsh maskanlar bo'lishi mumkin. Undan tashqari aholining dam olishi, sport bilan shug'ullanishi, ov qilishi imkoniyatlari uchun keng hududlar, shahar atrofidagi yashil mintaqalar, park va bog'lar yoki qo'riqxonalar va milliy bog'lar ham tabiiy rekreatsiya resurslaridir.


Turli davrlarda inson aql – zakovati bilan yaratilgan tarixiy, arxeologik va san'at obidalari, yodgorliklar, muzeylar hamda rekreatsiya maqsadida foydalanish mumkin bo'lgan ijtimoiy ob'ektlar, antropogen rekreatsiya resurslariga kiradi. Undan tashqari, rekreations resurslarni qo'yidagi asosiy belgilariga ko'ra ajratish mumkin:

- landshaft – iqlimiy xususiyati;
- tabiiy resurslar potensial zahirasi;
- jozibadorlik va sayyohlik ahamiyati;
- qo'laylik va foydalanish imkoniyati;
- manzara va ekologik xususiyati;
- ijtimoiy – demografik xususiyati.

Turistik-rekreatsion resurslar tasnifi. Bizga ma'lumki turistik resurslarning asosini rekreatsiya resurslari tashkil etadi. Rekreatsiya resurslari tushunchasiga ta'rif beramiz. Rekreatsiya resurslari bu - turli komponentlar birikmasidan iborat, insonning dam olishi va davolanishi ehtiyojlarini qondirishda xizmat qiladigan vositalardir. Kelib chiqishi va foydalanish xususiyatlariga ko'ra rekreatsion resurslar ikki guruhga ajratiladi: **tabiiy va antropogen** rekreatsion resurslar (1-chizma).

Tabiiy rekreatsion resurslarga, hududiy tabiiy komponentlar birikmasidan iborat, go'zal tabiat go'sha(landshaft)lari kiradi. Ular daryo, ko'l, dengiz bo'ylari, tog' etaklaridagi o'simlik dunyosi, xilma – xil manzarali joylar, mineral suvli shifobaxsh maskanlar bo'lishi mumkin. Undan tashqari aholining dam olishi, sport bilan shug'ullanishi, ov qilishi imkoniyatlari uchun keng hududlar, shahar atrofidagi yashil mintaqalar, park va bog'lar yoki qo'riqxonalar va milliy bog'lar ham tabiiy rekreatsiya resurslaridir.

1-chizma



Truasi turistik resurslarni uch guruhini ajratadi:

1. Tabiiy turistik resurslar, «turistik kapital potentsiali» sifatida unga iqlim, havo, manzara, dengiz, ko'l, daryolar, tog'lar, o'rmon va boshqalar kiradi. Boshqacha qilib aytganda, bu resurslarni tabiiy – iqlimiy resurslar deb atash mumkin.

2. Inson tomonidan yaratilgan turistik resurslar, ya'ni arxitektura binolari, yodgorliklar, madaniy ob'ektlar va boshqalar. Bular ekskursiya ob'ektlari hisoblanadi.

3. «Qo'shimcha» turistik resurslar, inson mehnati tomonidan yaratilgan ma'lum mintaqadagi barcha turistlarni qabul qiluvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar hisoblanadi. Bu resurslar orqali turistlarga xizmat ko'rsatish darajasini baholash mumkin.

Infrastruktura resurs sifatida quyidagi guruhlarini o'z ichiga oladi: transport ta'minoti, joylashtirish tizimi, ovqatlantirish tizimi, suvenir mahsulotlari ishlab chiqarish tizimi. Hozirgi kunda turizmni rivojlanishini turizm infrastrukturasi jadallashuviz ko'rish mumkin emas. Chunki mavjud turistik resurslardan samarali foydalanishda bu resurslarning o'ri benihoya katta.

Umuman olganda turistik resurslarga turlicha qarashlar mavjud. Shuni ta'kidlash lozimki, turizm maqsadida turistik resurslardan to'g'ridan – to'g'ri foydalanib bo'lmaydi. Buning uchun ko'pgina qo'shimcha xizmatlar, ya'ni joylashtirish, ovqatlantirish, sayohat va transport xizmatini tashkillashtirish kabi xizmatlardan foydalanish orqaligina turistik resurslardan turizm faoliyatida foydalanish mumkin.

2.2. Navoiy viloyatning turistik-rekreatsion salohiyati.

Navoiy viloyatining geografik o'ri va chegaralari. Viloyatning hozirgi kundagi maydoni 111 ming kv.km ga teng, bu jihatdan u eng katta viloyat hisoblanadi. Respublikamiz ma'muriy birliklari ichida faqat Qoraqalpog'iston Respublikasidan kichikdir. U Andijon va Sirdaryo viloyatlaridan qariyb 30 barobar, qo'shni Buxoro viloyatidan 2,5 marta kattadir. Hatto dunyoning ko'plab mamlakatlari

Niderlandiya, Belgiya, Shveysariya kabi davlatlardan kattaligini ham etirof etish lozim. Viloyat hududining ko'lamini O'zbekiston Respublikasi hududining 24,7 foiziga yoki qariyb $\frac{1}{4}$ qismiga teng, Zarafshon iqtisodiy rayonining $\frac{2}{3}$ qismiga teng. (1-rasm). Ammo viloyat hududining asosiy qismi cho'l zonasida joylashganligi, mahalliy sug'orma suv manbalariga yetarlicha ega emasligi, buning ustiga asosiy suv manbasi bo'lmish, Zarafshon daryosi ham viloyatning janubiy qismidan oqib o'tishi o'lka tabiatining salbiy sifatlaridan sanaladi. Shuning bilan bir qatorda viloyatning geografik o'rni uning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy ravnaqi uchun qulay imkoniyatlarga ega. Viloyat hududidan qadimda Buyuk Ipak yo'lining o'tganligi ham uning geografik o'rni bilan bevosita bog'liqdir. Bundan tashqari viloyat hududi ko'lamining kattaligi davlatlararo yo'l va aloqalar tugunida joylashganligi, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojiga ko'mak beradigan omillardan sanaladi. Shuningdek, Navoiy viloyatining erkin iqtisodiy industrial zonaga aylantirilishi ham fikrimiz isbotidir.

Hozirgi kunda viloyat aholisining umumiy soni 904,2 ming kishi, O'zbekiston Respublikasiga nisbatan 3,3 foiz (2014). Qizig'i shundaki, bu geografik ko'rsatkichlar O'zbekiston miqyosida katta qutbiylik xarakteriga ega: maydoni bo'yicha ham, demografik salohiyati bo'yicha ham ikkinchi, biroq hududiga ko'ra viloyat yuqorida ko'rib o'tganimizdek, Qoraqalpog'iston Respublikasidan keyingi ikkinchi, aholi soni jihatidan esa faqat Sirdaryo viloyatidan oldinda turadi, ya'ni oxiridan ikkinchi. Ushbu taqqoslama ko'rsatkichlar Navoiy viloyatida aholi soni zichligining nihoyatda pastligidan guvohlik beradi. (1-jadval, 2-rasm)

Viloyatning ichki ma'muriy tuzulishi ham uncha murakkab emas. Viloyat tarkibida sakkiz qishloq tumani (Karmana, Konimex, Navbahor, Nurota, Tomdi, Uchquduq, Xatirchi, Qiziltepa), yetti shahar (Zarafshon, Navoiy, Qiziltepa, Nurota, Uchquduq, Yangirabod va Karmana), 38 ta shaharcha va 54 qishloq fuqarolar yig'ini bor. Markazi Navoiy shahri. Ta'kidlab joizki, Sirdaryo viloyatida ham qishloq tumanlari soni 8 ta, lekin uning maydoni Navoiy viloyatiga qaraganda 23,2 marta kichik. Demak, Navoiy viloyatida qishloq tumanlari juda katta maydonlarni

egallaydi va uning hududi yaxshi o'zlashtirilmagan yoki katta iqtisodiy sig'imga ega emas.

Navoiy viloyatining ma'muriy-hududiy tuzulishi, shahar va tumanlar aholisi

(ming kishi hisobida 2013 y)


1-jadval

Shahar va tumanlar	Tashkil topgan vaqti	Maydoni (ming kv.km)	Aholisi		Ma'muriy markazi
			Ming kishi	Zichligi 1 kv.km	
Viloyat bo'yicha:	20.04.1982	111	888 399	8,0	Navoiy shahri
Navoiy shahri	1958	0,05	134 383	268,6	
Zarafshon shahri	1972	0,02	73 104	365,5	
Karmana	09.09.1926	0,95	107 271	112,8	Karmana shahri
Konimex	29.12.1965	9,14	29 399	3,2	Konimex shaharchasi
Qiziltepa	07.12.1970	2,19	135 247	64,3	Qiziltepa shahri
Navbahor	12.03.1980	1,57	99 185	61,9	Beshrabod shaharchasi
Nurota	29.09.1926	6,54	83 102	12,7	Nurota shahri
Tomdi	03.07.1927	42,49	15 390	0,4	Tomdibuloq shaharchasi
Uchquduq	25.03.1982	46,63	34 695	0,7	Uchquduq shahri

Xatirchi	03.12.1964	1,42	176 623	126,1	Yangirabod shahri
----------	------------	------	---------	-------	----------------------

Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Rasm-2. Siyosiy-ma'muriy karta



- Konimex tumani (1) (Konimex)
- Karmana tumani (2) (Karmana)
- Qiziltepa tumani (3) (Qiziltepa)
- Xatirchi tumani (4) (Yangirabot)
- Navbaxor tumani (5) (Beshrabot)
- Nurota tumani (6) (Nurota)
- Tomdi tumani (7) (Tamdibulak)
- Uchquduq tumani (8) (Uchkuduk)

Darhaqiqat, Uchquduq tumanida bu ko'rsatkich 46,6, Tomdi tumanida 42,5 ming kv.km gat eng. Bu borada Qoraqalpog'istonning Qo'ng'iroq tumanidan so'ng (76,0 ming kv.km) ikkinchi va uchinchi o'rinlarda turadi.

Shu joyda ta'kidlash joizki, ushbu ikki qishloq tumanlari Navoiy viloyati hududining 80,3 foizini, respublika umumiy maydonining yaqin 1/5 qismini egallaydi. Eng kichik tumani – Karmana va eng katta tumani Uchquduq o'rtasidagi tafovut 49,1 martaga barobar. Konimex tumanining joylanishi ham o'zgacha: tuman markazi asosiy hududdan ajralgan holga o'rnashgan. Qishloq

tumanlari orasida Karmana va Nurota respublikamizda birinchilar qatorida tashkil etilgan ushbu toifadagi ma'muriy birliklarga kiradi.

Navoiy viloyati tashkil eilgunga qadar janubiy hududlar – Qiziltepa, Karmana, Navbahor tumanlari Buxoro viloyati, Xatirchi, Nurota tumnlari Samardand viloyati tarkibida bo'lgan. Bir vaqtlar Uchquduq va Tomdi tumanlari Qoraqalpog'iston respublikasi tasarrufiga kirgan.

Navoiy viloyatidagi turistik resurslari salohiyatini baxolashning o'ziga xos tomonlarini baxolash uchun resurslarni **tabiiy** va **antropogen** resurslar bo'lib o'rganamiz.

Dastlab barcha turistik resurslarda e'tiborga olinadigan tabiiy xususiyatlarni ko'rib chiqamiz. Viloyatda 3 ta yirik suv havzasi mavjud. Shundan Aydarko'l suv havzasi jihatdan eng katta hisoblanib, umumiy maydoni 145503 ga yetadi. Ushbu suv havzasi 41,5 mlrd metr kub sig'imga ega. To'dako'l suv havzasi 21673 ga maydonni egallab, 1,75 mlrd metr kub suv sig'imiga ega. Sho'rko'l suv havzasi 2516 ga maydonni egallab, suv sig'imi 0,22 mlrd metr kubni tashkil etadi. Undan tashqari viloyatning Qiziltepa tumani hududida Quymazor suv ombori mavjud bo'lib, uning maydoni 650 ga ni tashkil etadi. Ushbu suv ombori suv sig'imi 0,83 mlrd metr kub ni tashkil etib, asosan Buxoro viloyati aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlaydi.

Viloyatning shimoliy hududlarida o'rtacha yillik yog'ingarchilik miqdori 232 mm . ni, janubiy hududlarida esa o'rtacha yillik yog'ingarchilik miqdori 170 mm . ni tashkil etadi. Viloyat iqlimi mo'tadil. Yoz oylarida havo harorati + 48,2 gradus temperaturagacha isib ketishi va qish oylarida – 32,3 gradusgacha sovib ketishi kuzatilgan.(3-rasm)

Viloyatning markazi Navoiy shahri hisoblanib, dengiz sathidan 340 metr balandlikda joylashgan.

Viloyatda 3 ta pansionat mavjud, shundan NTMK tarkibida 1 ta, "Qizilqumsement" OAJ tarkibida 1 ta "Navoiyazot" OAJ tarkibida 1 ta pansionat aholiga xizmat qilmoqda. Undan tashqari viloyatda xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik markazi, viloyat tarixiy o'lkashunoslik muzeyi,

“Navo” ashula va raqs ansambli, xo’jalik hisobida faoliyat olib boradigan
“O’zbeknavo” EB viloyat bo’limi, Navoiy Madaniyat va san’at kolleji viloyat

Rasm-3. Iqlim kartasi

ko'zi ojizlar kutubxonasi hamda 4 ta sport maktablari , 10 ta shahar va tuman Madaniyat va sport ishlari bo'limlari va ular tasarrufidagi 88 ta klub muassasasi, 5 ta madaniyat va istirohat bog'lari, 11 ta bolalar musiqa va san'at maktablari, 9 ta muzeylar viloyatning ko'p millatli aholisiga xizmat ko'rsatib kelmoqda.

Navoiy shahrida 8 ta mehmonxona qad ko'targan bo'lib, ular shaharning ko'rkiga ko'rk berib turibdi. Viloyatda shunga o'xshash mehmonxonalar 13 tani tashkil etib, ushbu mehmonxonalarda mijozlarga sifatli xizmatlar ko'rsatib kelinmoqda.

Hozirgi kunda viloyatda 90 ta diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Shulardan 77 tasi Jome' masjidлари, 13 ta noislomiy diniy tashkilotlardir. Viloyatda transport tizimini rivojlantirish jumladan, shahar va olis qishloqlarga olib boruvchi avtotransport yo'llarini ta'mirlash borasida ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Yo'llar ravonlashmoqda.(4-5-rasm)

Sobiq ittifoq davrida Temir Shayx qadamjosi, Amir Abdullaxonniig uyi singari ko'plab binolari yakson qilindi. Ularning o'rnida turli maqsadlarda idoralar qurildi. Aksariyat tarixiy obidalar buzilib, o'zni paxta maydonlariga aylantirildi. Jumladan, Karmananing g'arbiy chegarasida joylashgan Raboti Malik yodgorligi ham mana shunday e'tiborsizlik oqibatida qariyb yo'qolib ketish arafasida edi. Raboti Malik Markaziy Osiyodagi monumental me'morchilik yodgorliklaridan biridir. Hozirda Rabotning peshtoqi va Sardobasi qolgan. Qadimda Rabot karvonsaroy, mehmonxonalar, ovqatlanish xonalari va tahoratxona kabilardan iborat bo'lgan. Mazkur obida 1069-1070 yillarda podshoh, Shamsulmulk Nosir ibn Ibrohim (1068-1080) tomonidan barpo etilgan deb taxmin qilinadi. Qadim Karmana tarixidan guvohlik berib turuvchi yana bir obida Raboti Malik ro'parasida joylashgan Sardobadir. Sardoba ichimlik suvi saqlanadigan inshoot bo'lib, karvonsaroyga tashrif buyurgan yo'lovchilarning chanqog'ini bosishda, tuyalari va ot-ulovlarini sug'orib olishlarida suv manbai vazifasini o'tagan.

Arxeologik qazishmalar jarayonida Sardoba hovlisidan qadimiy sopol quvurlarining chiqishi, bu yerda ming yil burun ham madaniyat va fan taraqqiy

Rasm-4. Madaniyat kartasi

etganligini ko'rsatib turibdi. Qadimda sopoldan yasalgan suv quvurlaridan foydalanish Zarafshon vohasida keng tarqalganligi haqiqatdir. Samarqand Buxoro oralig'idagi joylarda XI asrdayoq jumrakli suv quvurlari mavjudligi arxeologlarimiz tomonidan e'tirof etilgan edi. Karmana tumanining yana bir mashhur tarixiy yodgorligi Karmanadan taxminan 40 km. shimoliy g'arb tomonda joylashgan Hazora qishlog'i yonidagi Mavlono Orif Deggaroniy ziyoratgohi va masjididir. Mavlono Orif Sayyid Amir Kulolning eng yaqin shogirdi, islom olamida Naqshbandiy bilan teng ehtiromga loyiq pir, karomatlar va bashoratlar ko'rsatish qobiliyatiga ega valiydir. Mavlono Orifning qabrlari va masjidi muqaddas ziyoratgohlardan sanaladi. Ba'zi bir manbalarda masjid XI asrda qurilgan, deb qayd etiladi. Tarixda shunday valiy yashaganligi haqida ma'lumotlar anchagina. Mavlono Orif Deggaroniy 1312 yilda tug'ilib, 1375 yilda vafot etgan. Karmana XXI asrga yangi madaniy markaz qiyofasi bilan kirib keldi. 2001 yilda Prezident I.A.Karimov tashabbusi bilan shaharning markaziy yo'llari qayta ta'mirlandi. Qosim Shayx ansambli qayta tiklandi va ziyoratgohga aylantirildi.

Navoiy viloyatining olamshumul turistik obe'ktlaridan biri bu Sarmishsoy hududidir. Bu yerni ochiq ostidagi beqiyos muzeyga tenglashadi.

YUNESKONing O'zbekistondagi vakolatxonasi tomonidan Markaziy Osiyo xalqaro tadqiqotlar instituti bilan hamkorlikda tashkil etilgan tadbirda Markaziy Osiyo davlatlari, shuningdek, Rossiya, Avstraliya, Norvegiya, Fransiya, Eron kabi dunyoning o'ndan ziyod mamlakatlaridan kelgan arxeolog va tarixchi olimlar, "Xalqaro meros" markazi, IKOMOS tashkilotlarining ekspert-mutaxassislari ishtirok etishdi.

Tadbirning ochilish marosimida Markaziy Osiyo xalqaro tadqiqotlar instituti direktori Sh.Mustafayev, YUNESKONing O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Xorxe Evan Espinal, "Xalqaro meros" markazi vakili Roland Lin Shin Xung, SamDU rektori Temur Shirinov va boshqalar ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan

qoyatosh rasmlar nafaqat Markaziy Osiyo xalqlarining, balki butun insoniyatning madaniy boyligi ekanligi, uni asrab-avaylab kelgusi avlodlarga yetkazib berishda arxeolog olimlar va jamoatchilikdan tashqari hukumatlar darajasida chora-tadbirlar

Rasm-5. Madaniyat markazlari kartasi

ko'rish lozimligi haqida so'z yuritishdi. Bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlarga yuksak baho berildi. To'rt kun davom etadigan seminar davomida mehmonlar Navoiy viloyati hududidagi Sarmishsoy tog' darasiga sayohat qilib, qoyatoshlardagi rasmlarni o'rganib chiqishdi.

- O'zbekiston hududida topilgan minglab qoyatosh rasmlar haqida ma'lumotlarga egamiz,- deydi Fransiya ilmiy tadqiqotlar milliy markazi rahbari Anri-Pol Frankfor. – Ammo ularning ko'pi tarixiy meros sifatida butunjahon madaniy meros ob'ektlari ro'yxatiga kiritilmagan. Aynan shuning uchun ham YUNESKO tashabbusi bilan bunday madaniy meroslar aniqlanib, jahon madaniyati boyliklari sirasiga kiritiladigan bo'ldi.

Sarmishsoy qoyatoshlari rasmlari haqida qisqacha ma'lumot berib o'tamiz. Navoiy viloyati hududidagi Qoratog'ning yon bag'rida joylashgan Sarmishsoy tabiiy arxeologik majmua qo'riqxonasini ko'pchilik yaxshi biladi. Arxeolog-olimlarning ma'lumotlariga ko'ra, xushmanzara Sarmishsoy vodiysining hozirgi ko'rinishi bundan gersin geologik burmalanishlari davrida shakllangan. Undan keyingi davrlarda tog' tuzilishlari bir necha marta yangilangan va o'zining hozirgi holatiga kelgan. Sarmishsoy O'zbekiston hududidagi eng ko'p va beqiyos qoya tosh rasmlarini saqlab qolgan vodiidir.

Vohaning qulay tabiiy sharoiti bu yerda odamlar paleolit davridan (300 ming yildan 15 ming yilgacha) yashay boshlagan degan fikrni inkor etmaydi. Vohaning janubida joylashgan Uchtut chaqmoqtosh makoni va shaxtasi fikrimizga asos bo'la oladi. Bu joy o'rta tosh davridan bronza davriga qadar Zarafshon vodiysi va uning atrofida yashagan qabilalarni chaqmoq tosh bilan ta'minlagan.

Qoratog'ning janubiy yon bag'ridagi Sarmishsoy darasi qoyatoshlariga o'yib ishlangan rasmlarda yovvoyi hayvonlarni ovlash, raqs tushayotgan odamlar, diniy marosimlar tasvirlangan. Xonaki va yovvoyi hayvonlar, o'q-yoy, xanjar, qilich, nayza kabi turli buyumlar, kiyimlar - jami 4 mingga yaqin rasm bronza, temir va

tosh bilan urib-cho'kichlab sxematiq kontur, soya va naqshdor uslubda ishlangan. Sarmishsoy darasidagi 6-7 ming yillik tarixga ega petrogliflar ibtidoiy san'atning nodir yodgorligi, shu xududda yashagan qadimiy xalqlarning hayoti va hayvonot dunyosi tarixini o'rganishda muhim manba sanaladi.

2.3. Viloyatning turistik-rekreatsion resurslaridan samarali foydalanish va turizmni rivojlantirish istiqbollari.

Yuqorida ko'rib chiqilgan qismda mavjud resurslarni tahlil qilib, ulardan turizm faoliyatida foydalanish imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz. Dastlab rekreatsion faoliyatni yo'lga qo'yish uchun imkoniyatlarni ko'rib chiqamiz.

Bugungi kunda Aydarko'lning Jizzax viloyatiga tegishli qismida dam olish maqsadida foydanish mumkin bo'lgan bir necha kichik inshootlar qurilgan bo'lib, ulardan mahalliy aholi aktiv foydalanib kelmoqda. Navoiy viloyati xududida ham shunday kichik ob'ektlar bo'lib o'tov holiday qurilmalarni ko'rish mumkin. Ulardan asosan mahalliy aholi suvda suzish, qayiqda sayr qilish imkonini beradigan servislarni taklif qilishadi. Ko'lning suvi sho'r bo'lsada undan suv havzasi sifatida foydalanish uchun katta imkoniyatlar bo'lib, yaratilgan shart sharoitlar boshlang'ich bosqichda ekanligidan dalolat beradi. (rasm)

Navoiy viloyatining sayohat va ekskursiya xizmatlari buyurosi boshlig'i lavozimida ishlagan Muazzam Qodirovaning fikrlarini bayon qiladigan bo'lsak viloyatda turizmni rivojlantirish uchun juda katta potensial borligi ma'lum bo'ladi. U kishining ma'lumotlari bo'yicha Aydarko'l, To'dako'l atrofidagi Do'ngalak va Yangikazgan aholi punktlarida (Konimex tumani) turistik rekreatsion kompleksi va etnografik park, o'zbek va qozoq milliy kiyimlarini tikadigan sexlar ochilishi rejalashtirilgan.

Bundan tashqari yuqorida aytib o'tilgan sarmishsoy xududiga yangi marshrut tuzilishi rejalashtirilgan. Marshrut ishlab chiqish jarayonida Sangijumon, Langar, Sarmish, Setob maskanlarida turistlar uchun minimal infrastruktura yaratilishi

aytib o'tildi. Ayniqsa sport va ovchilik yo'nalishidagi ekologik turizm katta ahamiyat kasb etadi.

Navoiy EIIZ ning ochilishi qator mexmonxonalar va turistik markazlarning ochilishiga imkon beradi. Jumladan Navoiy shahrida "Turkiston" mexmonxona kompleksining ochilishi va Karmana tumanida xususiy servis markazi kemping bilan birgalikda qurilishining boshlanishi bu soxadagi rivojlanishga yaqqol misoldir. Nurota tumanidagi "Chashma" halqaro kompleksining qaytadan qurilishi mahalliy va xorijiy turislar davolanish va damolish maqsadlarini amalga oshirishga imkon beradi. Ushbu maskan haqida qisqacha ma'lumot berib o'tamiz. To'liq nomlanishi "Nurota-Chashma" majmuasi deyiladi. Joylashgan xududi "Qizilqum-Nurota" biosfera muxofaza zonasida bo'lib, Nur bulog'i va qadimgi ikki masjid asosiy elementlardir. Buloqning suvida kumushning borligi uning musaffoligini ta'minlab turadi. Buni rus akademigi Dima 1912 yilda olib borgan tadqiqotlari natijasida tasdiqlagan.

Albatta yaxshi sharoit yaratish uchun katta mablag' talab etiladi. Shunga qaramasdan talab borligi uchun xususiy tadbirkorlar sekin asta bu joylarni obodonlashtirishga intilmoqda. Bu xududda davlat tomonidan tashkil qilingan yirik ob'ektni ko'rmaymiz. Fikrimizcha mazkur mintaqaga e'tibor qaratiladiga bo'lsa yirik dam olish maskani hosil bo'lish potentsiali bor.

Turistlarni jalb qiladigan go'shlardan biri bu Navoiy viloyatining Nurota regioni bo'lib, o'zining ajoyib tabiat manzaralari, tarixiy arxitektura yodgorliklari bilan kishilarni maftun etadi. 1975 yilda tashkil etilgan va maydoni 17,8 ming ga bo'lgan Nurota tog' yong'oqzor - meva qo'riqxonasi mavjud. Bu qo'riqxonaga "Ekosan" qoshidagi "Ekosantur" firmasi tomonidan ko'plab marshrutlar uyushtirilgan. Oqtog'ning janubiy yon bag'rida joylashgan shamol tasirida tebranib turuvchi bahaybat xarsang toshli «Samjigumon», «Koriz qoldiqlari» kabi tabiat yodgorligi ekoturizmning muhim ob'ektlaridan bo'lib hisoblanadi.

Nurota tog' oldida joylashgan "Chashma bulog'i" ko'p asrlardan buyon Nurota shahri va uning atrofidagi qishloqlarni suv bilan taminlash bilan bir qatorda diniy ziyoratgohdir. Buloq yaknida "Chilistun" masjidi, Madrasa, Abul Xasan

Nuriy maqbarasi va qalasi joylashgan Chashmadagi baliqlar ilohiy hisoblanadi. Baliqdan taralayotan nur inson nigohini lol qoldiradi.

Qoratog' tizmasiniig janubiy yon bag'rida «Sarmish darasi»dagi qoyalarda avlodlarimizning hayoti va madaniyatini aks ettiruvchi lavhalar, rasmlar ishlangan.

Janubiy Nurota tizmasida uzunligi 110 m, absolyut balandligi 1060 m, maydoni 163 m² keladigan "Maydon karst g'ori", Shimoliy Nurota tizmasidagi uzunligi 130 m, absolyut balandligi 1100 m. maydoni 70 m² keladigan «Xonaixudo karst g'or»da speleoturizmni rivojlantirish mumkin. Bulardan tashkari, XI asrda bunyod etilgan va XVIII asr boshlarigacha turgan "Rabot Malik karvonsaroyi» sayyohlarning tuxtash joyi, shuningdek savdogarlarning savdo qilish joyi bo'lgan. Rabot Malik yonida ming yillik tarixga ega bo'lan madaniyat yodgorligi - sardoba uchraydi. Yer ichiga 12 m. botirilan sardobada butun yoz buyi muzdek va toza suv saqlangan. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan resurslardan foydalanish uchun transport yo'llari mavjud, ammo sifat jihatdan ba'zilar ta'mirlanishni talab qiladi. Joylashtirish vositalarining yetishmaslik muammosi mavjud.

Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishi bilan xizmatlarning sifati va nomenklaturasiga, turizm-ekskursiya xizmatlarini ko'rsatishning turli xil shakl va usullariga qo'yiladigan yangi talablar ilgari surilmoqda. Bu jihatdan turizmning samaradorligini oshirish uchun uning moddiy-texnika bazasini modernizatsiya qilish va uni jahon andazalari darajasida rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Bu jarayonga sarmoya salohiyatidan ikki yo'nalishda foydalanishni amalga oshirish mumkin bo'ladi:

Birinchi yo'nalish, turizm-ekskursiya xizmatining sifati va hajmini hozirda mavjud bo'lgan moddiy-texnik baza asosida oshirishni ko'zda tutadi.

Ikkinchi yo'nalish, moddiy bazani yanada rivojlantirishni, turizm muassasalari tarmog'ini kengaytirishni va qo'shimcha turistik resurslarni o'zlashtirishni ko'zda tutadi.

Ma'lum tarixiy joylar, obidalar va hududlarni maxsus muhofazaga olmaslik, ularni yemirilishiga, yomon ahvolga tushib qolishiga olib keladi. Shu sababli

maxsus muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hudud va muzeylarda qo'riqxonalar tashkil etilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Muhofaza qilinadigan hududiy shakl hisoblangan muzey-qo'riqxonalar o'z hududidagi tarixiy-madaniy merosni, atrof-muhitni muhofaza ostiga oladi.

Eng asosiysi, bu hududdan turizm maqsadida tartibli, me'yor darajasida foydalanish imkoniyati tug'iladi. Bulardan tashqari, quyidagi ishlarni bajaradi:

- madaniy va tabiiy landshaftlarning yemirilishi, yomonlashishiga olib keluvchi vositalardan saqlaydi;
- tartibsiz turizmdan saqlab, ekskursiya xizmatlari va boshqa xizmatlarni joriy etish orqali milliy iqtisodiyotga daromad keltiradi;
- bundan tashqari, daromad evaziga shu hududlarning o'zini ham saqlash va ushlab turishi uchun iqtisodiy imkoniyat yaratiladi.

Albatta tumanlardagi ayrim tarixiy joylar, ajoyib tabiat hududlariga alohida e'tibor qaratilmasa, ular turistik jozibadorligini yo'qotadi. Shu sababli, birinchidan, bu hududlar tarixiy-madaniy meros yoki rekreatsion resurs sifatida tan olinib, maxsus muhofaza ostiga olinishi (maxsus ruyxatga olinishi, ekologik, arxitektura jihatdan nazorat ostiga olinib, muhofaza etish) kerak. Ikkinchidan, bu hududlardan foydalanish va muhofaza etishning iqtisodiy sharoitini yaratish lozim. Bunda davlatning iqtisodiy-siyosiy ko'magi, soliq siyosati, moliyalashtirish dasturi kabi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tarixiy, arxitektura yodgorliklaridan turizm maqsadida samarali foydalanishga to'sqinlik qiluvchi omillardan biri bu tarixiy joylar oldida, atrofida har xil qurilishlarning (turar joy, savdo do'koni, maishiy xizmat ob'ektlari, yo'l va boshqalar) bo'lishidir.

Viloyatda turizmning turli yo'nalishlarini masalan, diniy, tarixiy, arxeologik, etnografik, ekoturizm va h.k.larni rivojlantirish uchun imkoniyatlar mavjud bo'lib, bu imkoniyatlardan to'laqonli foydalanish lozimligini taqozo qiladi. Bu esa mavjud infratuzilmaning holatini talabga javob beradigan darajada ushlab turishini ta'minlashni taqozo qiladi.

Viloyatda milliy turistik mahsulot shakllantirish masalasi to'liq yechilgan emas. Bu imkoniyatlarning ishga solinishi nafaqat turizm sohasining, balki butun iqtisodiyotning samaradorligini oshirishga olib keladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Navoiy viloyatida turizmni tashkil etish va rivojlantirish borasida katta turistik salohiyatga ega bo'lib, bu yerda yana qo'shimcha tarixiy, diniy, madaniy-etnografik turistik resurslarga boy hisoblangan qishloq joylarining mavjudligi keng turistik imkoniyatlardan dalolat beradi. Bu salohiyatdan turizm faoliyatida samarali foydalanish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish kerak deb hisoblaymiz:

- mintaqada mavjud turistik resurslar asosida yangi turistik mahsulotlarni shakllantirish hamda ekskursiya xizmatini takomillashtirish;
- “Tur xizmatlar paketi”ni shakllantirishda iste'molchilar talabiga javob bera oladigan paketlar narxini to'g'ri belgilash;
- turmahsulotlarning xaridorligini oshirish maqsadida targ'ibot-tashviqot, reklama jarayonini rivojlantirish;
- turistik firmalarning faoliyatini ekologik, diniy, madaniy, sport ekstremal sayyohlik sohalariga yo'naltirish;
- turizm bozorining rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda, chet el mamlakatlaridan keluvchi sayyohlarning tashrif maqsadlari va xususiyatlarini o'rganish, ularga eng qiziqarli yo'nalishlarni taqdim etish;
- xizmatlar turini, ayniqsa, sayyohlik yo'nalishiga kiritiluvchi xizmatlar turini kengaytirish orqali milliy turistik mahsulot raqobatdoshligini oshirish;
- xalqaro sayyohlik ko'rgazmalarini tashkil etish va o'tkazish.

Viloyatda turizmni rivojlantirish borasidagi bizning tavsiyalarimiz amaliyotga tatbiq qilinsa, Navoiy viloyatida ham turizmni rivojlantirish imkoniyatlari paydo bo'ladi va rivojlantirish uchun bir qancha ichki imkoniyatlar yechiladi. Pirovardida mamlakat iqtisodiyoti ham rivojlanadi, aholining farovon yashash imkoniyati ham yanada kengayadi.

II– BOB BO'YICHA XULOSA.

Rekreatsion resurslar insonning dam olishi va davolanish ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan vosita hisoblanadi. Go'zal tabiat go'shalari daryo, ko'l, dengiz bo'ylari, tog' etaklari, manzarali joylar, meniral suvli shifobaxsh maskanlar tabiiy rekreatsion resurlar guruhiga kiradi. Ma'daniy va tarixiy, diniy markazlar, ziyoratgohlar muzey, milliy bog'lar, ko'rgazma va kutubxonalar ko'ngilochar ob'ektlar antropogen rekreatsiya resurslarga misol bo'la oladi. Turistik resurslarning omillar tamonidan keltirilgan bir necha tasniflari mavjud. Yuqorida M.Trusi, Defer, T.Xristov, D.Chudnovskiy kabi olimlarning tasniflari keltirilgan. Dam olish va sog'lomlashtirish maskanlarining qurilishi xalq xo'jaligida ahamiyati katta, lekin turli mezonlar va ekologik holat ham e'tibotga olinishi lozim.

Navoiy viloyatining turistik rekreatsion salohiyati o'ziga xosdir. Viloyatda 3 ta yirik suv havzasi va suv ombori mavjud. Viloyatda 3 ta pansianat aholiga xizmat ko'rsatmoqda. Bundan tashqari ma'daniy-ma'rifiy, ilmiy-metodik markaz, tarixiy o'lkashunoslik muzeyi, sport maktablari, ma'daniyat istirohat bog'lari musiqa va san'at maktabi viloyatning ko'p millatli aholisiga xizmat ko'rsatib kelmoqda. Viloyatda mehmonxona va diniy tashkilotlar ham mavjud. Viloyat hududida Raboti Malik yodgorligi Sardoba olamshumul turistik ob'ekt Sarmishsoy, Qosim Shayx ansambli joylashgan. Nurota chashma majmuasi turistlarni jalb qiladigan go'shalardan biri. Nurota tog' yong'oqzor meva qo'riqxonasi, "Sangijumon" koriz qoldiqlari ekoturizmning muhim ob'ektlaridir. Sarmish darasidagi qaerda avlodlarimiz hayoti va ma'daniyatini aks ettiruvchi rasmlar ishlagan. "Xonaixudo karst g'or" da spelio turizm rivojlantirish mumkin. Navoiy viloyatida turizm sohasini rivojlantirish uchun, rekreatsion resurslardan foydalanish uchun transport

yo'llari mavjud, ammo sifat jihatidan ba'zilar ta'mirlashni talab etadi. Joylashtirish vositalarining etishmaslik muommosi mavjud.

III - BOB. NAVOIY VILOYATIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH.

3.1. Navoiy viloyati turizmining rivojlanishi va uning hududiy tahlili.

Butun dunyoda va Respublikamizda bo'lgani kabi Navoiy viloyatida ham turizmning hudud iqtisodiyotiga ta'siri oshib bormoqda. Bunda albatta turizm faoliyati bilan shug'ullanuvchi firmalar, tashkilotlar, sayyohlik agentlarining o'rnini beqiyos. Turistik xizmatni taqdim etuvchi tashkilotlar soni yildan-yilga oshib bormoqda. (6 -rasm)

Mamlakatimizda hozirgi kunda ham asosiy turistik tashkilot bo'lib «Uzbekturizm» Milliy kompaniyasi faoliyat ko'rsatmoqda. Uning tashkiliy tuzilmasida 17 ta korxona va 3 sho'ba korxonalar mavjud. Navoiy viloyati ham mavjud korxona va shubalar doirasida ish ko'radi.

Turizmdan tushayotgan daromadlarning aksariyat qismi mamlakatimizdagi kirib kelayotgan xorijiy mehmonlar hisobiga to'g'ri keladi.

Demak, mamlakatimizdagi kabi viloyatimizda ham turizmdan olinayotgan daromadlarni oshirish uchun qabul qilish turizimga jo'natish turizmdan kura ko'proq e'tibor berish kerakki, bu tarmoqning rivojlantirilishiga sarflanadigan harajatlarni tezroq muddatlarda o'zlarini qoplash imkonini beradi.

Shunga e'tibor berish lozimki, xorijiy turistlarning o'lkamizga sarflayotgan mablag'larining o'sishi yangi xizmat turlarining ko'rsatilish hisobiga yuz berayotgani yo'q. 1997 yilda narxlar arzonlashtirilishi viloyatimizga keluvchi mehmonlar sonining sezilarli darajada o'sishiga olib keldi.

Tarixiy yodgorliklarni asli holida qanday bo'lgan bo'lsa huddi shunday

qilib, milliy va sharqona dizayn uslublaridan foydalanib ta'mirlash kerak. Chunki qadimiy obidalarga boruvchilarni aynan uning qurilish arxitekturasini, bezaklari, ganj va naqshlarning tuzilishi qiziqtirishi tabiiy hol. Shuningdek, arxeologiya topilmalari, tarixiy buyum va ashyolarni muzey eksponatlari qatoriga qo'yish, zarur hollarda har bir turistik rayonlarda o'sha yerda yashovchi xalqning

Rasm-5. Turizm kartasi

urf-odatlari, udumlarini, xayot tarzini madaniyatini ifodalovchi maxsus ko`rgazma zallarini tashkil etish, turistlar xordiq chiqarishi uchun trenajyor zallari, suv havzalari va boshqa sport inshootlarini qurish, turli yangidan-yangi xiyobon, bog`lar tashkil etish masalalari turizm tarmog`i oldida turgan ustivor vazifalar qatoridan o`rin olmog`i lozim. Shular qatorida Respublika miqyosida turistlar oqimini muntazam urganib borish va kelajagi bor turistik hudud, obida va maskanlarni topish, yangi noan'anaviy ishlab chiqarish hamda ularning amaldagi tadbirini ta'minlash kabi masalalarni o'z ichiga oladigan; shuningdek dunyo miqyosidagi iqtisodiy globallashuv talablaridan kelib chiqadigan va uning tamoyillarini inobatga oladigan, turizmda marketing usullarini shakllantirishga ko`maklashadigan axborot-texnologiya va ularga mos kommunikatsiya tizimlarini o'zida mujassamlashtirgan turizmning global axborot tarmog`ini yaratish ham asosiy vazifalar qatoriga kiradi.

Viloyatining tarixiy -meymoriy obidalari va muzeylarning tahlili

Nurota chashmasi yodgorliklari Nurota me'moriy obidalari ulug` ajdodlarimiz tomonidan bunyod etilgan millotdan avvalgi me`morsozlik bilimlari va amaliyotining qadimiy boy va noyob namunalaridan hisoblanadi. X asrlardayoq bu yerda jome' masjidi, ko'plab rabotlar va muqaddas ziyoratgohlar mavjud bo'lgan. Akademiklar Yahyo G'ulomov va Ahmadali Asqarovlarning yozishlaricha



“Chashma” sohilidagi madaniy qatlam yoshi 40 ming yilga teng.

Hududda hozirga qadar saqlanib qolgan qadimiy binolardan biri panjvaqt masjid-xonaqosidir. U XVI asrda tiklangan bo'lib,

keyin bir necha bor kengaytirilgan. Uning ikki tomonida XIX asrning o'rtalarida masjidga taqab qurilgan ayvonlar joylashgan. Ikkinchi bino 16 ta ustun asosiga qurilgan bo'lsa ham aholi tomonidan "Chilustun" ya'ni "Qirq ustun", deb ataydigan jome' masjididir. Bino tomi 25 ta kichik gumbaz bilan qoplangan. Masjid XVI asrda qurilgan, lekin uning eski qismidagi tosh poydevor saqlanib qolgan. Peshtoqidagi yozuvning guvohlik berishicha 1321/1903-1904 yillarda masjidda tubdan ta'mirlash ishlari o'tkazilgan.

Nurota shahridagi "Chashma" me'moriy majmuasini sayyohlik markaziga aylantirish va mazkur qadamjoga tashrif buyuruvchi sayyohlarga servis xizmati ko'rsatilishini takomillashtirish bo'yicha ham diqqatga sazavor ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda kompleksda joylashgan "Chil ustun", "Ko'k gumbaz" va "Domalla" tarixiy masjidlari, ziyoratgoh hovlisi zamonaviy talablar asosida ta'mirlanib, obodonlashtirilgan.

Avtoturargoh ajratilgan. Majmua ichkarisida Nurota tarixiga oid O'lkashunoslik muzeyi qaytadan ta'mirlanib, zarur eksponentlar bilan qo'shimcha jihozlangan.



Nurota tumanidagi qadimiy hunarmandchilik mahsulotlari ko'rgazma-savdo muzeyini tashkil etish borasida joy ajratilib, qurilish ishlari davom ettirilmoqda.

Kompleksga kiraverishda o'ng tomonda hunarmandchilik mahsulotlari va yengil oziq-ovqatlar savdo rastalari tashkil etilgan.

Kompleksga kiraverishdagi maydonda qadimiy xalq og'zaki ijodi va folklor ashula va raqs tomoshalari namoyish etilish maqsadida 2012 yil mart-noyabr oylarida "Nurjahon" folklor dastasining tomoshalari grafigi ishlab chiqildi.

Shuningdek, kompleksda xorijiy sayyohlarga xizmat ko'rsatish sifatini

oshirish maqsadida mazkur kompleksda viloyat “Sayohat va ekskursiyalar byurosi” DKning hududiy markazini ochish masalasida ishlar boshlandi.

Mazkur majmuaga sayyohlarga sifatli ovqatlanish xizmati ko’rsatilishini tashkil etish borasida tumanda milliy usulda jihozlangan 2 ta hovli belgilanib, xorijiy sayyohlarni sifatli ovqatlantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratildi.

Nurota chashmasi suvining tarkibi, aholi etnografiyasi va hayot tarzi, foydali qazilmalari va arxeologiyasi bilan qiziqqan olimlar tomonidan 1912 yilda ilmiy – tadqiqot ishlari o’tkazilib, tahlil qilingan. Chashma suvida asosan shirmohi baliqlari yashashi ham suvning o’ta tozaligidan dalolatdir. O’z davrining taniqli olimlari tomonidan Chashma suvi tarkibida 8 ta elementning mavjudligi aniqlagan. Bular xlor, sulfat, kaliy, kaltsiy, magniy, kremniy, karbonat va natriylardir. 2011 yilda ushbu ilmiy – tadqiqot ishlari qayta davom ettirilib, 1 litr suv tarkibida 21 ta mikroelement borligi isbotlangan. Hozirgi kunda xalqimizning azaliy an’alaridan keng foydalanib, hashar yo’li bilan ko’hna Nurota yodgorliklari hududi zamonaviy arxitektura va shaharsozlik tajribalari asosida tubdan qayta qurildi. Natijada ko’hna obidalar asl holida qaytadan bunyod etildi. Chashma ariqlari, sohil bo’yidagi bog’lar, yo’laklar va favvoralar qadimiy va zamonaviy uyg’unlik ko’rinishlarini o’zida aks ettirilishi bilan birgalikda yangicha navqironlik chiroyi bilan minglab ziyoratchi va sayyohlarning sevimli maskanlaridan biriga aylanib ulgurdi.

Qosim shayx azizon honaqohi (xvi asr) XVI asrda Karmana bekligi ma’naviy hayotida o’chmas iz qoldirgan Qosim Shayx Azizonning hayoti va faoliyati ezgu va xayrli ishlarga qaratilgan edi. Buxoro hukmdori Abdullaxon II hazrat Qosim Shayxga bo’lgan ixlosi yuzasidan 1558 yilda Karmanada xonaqoh barpo ettirgan. Ushbu bunyodkorlik ishlarida Qosim Shayxning o’zlari ham qatnashgan va homiylik ko’rsatgan.

Xonaqoh taxminan o’n yil davomida qurilgan. Uning uch (shimol, janub va g’arb) tomoni kungurador qilib qurilgan va bezatilgan

Xonaqohning eni va bo'yi 25 metr o'lchamda bo'lib, ichida jami 6ta xona, o'rtada katta markaziy xona, qibla tarafda mehrob o'rnatilgan. Xonaqohning 4 burchagida taxminan 6x6 metr o'lchamdagi hujralar, sharq tomonida esa, 6x4 metr o'lchamdagi chillaxonaga qurilgan. Har bir xonaning tepa qismi gumbaz shaklida bo'lib, binoning ichi ganchkorlik asosida naqsh bilan bezatilgan, o'rtada yerdan balandligi 12 metr bo'lgan katta gumbaz va to'rt tomonida balandligi 8 metr bo'lgan gumbazlar mavjud. Xonaqoh devorining qalinligi 80 santimetr. Binoning tashqi ko'rinishidagi baland minora ustiga qurilgan gumbaz ajralib turadi. Minora bino tomidan taxminan 9 metr ko'tarilgan bo'lib, ichki va tashqi gumbazlar oralig'ida bo'shliq joy qoldirilgan. Bu bo'shliq havo yo'llari bo'lib, issiq va sovuq vaqtlarda bir xil mo'tadil haroratni saqlash uchun qiladi. Gumbaz tashqi tomonining tepa qismi moviy koshinlar bilan qoplangan. Undan pastda niliy rang bilan Kufiy usulida Qur'on oyatlaridan namunalar yozilgan. Xonaqohning sharqiy tomonida Qosim Shayx sag'anasi bor. Sag'ana marmar va Abdullaxon g'ishti bilan tiklangan, ayrim joylarda Qur'oni Karim oyatlari bitilgan. 1910-1911 yillarda Buxoro amiri Amir Abdulahadxonning vafotidan so'ng uning og'li Sayid Olimxon qabrini Qosim Shayx dahmasi yoniga unga monand qilib qurdirgan. Ikkinchi honaqoh Qosim Shayx honaqohidan 300 yil keyinroq qurilgan bo'lsada yaxlit bir-biriga monand ulkan bir yodgorlik majmuasi tashkil qilingan.

2001 yilda ushbu majmua to'la ta'mirlandi va bugungi kunda Navoiy viloyatidagi eng tarixiy va obod madaniy meros ob'ektlaridan biri sifatida qadrlanib, avaylab asralmoqda va foydalanilmoqda.

Raboti malik karvonsaroyi (XI asr) Raboti Malik karvonsaroyi Karmana-Buxoro yo'li bo'yi oralig'ida, XI asrning 70 yillarida qoraxoniylardan biri Shamsulmulk



Nasr ibn Ibrohim tomonidan qurilgan bo'lib, XII asrning birinchi choragida Arslonxon Muhammad ibn Sulaymon (1102-1130 y.) tomonidan qayta ta'mirlangan.

Raboti Malik 90x90 metr o'lchamdagi keng chorsi hovli, to'rtala tomoni pishiq g'ishtdan baland qilib qurilgan ikki qavatli mehmonxonalardan iborat bo'lgan. Kirish darvozasining ikkala tomonida xonalar mavjud bo'lib, bular karvonsaroy xo'jayini va qorovullariga tegishli bo'lgan. Karvonsaroy ichida maishiy sohalarga doir xizmatlar faoliyat ko'rsatgan. Jumladan, mehmonxona, oshxona, sartaroshxona, omborxona, masjid, tosh hammom va boshqalar. Karvonsaroyga suv Sardobadan sopol quvurlar orqali keltirilgan. Sardoba va Karvonsaroy orasi 50 metrni tashkil etadi.

1999-2000 yillarda karvonsaroyning poydevori konservatsiyalandi. Uning poydevori 1 metr balandlikda pishiq g'ishtdan qaytadan terildi, kirish darvozasi peshtoqlari va devorlari ta'mirlandi, old devorlarining asl holini ko'rsatish uchun 3,5 metr balandlikda qaytadan tiklandi.

Raboti malik sardobasi (xi asr) Raboti Malik karvonsaroyidan 120 metr oraliqda janubiy-g'arb tomonda ichimlik suv manbai bo'lgan sardoba joylashgan. Uning – diametri 13 metrli, gumbaz ostidagi karvonsaroyga zamondosh bo'lgan Sardoba qurilgan. Sardoba hovuzining aylana devori yerdan 12 metr chuqurlikka qadar pishiq g'ishtdan qurilgan bo'lib, unda muzday toza suv butun yoz bo'yi



saqlangan. XVI asrdagi mualliflardan biri Raboti Malik sardobasining suvini Makkadagi laziz Zam-zam suviga qiyoslaydi. Sardoba karvonsaroy kabi yolg'iz yo'lovchilar uchun ham butun boshli karvonlar uchun ham qo'nalg'a hisoblangan. Karvonsaroy o'zining dastlabki vazifasi

bilan XVIII asrgacha xizmat qilib kelgan.

Unda Amir Temur va uning avlodlari, Buxoroda hukmronlik qilgan sulolalarning xonlari, elchilar, savdo karvonlari va sayyohlar qo'nib o'tgan. Hofizi Abro'ning ma'lumotiga ko'ra, Ulug'bek 1420 yilda ushbu mintaqalarda to'xtab 40 kun ov qilgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bu yerda Rabot nomi bilan ma'lum qishloq ham shakllangan. 2004 yilda Sardoba qayta ta'mirlanib, atrofi devor bilan o'raldi.

Turizm sohasida Raboti Malik karvonsaroyi va sardobasi dunyo sayyohlarining e'tiborini tortmoqda.

Deggaron me'moriy yodgorligi (xi asr) Karmana shahridan 30 km g'arbdagi Xazora qishlog'ida joylashgan yodgorlik Movarounnahrda eng qadimgi masjidlardan biridir.

Uning qurilish davri XI asr boshlariga tegishli bo'lib, murakkab va noyob loyiha asosida bunyod etilganligi bilan qimmatlidir.

Ushbu yodgorlikdan azaldan masjin sifatida foydalanib kelinmoqda. Masjidning va qishloqning nomi qadimda shu yerda yashagan aholining asosiy mashg'uloti o'tga chidamli qozon tayyorlashidan olingan.

Masjid kvadrat shaklda 17x17 metr o'lchamdagi binodan iborat bo'lib, pastdan balandgacha qalinligi 1 metr bo'lgan 15 paxsa urilib, har paxsaning orasiga bir qator pishiq g'isht terilgan.

Binoning ichki qismida kubsimon, o'rta qismida diametri 1,28 metr keladigan 4ta pishiq g'ishtin ustun bo'lib, ularning orasiga katta ravoqlar, tepasiga ikkitadan kichik ravoq joylashtirilgan.



Gumbaz ushbu ustunlar ustidan chiqarilgan va 12 burchak bezak hosil qiladigan ravoqlar ustiga ko'tarilgan. Binoning shimoliy, janubiy va g'arbiy tomonlarida xushbichim g'ishtin sharafalar mavjud. Masjidning kunchiqar tomonidagi eni 3,14 metr, uzunligi 17 metr bo'lgan uch eshikli kirish qismi keyinchalik

pishiq g'ishtdan qurilganligi ko'rinib turibdi. O'ng tomonidagi ikkita sharafa qolgan tomonlarga o'rnatilgan 6 ta sharafalardan farq qilib devor ustidan ko'tarilgan. 3 tomonidagi 6 ta sharafaning hech narsaga tegmay tepadan pastga osilib turishi holatida qurilganligi bir mo'jizaga o'xshaydi. Kirish qismining me'morchilik uslubi XIV asrga xos bo'lib, bu yerdagi g'ishtar Raboti Malik va Sardoba XIV asrda qayta ta'mirlanganda ishlatilgan g'ishtar bilan bir xildir ya'ni shu davrda Deggaron me'moray obidasida ham qurilish ta'mirlash bajarilganligidan darak beradi. Movarounnahrda yagona bo'lgan ushbu obida 2006 yilda qayta ta'mirlanib, hozirgi kunda bu yodgorlik majmuasi butun musulmon olamiga mashhur ziyoratgohga aylantirilgan. Shuningdek, majmua hududida keng ko'lamli obodonlashtirish ishlari bajarilib, Mavlono Orif Deggaroniy tarixiy muzeyi tashkil etildi.

Mirsaid bahrom maqbarasi (xi asr) Mir Said Bahrom haqida Abu Tohirxo'ja Samarqandiyning "Samariya" asarida yozilgan ma'lumotlarga ko'ra u zukko, bilimli, karomatli shaxs sifatida mahalliy xalqning katta hurmat e'tiboriga sazovor bo'lgan zot edi.

Mirsaid Bahrom vafotidan keyin uning dahmasi ustiga maqbara bunyod etilgan. Maqbara X-XI asrlarga xos bo'lib, Respublika muhofazasiga olingan noyob yodgorliklar sirasiga kiradi. Maqbara bir gumbazli, 6x5,5 metr o'lchamda to'rtburchak shaklida qurilgan. Yodgorlik bir necha bor ta'mirlanib dastlabki ko'rinishini yo'qotgan. Uning bosh fasadi 6x6 metr kvadrat shaklida bo'lib, juda ustalik bilan bezatilgan, g'ishtni turli usulda terilib, har xil geometrik shakldagi naqsh bezaklari, timsollar va Kufiy usulidagi bitiklar bilan boyitilgan. Maqbaraning janubiy tomonida 1,1x2 metr o'lchamda darcha o'rnatilgan. Uning tepa qismida yarim oy shaklidagi kungurador, panjarali tuynuk ochilgan.

Maqbara eshigining o'ng tomonida Mirsaid Bahrom sag'anasi o'rnatilgan bo'lib, uning eni bir metr bo'yi 2,5 metr, balandligi 70 santimetrdan iborat. Sag'ananing yon tomonlariga arabiy yozuvda oyatlar bitilgan. Maqbaraning 4 burchagida ustki qismi ganchkorlik usulida bezatilgan 4 ta botiq ravoq ishlangan bo'lib, 4 tomonida ham yoyiq ravoqlar bor. Ravoqlarning eni bir metr va

balandligi 3 metr. Maqbaraning ustki qismida 8 burchakli poygumbaz bo'lib, uning ustiga pishiq g'ishtdan gumbaz ko'tarilgan.

Hozirgi davrda bu tarixiy majmua atrofida Karmana tumanining madaniyat va istirohat bog'i barpo etilgan va Karmana aholisining an'anaviy Navro'z va hosil bayramlari ayni shu ko'rkam va so'lim istirohat bog'ida o'tkazilishi an'anaga aylanib bormoqda.

Respublikamizdagi noyob madaniy meros obyektlaridan biri sifatida Mirsaid Bahrom maqbarasi Buyuk ipak yo'li bo'yidagi transchegaraviy madaniyat yodgorliklari nominatsiyasi bo'yicha YUNESKOning ro'yxatiga kiritilishi uchun me'yoriy hujjatlari taqdim etilgan.

Yodgorlik hozirgi kunda to'la qayta ta'mirlanib asl holidagi ko'rinishini kasb etgan. Shuningdek, maqbaraning sharqiy tomonida qadimda bunyod etilgan bo'lib, keyinchalik buzilib ketgan masjid qayta tiklangan va hozirda ziyoratgoh sifatida foydalanilmoqda.

Oqmasjid yodgorligi (xiv asr) Oqmasjid tarixiy-me'moriy yodgorligi Xatirchi tumanining Bog'chakalon qishlog'ida 1360-1390 yillarda hazrat Said ota tomonidan bunyod etilgan. Oqmasjid o'z davrida o'ta mohirlik bilan qurilgan bo'lib, usti gumbaz, yon tomonlari esa o'ymakor ustunli ayvonlardan iborat bo'lgan.

Sohibqiron Amir Temur zamonida ilm-ma'rifat yuksak darajada rivoj topganligi tarixdan yaxshi ma'lum. Ayni o'sha davrlarda Bog'chakalonda ham ko'plab masjid va madrasalar bunyod etilgan. XIX asrgacha bu hududda yettita masjid bo'lgan. Ularda savod chiqargan yoshlar tahsilni davom ettirish uchun Buxoro madrasalariga yuborilgan. Ammo, sho'rolar davriga kelib, hududdagi bu obidalarining boshiga ham og'ir kunlar tusha boshladi: asrlar davomida savlat to'kib turgan yettita masjidning oltitasi buzib tashlangan. Faqatgina "Oqmasjid" me'moriy yodgorligi saqlanib qolingan.

Buyuk ipak yo'li bo'yida joylashgan ushbu jannatmonand maskanga qadimda ham olis o'lkalardan savdogarlar-u sayyohlar tez-tez kelib turishgan.

Yodgorlik bunyodkori Hazrat Said ota asli Xorazmlik bo'lib, 14 yoshida tahsil olish uchun Buxoroyi Sharifga kelgan va 20 yil davomida madrasada tahsil olgan. So'ngra aholiga ilm-u ma'rifat tarqatish uchun ushbu hududga yuborilgan.

Sayid otaning hayoti va faoliyati bilan bog'liq bo'lgan qiziqarli va ibratli hikoyalar ko'p. Ularning aksariyati xalq ichida tildan-tilga o'tib kelayapti.

Tarixnavis Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma" asarida keltirilishicha, Sayid otaga qarshi aytilgan bo'hton va fitnalarga ishongan hukmdorlar hijriy 760 yilda ulug' avliyoning ko'zlarini ko'r qilishadi. Ammo, mo'jiza sharofati bilan Sayid otaning ko'zlari qayta ochiladi. Bundan hayratga tushgan hukmdor unga otalarcha munosabatda bo'la boshlaydi va har bir ishini uning maslahati bilan amalga oshiradi.

Prezidentimiz tashabbusi va viloyat mahalliy hokimligi rahbariyatining sa'y-harakati bilan ushbu qadamjo Respublikamizdagi barcha azaliy qadriyatlarimizning asoslaridan biri bo'lgan noyob me'moriy yodgorligi sifatida 2003 yilda qaytadan ta'mirlanib, xalqimizga taqdim etildi, Hazrat Sayid ota sag'anasi va dahmasi qayta qurildi, atrofi obodonlashtirildi va fuqarolarning serqatnov maskanlaridan biriga aylantirilib, yosh avlodni milliy mafkuraviy g'oyalar ruhida tarbiyalash yo'lida unumli va samarali foydalanilmoqda.

Djaraquduq" Tosh o'rmoni Navoiy viloyatining Qizilqum sahrosi noyob va qimmatli yer osti qazilma boyliklari xazinasini ekani bilan bir qatorda yuzlab mo'jizaviy hodisa va joylarning makoni hamdir. Shulardan biri Uchquduq tumanining 130 km g'arbida joylashgan Mingbuloq botig'idagi Djaraquduq darasidir. Ushbu darada sayyoramizda yagona hisoblangan toshga aylanib qolgan (o'simliklar, hayvon suyaklari va baliq tishlari) tabiat namunalari mavjud. Mazkur hududni O'zbekiston Respublikasi Geologiya va minerologiya ilmiy-tadqiqot instituti mutaxassislari va xorijiy olimlar hamkorligida 8 yil davomida ilmiy tadqiqot ekspozitsiyalari uyushtirilib, chuqur ilmiy o'rganish ishlari olib borildi. O'rganishlar natijasida Qizilqum sahrosi o'rnida bundan 100 million yil avval Tetiz dengizi bo'lganligi shuningdek, dengizga xos bo'lgan suv osti boyliklari va dengiz sohili o'rmon va to'qayzorlar shu yerga yashaydigan o'simlik va hayvonot

dunyosi boyliklari to'g'risida ko'plab ilmiy asoslarga ega bo'ldi. Bular o'txo'r va go'shtxo'r dinozavrlar, timsohlar, baliqlar va boshqa dengiz jonivorlari, suv osti marjon qoyalari g'aroyibotlari dengiz sohilidagi ninabargli daraxtzorlar, mevali daraxtzorlar, saksovullar va to'qayzorlarning toshga aylanib bugungi kungacha saqlanib qolgan noyob namunalardan iborat. Ushbu qimmatli topilmalarga asoslanib, mazkur hudud tabiati haqida tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi. Eng muhim yurtimizning yuz million yil muqaddam mavjud bo'lgan tabiati to'grisida boy bilimga ega bo'lish mumkin. Hududdagi mo'tadil iqlim, boy ozuqa, qulay muhit hosildor dalalar bo'lganligi sababli bu yerlarada o'zgacha boy tabiat to'g'risida ilmiy ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Ushbu kolleksiya tarkibidan joy olgan eksponatlar yuqorida keltirilgan namunalardan tashkil topgan.

Tabiat boyliklarini toshga aylanib qolish sabablarini dunyo olimlari tomonidan turlicha izohlashadilar.

Shulardan biri Tetiz dengizi tubidan otilib chiqqan vulqon oqibatida tabiatning bir qismi toshga aylangan desalar yana boshqa bir guruh olimlar koinotdan o'zga jism «meteorid» Tetiz dengiziga kelib to'qnashganligi oqibatida portlash sababli hududdagi tabiatning bir qismi toshga aylanib qolganligi to'g'risidagifikrdadir

Navoiy viloyati muzeylari tahlili. Navoiy viloyatida 12 ta davlat, 7 ta soha, 3 jamoatchilik va 27 ta maktab muzeylari mavjud bo'lib, viloyat bo'yicha jami 49 ta muzey faoliyat ko'rsatmoqda. (2-jadval)

Bu muzeylarning barchasinberilgan maqomiga qarab o'zining o'rniga va o'ziga xos xususiyatlariga ega. Viloyatda bu muzeylar joylashgan o'rniga qarab sayyohlarga, mehmonlarga va soha vakillariga ham xizmat qilib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda viloyatga tashrif buyurayotgan chet ellik turistlar va mahalliy turistlarga ham xizmat qilib kelmoqda.

O'zbekiston Mustaqilligining ilk kunlaridan boshlab, muzeylarni rivojlantirish ishiga hukumatimiz tomonidan juda katta e'tibor berilmoqda. Jumladan; 1998-yilning yanvarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

“Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to’g’risida” gi Farmoni, 2008-yilning sentabrida O’zbekiston Respublikasining “Muzeylar to’g’risida” gi Qonuni ishlab chiqildi. 2012-yilning aprelida Vazirlar Mahkamasining “Muzeylar to’g’risidagi Qonunni ro’yobga chiqarish uchun zarur bo’lgan normativ - huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida”gi qarori qabul qilindi.

Navoiy viloyati o’lkashunoslik muzeylari.

2-jadval

№	<i>Viloyatimizda mavjud muzeylar</i>	<i>Yillari</i>
1	Xatirchi tuman tarixiy-o’lkashunoslik muzeyi	1974-yil 11-may
2	Tomdi tuman tarixiy-o’lkashunoslik muzeyi	1978-yil 7-dekabr
3	Qililtepa tuman tarixiy-o’lkashunoslik muzeyi	1985-yil 15-yanvar
4	Vilot tarixiy-o’lkashunoslik muzeyi	1992-yil 30-dekabr
5	J.Balimanov me’morial muzeyi	1993- yil 23 -dekabr
7	Konimex tarixiy-o’lkashunoslik muzeyi	1997-yil 30- aprel
8	Qosim – Shayx majmua muzeyi	2002 -yil 8 -aprel
9	Nurota tuman tabiiy – me’moriy majmua muzeyi	2003 -yil 11-aprel
10	Zarafshon sh. Qizilqumni o’zlashtirish tarixi	2003 -yil22-sentabr
11	Sarmishsoy tabiiy-arxeologik majmua muzeyi qo’riqxonasi	2004-yil 23-sentabr
12	Mavlono Orif Deggaroniy tarixiy muzeyi	2007-yil 29-may

Shularga asosan, so’nggi yillarda, Navoiy viloyati hokimligining, viloyatimiz muzeylari faoliyatini rivojlantirish va qo’llab-quvvatlash to’g’risida, o’nga yaqin qarorlar qabul qilindi. Mazkur qarorlar ijrosini ta’minlash yuzasidan joylarda, sohaga doir keng ko’lamli ishlar, izchil amalga oshirilmoqda.

Viloyat hokimining 2011 yil 10 noyabrdagi 06-01/266 sonli yig'ilish bayoni va 2011 yil 29 noyabrdagi 03-01/512 sonli "Davlat muzeylarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va faoliyatini rivojlantirish " chora-tadbirlar dasturi ijrosi yuzasidan bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Viloyat muzeylar faoliyatini ilmiy tadqiqotimiz vazifasi va maqsadi doirasida o'rganishimiz natijasida quyidagilarni aniqladik.

Navoiy shahrida jami 6 ta muzey mavjud bo'lib, shundan 5 ta soha va 1 ta maktab muzeylari faoliyat ko'rsatyapti, bular; Navoiy Kon-Metallurgiya kombinati muzeyi, Navoiyazot OAJ "Mehnat shuhrati" muzeyi, Qizilqum sement OAJ muzeyi, Navoiy viloyat prokuraturasi muzeyi, Navoiy viloyati Ichki ishlar tizimi muzeylari va 12 sonli umumta'lim maktabining Ekologiya muzeylari.

Viloyat hokimligining sayi harakatlari bilan NKMK muzeyining mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va faoliyatini rivojlantirish maqsadida, o'quv markazi binosidan "Farhod" madaniyat saroyiga ko'chirilgan. Keng va yorug' tomosha zallari va zamonaviy talablarga javob beradigan vetrina va jixozlar bilan ta'minlangan. Ekspонатlarni saqlash, hujjatlashtirish, ish yuritish, ekspozitsiyani namoyish etish ishlari, zamonaviy muzeyshunoslik talablariga javob beradigan holatga keltirilgan. Albatta bu masalalar ijobiy echimini kutmoqda bu masala yuzasidan tegishli tashkilot va masullar maqsadli rejalarni ishlab chiqib mavjud kamchiliklarni bartaraf etishlari kerak.

Navoiyazot OAJ "Mehnat shuxrati" muzeyida esa ko'rsatib o'tilgan kamchiliklar tuzatilmagan. Zamonaviy texnika vositalari va maxsus vetrinalar bilan jixozlanmagan. Muzey ekspozitsiyasi boytilib, yangilanib borilmagan. Ayniqsa mustaqillik yillarida, kimyo sanoatida erishilayotgan yutuklarimiz keng yoritilmagan. Korxonaga ishga kiruvchi yoshlarimizni, institut va kollej bitiruvchilarini kimyo sohasiga qiziqtirish, targ'ibot qilish ishlari rejali tashkil etilmagan. Ekspонатlarni davlat ro'yxatiga kiritish ishlari oxiriga yetkazilmagan.

Qizilqumsement OAJ tarixiy muzeyida ham shunga o'xshash kamchiliklar mavjud bo'lib o'z yechimini kutmoqda. Ekspонатlarni davlat ro'yxatiga kiritish ishlari o'z xoliga tashlab quyilgan.

Karmana tumanda 3ta davlat va 6 ta maktab muzeylari faoliyat yuritadi. Bular, Viloyat tarixiy-o'lkashunoslik muzei, "Qosim shayx" majmua muzei va Mavlono Orif Deggaroniy tarixiy muzeylari hamda 1-2-3-6-8-22- umum ta'lim maktablarining muzeylaridir.

Viloyat hokimligining 2011 yil 29 noyabrda 03-01/512 sonli "Davlat muzeylarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va faoliyatini rivojlantirish" chora-tadbirlar dasturiga asosan viloyat muzei va uning filiallariga maxalliy byudjet mablag'lari hisobidan quyidagi ishlar amalga oshirilgan ekan. Jumladan: dasturga yangi eksponatlar sotib olish uchun 15 mln so'm, ta'mirlash ishlari 44 mln so'm, Jixozlash ishlariga 66,5 mln so'm mablag'i ajratilishi rejalashtirigan ekan va bu ishlar bosqichma bosqich o'z echimini topmoqda.

Navoiy viloyati mehmonxonalarining qisqacha tahlili. Navoiy viloyatida hozirgi kunda mehmonlarga 20 ga yaqin mehmonxona va 2 ta tur fermalar xizmat qilib kelmoqda. Ular hududlar buyicha quyidagicha joylashgan.

Navoiy shahrida 8 ta mehmonxona va 1 ta tur ferma mavjud ular quyidagilar "Gulmira -K" mehmonxonasi Navoiy shahar Reshyotnik 2 "B" ko'chada joylashgan 28 o'rinli bo'lib "4" yulduzli hisoblanadi, "Navoiy Plaza" mehmonxonasi Navoiy shahar Navoiy ko'chasida joylashgan 70 o'rinli bo'lib, "4" yulduzli hisoblanadi, "Grand -M" mehmonxonasi Navoiy shahar Xalqlar Do'stligi 77a ko'chasida joylashgan, 40 o'rinli bo'lib "4" yulduzli hisoblanadi.

"Turkiston Navoiy" mehmonxonasi Navoiy shahar Xalqlar Do'stligi ko'chasi 73 uyda joylashgan, 128 o'rinli bo'lib, "3" yulduzli hisoblanadi. "Kamilla" Trayding servis mehmonxonasi Navoiy shahar Oxunboboyev ko'chasi 2-1-2 joylashgan. 40 o'rinli bo'lib, "3" yulduzli hisoblanadi.

"Uchquduq" Motel ham Navoiy shahrida joylashgan. 20 o'rinli bo'lib "3" yulduzli hisoblanadi. "Yoshlik" xususiy ferma mehmonxonasi Navoiy shahar Xalqlar Do'stligi ko'chasi 138 "B" uyda joylashgan 83 o'rinli bo'lib "2" yulduzli hisoblanadi. "Texno Plaza" majmuasida joylashgan mehmonxona Navoiy shahar G'alaba 17 B da bunyod etilgan 18 o'rinli ushbu mehmonxonalar bugungi kunda kelayotgan mehmonlarga yuqori darajada xizmat ko'rsatib kelmoqda.

“Sputnik Navoiy” bosh manzili Matvinka 16/14 da joylashgan bo’lib 120 ta o’rin va 17 ta yurtadan iborat , “Qizilqum safari” tur fermasi Kanimex tumani Saribel qishloq fuqorolar yig’ilishi joylashgan 66 ta o’rin 11 ta yurtadan iborat. Qolgan 5 ta mehmonxona va 1 tur fermalar tumanlarda joylashgan. “ Zarafshon Grant Omad Beznes” mehmonxonasi Karmana tumani Malikrabod qo’rg’onida joylashgan, 92 o’rinli bo’lib, “4” yulduzli hisoblanadi. “Parvoz” mehmonxonasi Karmana tumani Malikrabod qo’rg’onida joylashgan, 40 o’rinli bo’lib, “3” yulduzli hisoblanadi. “Registon” Usta Istam xususiy korxonasining mehmonxonasi Karmana tumani Karmana shahri Karmana ko’chasi 19^A uyda joylashgan, 50 o’ringa ega va “Ipak Yuli” mehmonxonasi xam Karmana tumanida joylashgan. Sentob Tagi Jar mehmonxonasi 16 o’ringa ega bo’lib Nurota tumani Sentob qishloq fuqorolar yig’ini hududida joylashgan. SENTOBISTON 15 o’ringa ega bo’lib u ham Sentob qishloq fuqorolar yig’ini hududida joylashgan.

Navoiy viloyatida turizm sohasini rivojlantirish va qo’llab-quvvatlash, turizm infratuzilmasini takomillashtirish bo’yicha 2011-2015 yillarga mo’ljallangan kompleks chora-tadbirlar dasturiga muvofiq viloyat hududlarida mehmonxonalar qurish prognozi

Viloyat hududlari bo’yicha (mehmonxona va dam olish zonalari)	Umumiy soni 2011-2015 yy.	Shu jumladan				
		2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil
	26	5	9	4	5	3

3.2. Turizm infrastrukturasi rivojlantirishning iqtisodiy-ijtimoiy muammolari va viloyatda xizmat ko’rsatish soxalarini rivojlantirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida va bozor munosabatlari rivojlanishi natijasida Navoiy viloyatida turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar

yuzaga kelayotganligi turizmning viloyat iqtisodiyotiga yanada integratsiyalanishini mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon iqtisodiyoti tajribasidan ma'lumki turizm mamlakat xazinasiga uchun zarur bo'lgan valyuta tushumini ta'minlash, yangi ish joylarini vujudga keltirish va shu bilan birga aholining turmush darajasini ko'tarish uchun xizmat qiladi. Viloyatning geografik o'rni nihoyatda qulay, ajoyib tabiiy iqlim sharoitiga ega ekanligidan tashqari, uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni ham beqiyos. Navoiy viloyatida ham Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari kabi nodir tarixiy arxitektura yodgorliklariga, shirin-shakar mevalar, xilma-xil taomlar, ajoyib milliy an'ana, urf-odatga ega bo'lgan mehmon do'st aholisiga ega. Bularning barchasi chet ellik turistlar e'tiborini o'ziga tortadi va kishilarni lol qoldiradi.

Navoiy viloyatida keyingi yillarda ajoyib inshootlar, madaniy dam olish maskanlari, ziyoratgohlar vujudga keldi. So'nggi yillarda respublikamizda boks, o'zbek milliy kurashi, tennis bo'yicha jahon miqyosida ulkan turnirlar tashkil qilinmoqda, bu tadbirlar esa ko'pgina xorijiy mamlakatlardan turistlarning kelishiga zamin bo'lmoqda. Tez-tez o'tkazib turiladigan milliy o'yinlarimiz festivali, Universiada, Barkamol avlod sport o'yinlarining hududiy bosqichlarining o'tkazilishi yaxshi kutib olinadi. 2012 yilda Umid nihollari sport musobaqalarining final bosqichi ayniqsa qiziqarli o'tdi. Bu esa viloyatga halqaro Respublika miqyosida mehmonlarning kelib ketishi, turizmni rivojlantirishda bu omillarni ham nazardan chetda qoldirmaslik lozim.

Turizmdan yuqori daromad olayotgan Yevropa mamlakatlarida turistik faoliyatning ayrim yo'nalishlari davlat tomonidan to'g'ridan-tog'ri yoki bilvosita siyosiy-rasmiy boshqarilib aniq maqsadga yo'naltirib turiladi. Bilvosita boshqaruv esa xalqaro turistik tashkilotlarni soliqdan ozod etish yoki to'lov miqdorlarini kamaytirish, ularga imtiyozli kreditlar yoki bir qancha yengilliklar berish orqali amalga oshiriladi. Masalan respublikamizda 1997 yil 24 aprelda qabul qilingan "Soliq kodeksida" Uzbekistonda turistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi turistik firmalar ish boshlagan kundan boshlab 3 yil mobaynida soliq to'lashdan ozod etilishi belgilab qo'yilgan.

Milliy, tarixiy va diniy qadamjolarining ko'pligi;

Xalqimizning mehmondo'stligi va milliy an'analarimizning boyligi;

Viloyatimizning rang-barang tabiati, o'simlik va hayvonot olamining xilma-xilligi, boy rekreatsion resurslarning borligi;

Avtomobil, temir yo'l, xalqaro havo yo'llarining yetarli darajadagi infratuzilmaga ega ekanligi, Respublikaning Yevrosiyo materigining markazida (o'tmishda esa Buyuk Ipak yo'li chorraxasida) joylashganligi kabilar kiradi. Bu omillar albatta turizmning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Navoiy viloyatining infratuzilmasini o'rganishda avval viloyat haqidagi umumiy ma'lumotlar bilan tanishish zarur. Navoiy viloyat dastlab 20.04.1982 yilda tashkil topib, 1988 yilgacha shu maqomda mavjud bo'lgan. So'nggi marta esa u 27 yanvar 1992 yilda qayta tiklangan. Maydoni 111,0 ming kv. km yoki respublika hududining yaqin 1/4 qismiga teng. Aholi soni esa 904,2 ming kishi (mamlakat aholisining 3,0 foizi). Hududiga ko'ra viloyat Qoraqalpog'iston Respublikasidan keyingi ikkinchi, aholi soni jihatidan esa faqat Sirdaryo viloyatidan oldinda, ya'ni oxiridan ikkinchi. Viloyatning ichki ma'muriy tuzilishi ham uncha murakkab emas; U yerda 8 ta qishlok tumanlari mavjud, xolos.

Eng kichik tuman - Karmana va eng katta tuman - Uchquduq o'rta-sidagi tafovut 49,1 martaga barobar. Konimex tumanining joylanishi ham o'zgacha: tuman markazi asosiy hududdan ajralgan holda o'rnashgan, tumanning qolgan qismini eksklav hisoblash mumkin.

Qishloq tumanlari orasida Karmana va Nurota respublikamizda birinchilar qatorida tashkil etilgan ushbu toifadagi ma'muriy birliklarga kiradi. Navoiy viloyati tashkil etilgunga qadar janubiy hududlar - Qiziltepa, Karmana, Navbahor tumanlari Buxoro viloyati, Xatirchi, Nurota Samarqand viloyati tarkibida bo'lgan. Bir vaktlar Uchquduq va Tomdi tumanlari Qoraqalpog'iston Respublikasi tasarrufiga kirgan.

Navoiy viloyati respublikamiz hududiy mehnat taqsimotida asosan tog-kon sanoati, xususan rangli metallurgiya, kimyo, qurilish materiallari sanoati hamda qishloq xo'jaligida go'sht-jun chorvachiligiga ixtisoslashgan. Uning hissasiga

respublika yalpi ichki mahsulotining 5,4, sanoat ishlab chiqarishining 11,2 qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 4,2, investitsiya hajmining 70, chakana savdo aylanmasining 3,6, pullik xizmatlarning 2,8 foizi to'g'ri keladi. Eksportda viloyat ulushi 4,2, importda 3,8 foizga teng.

Viloyatning geografik o'rni va resurs salohiyati. Navoiy viloyati mamlakatimizning markaziy va shimoliy qismida joylashgan. U katta masofada Qozog'iston Respublikasi bilan chegaradosh. Shuningdek, viloyat hududi g'arbda Buxoro, janub va janubi-sharqda Samarqand va qisman Jizzax viloyatlari bilan, shimolda va shimoli-g'arbda Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan, janubda juda qisqa masofada Qashqadaryo viloyati bilan tutash.

Navoiy viloyatining binolar tizimi, muxandislik va kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlanishini tahlil qiladigan bo'lsak, ularning umumiy holati o'rtacha deb baholash mumkin. Sababi Navoiy shahri va boshqa shaharlarda kommunikatsiya tarmoqlari yetarli darajada ammo markazdan uzoqlashgan sari ularning holati va sifati yomonlashib boradi. Jumladan viloyatning markazida keyingi yillarda olib borilgan iqtisodiy islohatlar transport, kommunikatsiya, joylashtirish vositalari, servis xizmati ko'rsatish tarmoqlari juda takomilashdi. Birgina Uzbekiston Respublikasi prezidentining Navoiy viloyatida Erkin Industrial-Iqtisodiy Zona tashkil etish to'g'risida farmonining qabul qilinishi (03.12.2008) va uning ijrosi nafaqat iqtisodga balki turizmning ham rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir etadi. Chunki Navoiy viloyatining turistik resurslar imkoniyatlaridan foydalanish va viloyatga yaqin bo'lgan turistik shaharlar Samarqand va Buxoroning resurslaridan foydalanishga imkon beradi. Navoiy Erkin Industrial-Iqtisodiy Zona (EIIZ)ning umumiy xususiyatlari haqida aytib o'tamiz. Mazkur loyixa uch bosqichdan iborat bo'lgan rejalarni o'z ichiga oladi. Umumiy 500 gektardan ortiq maydonni egallab mahalliy xam ashyolarga asoslangan turli maxsulotlar ishlab chiqarish imkonini beradigan korxonalar qurilishi rejalashtirilgan. Bunda 120 dan ortiq loyixani o'z ichiga olib 2010 yil holati bo'yicha 5.5 mlrd. AQSh dollari miqdorida investitsiya kiritilishi rejalashtirilgan. Navoiy EIIZsi 30 yilga mo'ljallagan bo'lib, vaziyatdan kelib chiqib, muddat uzaytirilishi ko'zda tutilgan. Xududda maxsus qonunlarga

amal qilinib, soddalashtirilgan rasmiylashtirish tizimi ishlaydi. Mazkur joyda faqatgina aeroport emas balki, temir yo'l, avtomobil yo'llari tizimi faoliyat yuritishi lozim. Jumladan Afg'oniston-O'rta Osiyo-Yevropa temir yo'l liniyasi, Halqaro ahamiyatga ega bo'lgan Ye-40 tipidagi avtomagistralning ishga tushishi rejalashtirilgan. Bugungi kunda uch yo'nalishda temir yo'l tizimi mavjud bo'lib ular orqali:

1. Shimoli-g'arbiy yo'nalishda Uchquduq-Nukus-Volgograd shaharlariga va davomli ravishda rossiya orqali Yevropa mamlakatlariga.
2. Sharqiy yo'nalishda Samarqand- Toshkent-Do'stik orqali Xitoyga va davomli ravishda Janubiy sharqiy Osiy mamlakatlariga
3. Janubiy yo'nalishda Buxoro-Turkmaniston-Bandar-Abbas orqali Eron va boshqa fors ko'rfazi mamlakatlariga chiqish imkoniyatiga ega.

Kelajakda kelishi mumkin bo'lgan ish va sayoxat maqsadidagi turistlar uchun turli ijtimoiy inshootlar talab etiladi. Mazkur muammoni hal etish uchun Koreya Respublikasining "Koren air" aviakompaniyasi 100 gektar maydonda shunday ijtimoiy obe'ktlar qurishni rejalashtirmoqda. Bunda mexmonxonalar restoranlar, kafelar golf klub, suvda suzish basseyni va boshqa servis obe'ktlari rejalashtirilgan. 2008 yilda ana shunday loyixaning boshlanish belgisi sifatida 60 o'rinli 3 yulduzli mexmonxona qurilib ishga tushirildi. Eng muximi shundaki kelajakda quriladigan mexmonxonalar dunyoning mashxur mexmonxonalari tizimiga kiritilishi rejalashtirilgan.

Sayohat marshrutlari o'tgan yo'l atroflarida sanitariya-gigiyena sharoitlariga mos yengil tipdagi punktlarni barpo etish.

Bugungi kunda Navoiy-Buxoro avtomagistralining Karmana tumanidan o'tuvchi qismida tumandagi "Istam Raxim" XF tomonidan "Parvoz" nomli kemping qurildi.

Nurota tumanidagi "Sentob" QFY hududida "Sentob tagi jar" va "Sentob Shahi Mustafo" xususiy sayyohlik firmalarining faoliyati qonuniylashtirilib, xorijiy sayyohlarni qabul qilish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratildi.

Viloyatning yirik tarixiy sayyoxlik joylari yon atrofida (Raboti Malik, Sardoba, Xoncharbog', Sarmishsoy, Sangijumon, Langar, Sentob) da biotualetlar tashkil qilish.

Mos keladigan biotualetlarni olib kelish va o'rnatish bo'yicha Nurota tuman hokimligi tomonidan namunalar o'rganib chiqilgan. Bugungi kunda Karmana tuman hokimligi, viloyat Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi, viloya DSENM bilan hamkorlikda ularni tanlash ishlari olib borilmoqda.

Sayyohlarga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish va qulaylik yaratish maqsadida qo'shimcha xizmat turlarini ko'paytirish.

3 ta firma "Trayding servis" MChJ, "Ja'far kelajagi" x/k tomonidan jami 7 ta yengil avtomashinalar sotib olingan.

Konimex tumani Saribel shirkat xo'jaligi "Yangig'ozg'on" va "Do'ngalak" qishloqlarida joylashgan sayyohlik bazalari bilan viloyat "Sayohat va ekskursiyalar byurosi" DK hamkorligini kuchaytirish, "Aydarko'l" bo'yida sohilbo'yi plyajlar tashkil etish.

Bugungi kunda mazkur hududdagi sayyohlik bazalaridagi mavjud holat o'rganib chiqilgan.

"Qizilqum safari", "Sputnik-Navoiy" hamda "Aydar" sayyohlik bazalari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan, bo'lib, ularga "Aydarko'l" bo'yida sohilbo'yi plyajlar qurish, hududga kelayotgan sayyohlarga qo'shimcha xizmat turlarini ko'paytirish bo'yicha takliflar berilgan.

Qiziltepa tumani "To'dako'l" bo'yi hududida viloyat sohil bo'yi (rekreatsion, plyaj) oromgohini tashkil etish ishlar hali boshlanmagan.

Xatirchi tumani "Langar" kompleksi mashrutida joylashgan "Oltinsoy" issiq suv sanatoriysini ta'mirlash va qayta jihozlash, xizmat ko'rsatish turlarini ko'paytirish

Bugungi kunda "Oltinsoy" issiq suv sanatoriysi qayta ta'mirlanib, zarur vositalar bilan jihozlangan.

Viloyatda turizm sohasida transport xizmati ko'rsatilishini yaxshilash maqsadida viloyat "Sayohat va ekskursiyalar byurosi" DKga zamonaviy turistik

klassdagi yuqori modifikatsiyali avtobuslar xarid qilingan va ulardan samarali foydalanish.

Viloyat "Sayohat va ekskursiyalar byurosi" DK tomonidan Xitoy Xalq Respublikasidagi "YUTONG" ishlab chiqarish firmasidan 1 dona "Yevro-3" modifikatsiyali 45 o'rinli zamonaviy turistik klasdagi avtobus sotib olindi bu yil 221 mln. so'mlik import shartnomasi imzolangan bo'lib (119800 AQSh dollari), "O'zmilliybank" Navoiy filialidan 19% lik 200 mln. so'm miqdorida kredit olingan. Mablag' Xitoydagi ishlab chiqaruvchi firmaga o'tkazib berilgan. 2012 yil 1 aprelda avtobus Navoiy shahriga keltirilgan.

Bugungi kunda olingan 200 mln so'm kredit mablag'ining to'lovlari qoplanib kelinmoqda.

Navbahor tumani "Sarmishsoy" ibtidoiy qoyatosh suratlari hududiga eltuvchi yo'lni kapital ta'mirlash (turistik klassdagi avtobuslar uchun), tadbirkorlarni jalb qilgan holda yo'l atrofi infratuzilmalar joylashuvini ishlab chiqish

Navoiy viloyati Navbahor tumanida 2013 yil 4-5 may kunlari "Asrlar sadosi-2013" an'anaviy madaniyat festivali o'tkazilib, mazkur festivalga 500 dan ortiq xorijiy mehmonlar tashrif buyurdilar.

Mazkur festival o'tkazilishi munosabati bilan ushbu tarixiy-tabiiy majmuaga eltuvchi jami 50 km yo'l qayta ta'mirlanib, zamonaviy standartlarga javob beradigan holatga keltirildi.

Nurota tumani "Chashma" kadamjosidan Xatirchi tumani "Langar" kompleksi mashrutidagi Nurota tuman Chuya hududidan o'tuvchi 30 km yo'lni ta'mirlash va yo'l infratuzilmasini yaratilmoqda.

Xatirchi tuman hokimligi tomonidan mahalliy byudjet mablag'i hamda homiylik mablag'larini jalb qilgan holda yo'lning ma'lum qismi ta'mirlanib, tosh yotqizilgan.

Navoiy xalqaro aeroportida sayyohlarni qabul qilish va qisqa muddat ichida hududdan chiqib ketishini ta'minlash bo'yicha qulayliklar yaratilmoqda.

Aeroportda yo'lovchi terminalning qurilish-ta'mirlash ishlari to'liq yakunlangan. 2012 yil mart oyida foydalanishga topshirilgan.

“Navoiy” temir yo’l shoh bekatida mahalliy va xorijiy sayyohlarga xizmat ko’rsatish bo’yicha zarur qulayliklar yaratish, temir yo’l vokzalini kapital rekonstruksiya qilish bo’yicha kata ishlar amalga oshirildi.

“Navoiy” temir yo’l shoh bekati 2012 yil mart oyida kapital ta’mirlanib, foydalanishga topshirildi. Maroqand-Navoiy temir yo’lini elektrlashtirish, mazkur yo’nalish bo’ylab tezyurar poyezd qatnovini yo’lga qo’yishishlari kengaymoqda.

“O’zbekiston temir yo’llari” DAK tomonidan zarurat yo’qligi sababli ishlar boshlanmagan.

Barchangizga ma’lumki, xalq xo’jaligini rivojlanishida boshqa tarmoq kabi turizm sanoati ham serdaromad sohalardan hisoblanadi. Navoiy viloyatida turizm sohasini rivojlantirish bo’yicha mahalliy hokimiyat organida shu soha rivoji uchun kengash tashkil qilinib, bu borada 2011 yilning 9 iyun kunida shaxsan viloyat hokimining tashabbusi bilan “Navoiy viloyatda turizm sohasini rivojlantirish va qo’llab-quvvatlash to’g’risida”gi 128-sonli qarori qabul qilinib, mazkur qaror asosida viloyatda Turizmni qo’llab-quvvatlash va rivojlantirish chora tadbirlar ishlab chiqilishi belgilandi. Kengashning Nizomi ishlab chiqilib, qaror asosida viloyatda turizmni qo’llab-quvvatlash va rivojlantirishning asosiy dolzarb masalalari belgilab berildi.

Shu yilning iyul oyida Kengash raisi – viloyat hokimi boshchiligida Turizmni rivojlantirish Kengashining kengaytirilgan yig’ilishi o’tkazilishi belgilandi. Mazkur Kengash yig’ilishida Navoiy viloyatida turizm sohasini rivojlantirish, turizm infratuzilmasini yaxshilash va yanada takomillashtirishning 2011-2015 yillarga mo’ljallangan kompleks Chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqildi.

Viloyatda turizmni rivojlantirish sohasida asosiy ishlarni viloyat “Sayohat va ekskursiyalar byurosi” davlat korxonasi muvofiqlashtirib, nazorat qilib bormoqda. Bevosita Kengashning ishchi organi hisoblanishi belgilab qo’yilgan.

Viloyatdagi barcha turizm xizmati ko’rsatuvchi xususiy firmalar, korxona va tashkilotlar mazkur davlat organi rahbarligida faoliyat ko’rsatadi hamda har oylik, choraklik, yarim yillik va yillik hisobotlar taqdim etib boradi.

Viloyatdagi har qanday sayyohlik firmasi, tashkiloti bo'ladimi qanday ko'rinishda bo'lishidan qat'iy nazar viloyatda sayyohlik mashrutlarini ishlab chiqish, xorijiy sayyohlarni jalb qilish va viloyatdan chet elga ekskursantlarni yuborish masalasi faqatgina viloyat "Sayohat va ekskursiyalar byurosi" davlat korxonasi tomonidan amalga oshiriladi, mazkur faoliyat turi bilan shug'ullanadigan litsenziyaga ega viloyatdagi boshqa turistik firmalar ham "O'zbekturizm"ning viloyatdagi vakili sifatida viloyat "Sayohat va ekskursiyalar byurosi" davlat korxonasining ruxsati bilan ish olib boradi.

Viloyat hokimligi tashabbusi va sayi harakatlari bilan mazkur davlat korxonasi faoliyatini qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratilayotgan bo'lib, "Sayohat va ekskursiyalar byurosi" davlat korxonasining roli ham past darajada alohida joy bilan ta'minlash masalasi shaxsan viloyat hokimligi tomonidan hal etilib joy ajratib berildi.

Viloyatda sayohat va ekskursiyalar byurosi faoliyatida rivojlantirish bo'yicha barcha tadbirlar mahalliy hokimiyat organlari tomonidan qullab quvvatlanganholda amalga oshirilibborilmoqda. Viloyat Savdo-sanoat palatasi, viloyat Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi, viloyat "Sayohat va ekskursiyalar byurosi" davlat korxonasi viloyat O'lkashunoslik muzeyi direktori birgalikda Ishchi guruhi tuzib, viloyatdagi barcha tarixiy-diqqatga sazovor joylar, xorijiy va mahalliy sayyohlarni jalb qilish mumkin bo'lgan ob'ektlar, ekoturizm ob'ektlari, turizm infratuzilmasini tashkil etish mumkin bo'lgan tabiat manzaralari mavjud joylarni o'rganib, bu obektlarda turizm maqsadlarida foydalanishni yulga quyish masalalari kelgusida xal qilish chora tadbiri ishlab chiqilmoqda.

Viloyat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi, viloyat "Sayohat va ekskursiyalar byurosi" davlat korxonasi viloyat Savdo-sanoat palatasi, tegishli shahar va tuman hokimliklari bilan hamkorlikda Buxoro shahriga 27 kilometr masofada joylashgan Qiziltepa tumani Quyimozor suv ombori hududida viloyat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasiga qarashli mavjud bo'lgan tabiiy qo'riqxonahududida "Sayohat va ekskursiyalar byurosi" davlat korxonasining ekoturistik

bazasini hamda ekoturistik Axborot-resurs markazini tashkil etish masalalari yulga quyilmoqda.

Xuddi shunday, viloyatning Navbahor tumaniga qarashli “Sarmishsoy” yonbag’rida viloyat “Sayohat va ekskursiyalar byurosi” davlat korxonasining ekoturistik va sog’lomashtirish markazi tashkil etishloyihasi ishlab chiqilmoqda va bu borada bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur ob’ekt kelgusida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 10 maydagi “Navoiy viloyati Nurota tumanini 2011-2013 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish “Buxoro-Samarqand-Nurota” sayyohlik mashrutidagi muhim ekoturistik infratuzilmalardan biri bo’lib qolishi ko’zda tutilmoqda va bu borada ham ishlar o’z yuliga tushib qolgan. Hozirda mana shu marshrut bo’yicha halqaro va mahalliy turistlar harakati sezilarli darajada amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, eng asosiy ekoturistik loyihalardan biri Jizzax viloyati Forish tumaniga 20 kilometrlik masofada joylashgan Nurota tumani Sentob tog’lik hududida viloyat “Sayohat va ekskursiyalar byurosi” davlat korxonasining ekoturistik-sog’lomashtirish markazini barpo etish bo’yicha alohida loyiha bo’yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur hudud orqali Jizzax viloyatidan Nurota tumani “Chashma” tarixiy obidasiga sayyohlarni jalb qilish va dam olishini tashkil etishga juda katta imkoniyat borligi “O’zbekturizm” milliy kompaniyasi tomonidan ham alohida belgilab berilgan.

Shuningdek, Navoiy viloyatining Konimex va Nurota tumanlarining Aydarko’l atrofi hududlarida mavjud ba’zi sayyohlik firmalariga tegishli ob’ektlarning bugungi holatini o’rganish va bu hududlarning ekologik holatini o’z holiga saqlab qolish bo’yicha viloyat “Sayohat va ekskursiyalar byurosi” davlat korxonasi hamda viloyat Sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi tomonidan alohida nazoratga olish belgilab qo’yilgan.

Mazkur hududlar bo’yicha ham ekoturizmni rivojlantirish bilan bog’liq loyihalar ishlab chiqilishi kerak.

Shu bilan birgalikda, bugungi kunda Navoiy viloyatida turizm sohasini rivojlantirish borasida izchillik bilan amaliy ishlar davom ettirilib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 10 maydagi "Navoiy viloyati Nurota tumanini istiqbolda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha dasturlar qabulqilinib Nurota tumani kashtachilik, kulolchilik, marmarchilik va boshqa qadimiy hunarmandchilik mahsulotlarining ko'rgazma savdo muzeyini tashkil etish masalasi alohida ahamiyatga ega.

Viloyat Statistika boshqarmasi, viloyat Soliq boshqarmasi, viloyat Iqtisodiyot boshqarmasi, viloyat "Sayohat va ekskursiyalar byurosi" davlat korxonasi Kengash topshirig'i asosida bugungi kunda viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan "Yangig'ozg'on", "Qizilqum safari", "Sputnik-Navoiy" xususiy sayyohlik firmalari faoliyatini tegishli tartibda muvofiqlashtirish masalalar, ularning viloyat iqtisodiyotidagi turizm ulushini oshirishdagi samaradorligini aniqlash va ularning faoliyatini rivojlantirib, kengaytirish masalalari bugungi kunning turizm sohasi uchun zarur.

3.3. Navoiy viloyatining ba'zi tumanlarida turizmni rivojlantirish bo'yicha takliflar.

Nurota tumanida turizmni rivojlantirish bo'yicha takliflar:Nurota tumani "Chashma" tarixiy-me'morligi yodgorligiga xorijiy sayyohlarning kelib-ketishi va sayohatini tashkil etish borasida viloyat "Sayohat va ekskursiyalar byurosi" davlat korxonasi ruxsatnomasi asosida tashkil etish, majmua atrofida kasanachilik asosida Nurota tuman hunarmandchilik mahsulotlari va kashtalari ko'rgazma-savdo muzeyini tashkil etish masalasini muhokama qilish zarur.

Navbahor tumanida turizmni rivojlantirish bo'yicha takliflar:"Sarmishsoy" hududida viloyat "Sayohat va ekskursiyalar byurosi" davlat korxonasi ruxsatnomasi asosida xorijiy turistlarning sayohatini tashkil etish hamda Navoiy kon-metallurgiya kombinati bilan kelishilgan holda xorijiy sayyohlar uchun 20 kishilik kottej va yengil konstruksiyali ovqatlanish joyi barpo etish maqsadga

muvofoiq bo'lib, bu orqali mazkur hudud kelgusida tarixiy-arxeologik va ekoturizm maskani sifatida xorijiy sayyohlarning doimiy gavjum joylaridan biriga aylantirish;

Qiziltepa tumanida turizmni rivojlantirish bo'yicha takliflar:To'dako'l hududi Buxoro shahriga taxminan 25-30 km. masofada ekanligini hisobga olib, qadimiy Buxoro shahriga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlarni To'dako'l bo'yicha dam olishini tashkil etish, shuningdek, bu yerga yoz va kuz mavsumlarida mahalliy sayyohlarni keng jalb etish maqsadida viloyat "Sayohat va ekskursiyalar byurosi" davlat korxonasining dam olish zonasi uchun ko'lbo'yi hududidan 5 gektar hajmda yer ajratish va kurort rekreatsion markaz barpo etish masalasi viloyat Turizmni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish Kengashida ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shuningdek, Quyimozor suv ombori bo'yidagi eski temir yo'l deposi (qariyb 1 gektar) hududida "Jonli tabiat" bioekologik markazi uchun ajratilgan bino mavjud bo'lib, kelgusida mazkur infratuzilmani takomillashtirib, viloyat "Sayohat va ekskursiyalar byurosi" davlat korxonasi bilan hamkorlikda viloyatning ekoturistik ma'lumot markazini tashkil etish va bu yerda viloyatdagi barcha ekoturizm va dam olish maskanlari to'g'risida ma'lumotlar bazasini shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi;

Karmana tumanida turizmni rivojlantirish bo'yicha takliflar:Mazkur hududda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yildagi "Navoiy Erkin industrial-iqtisodiy zonasini tashkil qilish to'g'risida"gi Qarori asosida Navoiy Erkin industrial-iqtisodiy zonasining tashkil etilishi va xorijiy sarmoyadorlar investitsiyalari asosida qo'shma korxonalar faoliyatining yo'lga qo'yilishi kelgusida tumanda va viloyat miqyosida xorijiy mamlakatlardan kelib mazkur hududda faoliyat olib borayotgan shaxslarning sayohat va turizm xizmati ko'rsatish sohasiga talab ortishiga xizmat qiladi.

Shu boisdan, Karmana tumanining Malikrabort hududida barpo etilayotgan mehmonxona va turizm xizmati ko'rsatuvchi muassasalar faoliyatini yuqori darajada tashkil etish va xizmatlarning sifatli yo'lga qo'yilishi yuzasidan doimiy nazoratni o'rnatish talab etiladi.

Kelgusida Navoiy EIIZga kiraverishda barpo etilayotgan “MOTEL” atrofida Nurota va Karmana tumani hunarmandlari tomonidan tayyorlanayotgan milliy hunarmandchilik mahsulotlari ko'rgazma-savdo do'konini tashkil etish masalasini ko'rib chiqish zarur bu ham o'z navbatida EIIZ tashrif buyurayotgan xorijiy ishbilarmon doira vakillari va diplomatlarni befarq qoldirmaydi;

Karmana tumani “Qo'hna Qo'rg'on” MFYda joylashgan “Mirzachorbog” tarixiy obidasini rekonstruksiya qilish va xalqaro sayyohlik mashrutiga kiritish 100 mil so'mlik qurilish ta'mirlash ishlari olib borilishi ko'zda tutilgan.

Xatirchi tumanida turizmni rivojlantirish bo'yicha takliflar: Xatirchi tumani Navoiy viloyatining tog'lik hududlaridan biri bo'lib, hududda ekoturizmni rivojlantirish va bu yerga xorijiy sayyohlarni jalb qilish masalasiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Ayniqsa, tumanning Langar hududi viloyatdagi eng baland tog'lik hudud hisoblanib, bu yerda xorijiy va mahalliy sayyohlar uchun dam olish zonasi barpo etish maqsadga muvofiqdir. Langar hududi Nurota tumanining Chuya qishloq fuqarolar yig'ini orqali o'tilganida “Chashma” me'moriy yodgorligiga qadar 25-30 kilometrni tashkil etib, mazkur yo'lining Chuya aholi punktigacha bo'lgan 14 kilometrlik qismini ta'mirlash orqali hududni “Chashma”-“Langar”-“Navoiy” kichik turistik mashrutiga kiritish mumkin.

Mazkur turistik mashrut yo'nalishida Langar hududidagi Oqsuv sharshara bo'yi hududini 20-25 kishini qabul qila olish quvvatiga ega bo'lgan zamonaviy tog'oldi dam olish oromgohiga aylantirish (qiymati 150 mln. so'm), mazkur hududdagi dara tepasidan 2-3 kilometrlik masofada kanat yo'li tortish (qiymati 1,5-2 mlrd. so'm), zamonaviy turizm xizmati turlarini yo'lga qo'yish orqali xorijiy va mahalliy sayyohlarni keng jalb qilish choralari ko'rish mumkin.

III– BOB BO'YICHA XULOSA.

Navoiy viloyatida turistik xizmatni taqdim etuvchi tashkilotlar soni yildan-yilga olib bormoqda va bu viloyatning iqtisodiyotiga ta'siri oshayotganini bildiradi. Xorijiy turistlarning o'lkamizga sarflayotgan mablag'larning o'sishi 1997 yilda narxlar arzonlashtirishi bilan bog'liq va viloyatimizga keluvchi mehmonlar sonining sezilarli darajada o'sishga olib keldi. Nurota chashmasi yodgorligi ko'hna obidalaridan hisoblanib, hozirgi kunda hasher yo'li bilan zamonaviy arxitektura va shaharsozlik tajribalari asosida tubdan qayta qurildi. Hozir bu maskan ziyoratchi va sayyohlarning sevimli joyi hisoblanadi. Qosim Shayx ansambli (XVI) 2001 yilda to'la ta'mirlanib, bugungi kunda Navoiy viloyatidagi eng tarixiy va obod ma'daniy meros ob'ektlaridan biri sifatida qadrlanadi. Raboti Malik (XI) Karmana –Buxoro yo'l bo'yi oralig'idagi karvonsaroy va sardoba 1999-2004 yilda ta'mirlanib, hozirda dunyo sayyohlarining e'tiborini tortmoqda. Me'moriy yodgorliklar qatoriga Deggaron, Mirsaid Bahrom maqbarasi, Oq maschid yodgorligi va Dmara quduq tosh o'rmoni, Navoiy viloyat muzeylarini kiritishimiz mumkin. Mehmonxona xo'jaligi turizmning rivojlanishida muhim soha hisoblanadi. Jahon mamlakatlarida mehmonlar soni 18 mingga yaqin va ular transit, rasmiy va dam olish uchun muljallangan mehmonxonalarga bo'linadi.

Navoiy viloyatida keyingi yillarda ajoyib inshootlarmadaniy dam olish maskanlari, ziyoratgohlar vujudga keldi. 2012 yilda umid nihollari sport ning final

bosqichi viloyatimizda o'tkazilganligi xalqaro Respublika miqyosida mehmonlarning kelib ketishi turizmni rivojlantirish o'z hissasini qo'shdi. Rekreatsion tizimni mamlakatimiz bo'ylab va xususan viloyatimizda keng rivojlantirish uchun xalqaro turistik xizmat marketingini joriy qilish va uni o'rganish yaxshi samaralar berish muqarrar. Marketing tadbirlarini o'tkazish, minglab xorijiy va mahalliy turistlar tarmog'ini yuzaga keltiradi. Millionlab dollar valyuta, 2000 ga yaqin yulduzli mehmonxona nomerlari, turizm sohasidagi tashkilotlarning yaxshi moliyaviy holati korxona, firma kompaniyalar sonini oshirish orqali raqobatli muhit barpo qilish kabi natijalar boradi.

XULOSA

Turizm, jismoniy tarbiya, sport, badiiy va texnik ijodkorlik kabi mashg'ulotlarni o'zida mujassamlashtiruvchi rekreatsion faoliyat yoki rekreatsiya tushunchasi dam olish, tiklanish degan ma'nolarni anglatadi. Ma'lumki turistik resurslarning asosini rekreatsiya resurslari tashkil etadi. Rekreatsiya resurslari bu - turli komponentlar birikmasidan iborat, insonning dam olishi va davolanishi ehtiyojlarini qondirishda xizmat qiladigan vositalardir. Yer resurslari va atmosfera rekreatsion salohiyatini belgilovchi muhim omillardir. Chunki yer resursi tabiatning asosiy boyligi bo'lib qolmasdan balki, respublikaning ijtimoiy, iqtisodiy o'sishga ham ta'sir ko'rsatadi. Rekreatsiya nafaqat ekologik jarayonlar, balki siyosiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlar bilan ham bog'liqdir.

Navoiy viloyatining turistik rekreatsion salohiyati o'ziga xosdir. Viloyatda suv havzalari, pansianat, madaniy-ma'rifiy, ilmiy-metodik markaz, tarixiy o'lkashunoslik muzeyi, sport maktablari, ma'daniyat istirohat bog'lari musiqa va san'at maktabi viloyatning ko'p millatli aholisiga xizmat ko'rsatib kelmoqda. Viloyatda mehmonxona va diniy tashkilotlar ham mavjud. Viloyat hududida Raboti Malik yodgorligi Sardoba olamshumul turistik ob'ekt Sarmishsoy, Qosim Shayx ansambli joylashgan. Nurota chashma majmuasi turistlarni jalb qiladigan go'shalardan biri. Nurota tog' yong'oqzor meva qo'riqxonasi, "Sangijumon" koriz qoldiqlari ekoturizmning muhim ob'ektlaridir.

Navoiy viloyatida turizmning hudud iqtisodiyotiga ta'siri oshib bormoqda. Bunda albatta turizm faoliyati bilan shug'ullanuvchi firmalar, tashkilotlar, sayyohlik agentlarining o'rnini beqiyos. Turistik xizmatni taqdim etuvchi tashkilotlar soni yildan-yilga oshib bormoqda. Navoiy viloyatida turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yuzaga kelayotganligi turizmning viloyat iqtisodiyotiga yanada integratsiyalanishini mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon iqtisodiyoti tajribasidan ma'lumki turizm mamlakat xazinasiga uchun zarur bo'lgan valyuta tushumini ta'minlash, yangi ish joylarini vujudga keltirish va shu bilan birga aholining turmush darajasini ko'tarish uchun xizmat qiladi. Viloyatning geografik o'rnini nihoyatda qulay, ajoyib tabiiy iqlim sharoitiga ega ekanligidan tashqari, uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rnini ham beqiyos. Navoiy viloyatida ham Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari kabi nodir tarixiy arxitektura yodgorliklariga, shirin-shakar mevalar, xilma-xil taomlar, ajoyib milliy an'ana, urf-odatga ega bo'lgan mehmon do'st aholisiga ega. Bularning barchasi chet ellik turistlar e'tiborini o'ziga tortadi va kishilarni lol qoldiradi.

Navoiy viloyatida turizm sohasini shakllantirish imkoniyatlarini tadqiq etishda ijobiy korsatkichlar bilan birgalikda ba'zi bir muammolarga ham duch kelindi. Masalan: Navoiy viloyatida turizm sohasini rivojlantirish uchun, rekreatsion resurslardan foydalanish uchun transport yo'llari mavjud, ammo sifat jihatidan ba'zilar ta'mirlashni talab etadi. Joylashtirish vositalarining etishmaslik muommosi mavjud.

Navoiy viloyatida turistik maxsulotlarni shakllantirish imkoniyatlarini tadqiq etishda, ulardan foydalanishning samaradorligini oshirish yo'llari, ularga ta'sir etuvchi omillar va ularni aniqlash hamda mintaqaning turistik resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Navoiy viloyatida turizmni rivojlantirish uchun turistik mahsulotlarni shakllantirishni ta'minlashning asosiy yo'nalishlari aniqlandi. Bularga:

- har bir turistik resursdan foydalanish darajasini aniqlash, ushbu tur va o'xshash turlar uchun turistik infratuzilmalar va xizmatlarni tashkil qilish;
- viloyatning xalqaro va ichki turizmida turistlarga ko'rsatiladigan transport xizmatlarini yuqori darajada amalga oshiruvchi transport tashkilotlarini (transportni ijaraga beradigan firmalar, transportning xavfsizligini ta'minlovchi xizmatlar, maxsus transport vositalari bilan jihozlangan turistlarga transport xizmatini ko'rsatuvchi firmalar va boshqalarni) tashkil qilish;
- Navoiy viloyatidagi turistik resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlaridan biri turizm xizmat bozoriga chiqarish va iste'molchiga yetkazib berishda turizm marketingidan foydalanish lozimligi asoslandi. Bularga: 1) bozorni tadqiq qilish; 2) iste'molchilarni tadqiq qilish; 3) raqobatchilarni tadqiq qilish; 4) tovarlarni tadqiq qilish; 5) sotish va reklamani me'yorlashtirishni tadqiq qilish kabilarni amalga oshirish lozimligi asoslandi. Bunda axborot-reklama tizimidan foydalanish yo'llari ko'rsatib berildi.

2. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda milliy turistik mahsulotlarni shakllantirish, uning tarkibiy qismi bo'lgan ekologik turizmdan samarali foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

3. Viloyatdagi turistik salohiyatdan samarali foydalanish maqsadida har bir tur yo'nalishlari guruhlandi. Natijada O'zbekistonda diniy-ziyosat turizmi va etnografik turizm resurslaridan turistik mahsulotlarni shakllantirishda katta imkoniyatlar borligi aniqlandi.

4. Yuqoridagi xulosalarga tayanib, turistik resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflar berilmoqda:

- viloyatdagi turistik resurslarga aniq mavzuli ekskursiya marshurtlarini ishlab chiqish va ularni milliy turistik mahsulotlarni shakllantirishda foydalanish uchun tavsiya qilish;
- yangi turistik firmalar tashkil qilish va ularning faoliyatini asosan ekologik, diniy, madaniy, sport - ekstremal sayyohlik sohalariga yo'naltirish;

- viloyat tumanlaridagi turistik resurslardan, diniy-ziyoratgoh maskanlaridan maqsadli foydalanish dasturlarini ishlab chiqish va targ'ibot - tashviqot, reklama jarayonini rivojlantirish;
- xalqaro turistik firmalar o'rtasida sayyohlik ko'rgazmalarini tashkil etish va o'tkazish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2003. -36b.
- 2.O'zbekiston Respublikasining “Turizm to'g'risidagi”qonuni. //O'zbekistonning yangi qonunlari.-T.: Adolat, 2000. - 131-140 b.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 2 iyundagi 1162 raqamli “Buyuk Ipak yo'li”ini qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada Xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora –tadbirlar to'g'risidagi” Farmoni. //Xalq so'zi, 1995, 3 iyun'.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekturizm” MKsining tashkil topishi” to'g'risidagi farmoni № PF-447 27 iyulya 1992 yil. //Xalq so'zi,1992, 27 iyul'.

III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari

- 5.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining №346 8 avgustda qabul qilingan “Turistik tashkilotlarning faoliyatini takomillashtirish” to'g'risidagi farmoyishi. // Xalq so'zi, 1998. 9-avgust.

IV.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

6. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li, T., "O'zbekiston", 1992.
- 7.Karimov I.A. O'zbekiston : milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura T., "O'zbekiston", 1993
8. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li.- T.: O'zbekiston, 2003. -172 - 177b
9. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir T., "O'zbekiston", 1995
10. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz yelajak yo'q, T., 1998
11. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari, "O'zbekiston", 1998
12. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid va barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari. –T., 2000.
13. Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyotining qonuniy asoslarini mustahkamlash faoliyatimiz mezonini bo'lishi darkor. //Xalq so'zi, 2006, 25 fevral'.
14. Karimov I. A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim.// Xalq so'zi, 2006, 11 fevral'.
15. Karimov I.A. Inson, uning huquqi va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliy qadriyat. //Xalq so'zi, 2005, 9 dekabr.
16. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. –T.: O'zbekiston, 2005.-92 b.
17. Karimov I.A. O'zbekiston xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi.- T.: O'zbekiston, 2005. -160 b.
18. Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb hisoblashar edi.- T.: O'zbekiston, 2005. - 62 b.
19. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. – T.: O'zbekiston, 2003. -318b.
20. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: O'zbekiston, 2000.- 350b.

V. Darsliklar

21. Aliyeva M.T., Umarjanov A. A. Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti: Darslik. – T.: Moliya, 2005. - 339b.
22. Aliyeva M.T., Salimova B.X. Mehmonxona menejmenti: Darslik. - T.: Moliya, 2005. -275b
23. Buturov I.N. Marketing i menedjment inostrannogo turizma. - M.: Finanso' i statistika,2003. –107 s
24. Gulyayev V.G. Pravovoye regulirovaniye turistskoy deyatel'nosti.- M.: Finanso' i statistika, 2003.- 304 s.
25. Yankevich V.S. Marketing v gostinichnoy industrii i turizme.- M.: Finanso' i statistika, 2003. –415 s.

VI. O'quv qo'llanmalar

26. Aliyeva M.T, Xo'jayev O'.X, Norchayev. A.N. Turizm rivojlanishini prognozlash: O'quv qo'llanma. –T.: TDIU, 2006. -214b.
27. Aliyeva M.T., Xo'jayev O'.X. Xalqaro turizm da siyosatni shakllantirish. - T.: Moliya, 2005. - 210b.
28. Aliyeva M.T., Mirzayev M. va boshqalar. Turizm huquqi: O'quv qo'llanma. – T.: Talqin, 2003. -245b.
29. Bekmurodov A, Boltaboyev M, Amonbayev B, Toshxo'jayev M. O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida.1-qism. Makroiqtisodiy siyosat va iqtisodiy islohotlar. T.: TDIU, 2005, 59 b.
30. Bekmurodov A, Hakimov R, Safarov B, Zaxidov G. O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida. 2-qism. Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlar va fermerlik harakati. T.: TDIU, 2005, 66 b.
31. Bekmurodov A, Tojiyev R, Qurbanov X, Alimardonov M. O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida. 4-qism. Moliya va bank turizmidagi islohotlar samarasi. T.: TDIU-2005,62 b.
32. Bekmurodov A, Toirov Sh, Maxmudov E, Isakov M, To'rayev N. O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida. 5-qism. Tashqi iqtisodiy siyosat savdo va investitsiyalar oqimlari. T.: TDIU, 2005,62 b.

33. Irmatov M.M. Aliyeva M.T. va boshqalar. Turizmni rejalashtirish. - T.: Moliya, 2005. -167b.

34. Mirzayev. R. Solnse puteshstvuyet po miru chtobo' rasseyat'. - T.: Ipak «Sharq», 2005. - 230 s.

35. Mirzayev R. Turisticheskiye jemchujino' Uzbekistana. - T.: Ipak «Sharq», 2005. - 38 s.

VII. Ilmiy manografiyalar, maqolalar va boshqa asarlar

36. Turistik faoliyatda soliq muammolari va ularni tartibga solish. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. -T., 2002.

37. Xalqaro bozorda milliy turizm. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2001. №1-2.

38. Xalqaro turizmning Ispaniya iqtisodiyotidagi ahamiyati. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2001. №7-8.

39. Xalqaro turizm iqtisodiy rivojlanish vositalaridan biri. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2001 №11-12.

VII.I. O'zbekiston Respublikasida chop etilgan

40. Mirzayev. R. Solnse puteshstvuyet po miru chtobo' rasseyat' teni. - T.: Ipak «Sharq », 2005. –236 s.

41. Mirzayev. R. Turisticheskiye jemchujino' Uzbekistana.- T.: Ipak «Sharq», 2005. –86 s.

VIII. Doktorlik, nomzodlik va magistrlik dissertatsiyalari

42. Fayziyeva Sh. R.O'zbekistonda turizm rivojlanishining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Nomzodlik dissertatsiyasi. - Toshkent, 2006.

43. Norchayev.A.N. Xalqaro turizmni rivojlantirishning iqtisodiy o'sishga ta'siri. Nomzodlik dissertatsiyasi. – T:, TDIU, 2004. -120b.

44. Xakimov D.S.. “O'zbekistonda milliy turizm modelining shakllanishi, 2005 - 107b.

45. Ibobekov F.B. O'zbekistonda turizm industriyasining rivojlantirish istiqbollari, 2005 -96b.

XI. Ilmiy–amaliy anjumanlar ma'ruzalari to'plami

46. Aliyeva M.T. Razvitiye industrii turizma. «Mejdunarodno'e Plexanovskiye chteniya», 19 aprelya REA. im. G.V.Plexanova, 2006.
47. Aliyeva M.T. Razvitiye infrastrukturo' turizma v Uzbekistane. Materialo' VII-Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii studentov i aspirantov. Donetsk, 2004.
48. Norchayev A.N. Tourism as a dynamic branch of the economy of Uzbekistan. Materialo' VII-Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii studentov i aspirantov. Donetsk, 2004.
49. Norchayev A.N. The Uzbek model of tourism. Materialo' VII-Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii studentov i aspirantov. Donetsk, 2004.
50. Norchayev A.N. Turizm industriyasi menejmenti. Respublika ilmiy-amaliy anjuman.- T.: 2003.
51. Norquvatova G.I. Amaliy geografiya darslarida interfaol usullardan foydalanish. O'zbekiston Geografiya Jamiyati, Toshkent, 68-70 bet, 2012yil
52. Norquvatova G.I. Navoiy viloyati turistik resurslari va ulardan foydalanishning ba'zi masalalari O'zbekiston Geografiya Jamiyati, Toshkent, 123-125 bet, 2012yil
53. Norquvatova G.I. Navoiy viloyati cho'l hududlarini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish muommolari. O'zbekistonda Atrof-muhitni muhofaza qilishning dolzarb masalalari. Samarqand, 129-130 bet, 2013 yil
54. Norquvatova G.I. Atrof muhitning ekologik muommolarini hal qilishda yoshlar mavqieni ko'tarish. O'zbekiston Geografiya Jamiyati, Toshkent, 323-325 bet, 2013 yil
55. Norquvatova G.I. Navoiy viloyati demografik jarayonlari va ularning hududiy jihatlari. O'zbekiston Geografiya Jamiyati, Toshkent, 85-87 bet, 2013yil
56. Norquvatova G.I. O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy yunalishlari. Ilmiy-ma'rifiy konferensiya, Navoiy, 2012 yil, 175-178 bet
57. Norquvatova G.I. O'zbekiston tabiiy geografiyasi fanini o'qitishda o'lka materiallaridan foydalanish. Innovatsion g'oya va taraqqiyot, Toshkent-Navoiy, 2012 yil, 91-92 bet

58. Norquvatova G.I. Navoiy viloyatining tabiiy va iqtisodiy rivojlanish omillari. Navoiy, 2013 yil, 55-58 bet

59. Norquvatova G.I. Uchtut chaqmoqtosh shaxtasi va sarmishsoyning qadimiy san'ati. Navoiy, 2013 yil, 16-18 bet

XII. Internet saytlari

60. www.peugeotufa.ru – seno' uslug

61. www.basheexpo.ru – vo'stavki, konferensii.

62. www.interunion.ru – turistskiye assotsiatsii.

63. www.world-tourism.org – Vsemirnaya turistskaya organizatsiya.

64. www.wttc.org – Vsemirno'y Sovet po puteshestviyam i turizmu.

65. www.interunion.ru – turistskiye assotsiatsii.

66. www.world-tourism.org – Vsemirnaya turistskaya organizatsiya.

67. www.tag-group.com – Konsul'tativnaya gruppа po voprosam turizma (TAG).

68. www.e-tours.ru – delovo'e turo', vo'stavki, konferensii.

69. <http://www.travel-library.com/> – Elektronnaya biblioteka puteshestviy.

70. www.uzbektourism.uz – O'zbekturizm MK.

XIII. Virtual kutubxona elektron darsliklari va o'quv qo'llanmalari

71. Aliyeva M., Norchayev A. Turizm menejmenti: Elektron darslik, 2005

72. Aliyeva M., Qutlimuratov F. Turizm iqtisodi: Elektron darslik, 2005.

73. Aliyeva M. Turizmda sarmoya siyosati: Elektron darslik, 2005.

ILOVALAR

1-ilova

**Navoiy viloyatida turizm shakillangan va turizmni rivojlantirish mumkin bo'lgan
xududlar**

№	Nomi	Joylashgan tumani	xudud
1	Alisher Navoiy bog'i	Navoiy shahar	Shahar markazi
2	Qosim Shayx majmuasi	Karmana	Karmana shahar
3	Mirsaid Bahrom maqbarasi	Karmana	Mirsaid Bahrom ko'chasi
4	Raboti Malik maqbarasi	Karmana	Aeraport xududi
5	Raboti Malik sardobasi	Karmana	Aeraport xududi
6	Degaron	Karmana	Xazora qishlog'ida
7	Oq machit	Xatirchi	Bog'chakalon
8	Putak Ota	Xatirchi	Chig'qatoy yaqinida
9	Langar (savuq buloq)	Xatirchi	Langar
10	Angidon (guppi buloq)	Xatirchi	Angidon qishloq
11	Quyi mazor suv ombori	Qiziltepa	Quyi mazor
12	To'da ko'l	Qiziltepa	To'da ko'l
13	G'ardiyon	Qiziltepa	G'ardiyon
14	Sho'r ko'l	Kanimex	Sho'r ko'l

15	Qizilqum safari tur baza	Kanimex	Saribel qishlog'i
16	Sarmish	Navbahor	Sarmish soy
17	Uch tut (qirg qazon)	Navbahor	Uch tut qishlog'i
18	Chashma tabiiy- meymoriy majmuasi	Nurota	Nurota chashmasi
19	Shohimardon ziyoratgohi	Nurota	G'azg'on qishlog'i
20	Sentob	Nurota	Sentob qishlog'i
21	Aydar ko'l janubiy sohillari	Nurota	Aydar ko'l
22	Aydar ko'l (shimoli)	Nurota	Do'ngakak qishloq yaqinida

2-ilova

Navoiy viloyatidagi mehmonxonalar ro'yxati.

T/r	Mehmonxona nomi	I. F. O	Tel raqami	Dara jasi	O'rinlar soni	Manzili
1	"Gulmira -K"	Abduraxmonova Gulmira Yulduzovna	22-5-12-61 324-14-41	****	28	Navoiy sh Reshyotnik 2 "B" kucha
2	Navoi Plaza	Pirimqulov Ilxom Shodmonqulovich	98-125-12- 40	****	70	Navoiy sh. Navoiy kuchasi
3	"Grand-M"	Nasriddinov Ilxom Burxaniddinovich	770-37-37, 770-38-38	****	40	Navoiy sh. X. Do'stliga 77 a
4	"Zarafshon Grand Omad Beznes "	Niyozov Baxtiyor	744-37-35	****	92	Karmana tumani Malikrabort qo'rg'oni
5	"Turkiston Navoiy "	Jumayeva Zamira Jamolovna	22-3-58-15 22-3-30-52 faks	***	128	Navoiy sh X.Dustligi ,73
6	"Kamilla" Trayding servis ICHK	Ernazarov Farxod Rashidovich	221-46-68 22-5-46-68 22-3-45-15 faks 22-3-99-97	***	40	Navoiy sh Oxunboboyev kuchasi 2-1-2
7	"Parvoz"	Raximov Abduxoliq Istamovich	91-331-17- 77	***	40	Karmana tumani Malikrabort qo'rg'oni
8	"Uchquduq" Motel	Rajabov Ramazon	225-33-98	***	20	Navoiy sh
9	"Yoshlik " X/F	Jo'mayeva	22-4-40-01 22-4-37-01	**	83	Navoiy sh X. Do'stligi

		Lyudmila Pavlovna	22-4-94-41 faks			138 “B”
10	“Registon” Usta Istam X/K	Rustamov Furqat Xikmatovich	53-2-35-37 770-25-91	—	50	Karmana tumani Karmana 19 a kucha
11	Sentob Tagi Jar	Boboyev Shodboy	300-55-65	—	16	Nurota tumani Sentob Q.F.Y
12	SENTOBISTON	Gulnazar Zarifullayev	93-430-22- 77	—	15	Nurota tumani Sentob Q.F.Y
	Ipak Yuli		780-20-00			Karmana t
13	Texno Plaza	F.Nadjimov		—	18	Navoiy shahar Falaba 17-B

2-ilova


Navoiy viloyatidagi tur fermalar ro'yxati

T/r	Tur fermalar nomi	I. F. O	Tel raqami	Yurtalar soni	O'rinlar soni	Manzili
1	"Qizilqum safari"	Pirmatov Voxid	94-372-44- 55 223-90- 00 Faks	11	66	Kanimix tumani Seribil Q.F.Y
2	"Sputnik Navoiy"	G. Radik Kalimulin	223-80-81 225-54-17 Faks	17	120	Navoiy sh Matvinko 16\14
	Jami:			28	186	

3-ilova


Konimex tumanidagi «sputnik-navoiy» xususiy firmasining turistlarni kabul qilish maskani






4-ilova

Sarmishsoy rasmlari



5-ilova

“SANGUJUMON” hududi manzaralari



Navoiy viloyati muzeylarini tashkil etish to'g'risidagi qarordlar ro'yxati.

№	Muzey nomi	Yili	Tashkil etish uchun asos	Muzey joylashgan manzil
1	Qiziltepa tuman tarixiy-o'lkashunoslik muzeyi	1981 yil 9 may	Qiziltepa tuman O'zb RK va RIK ning 1981 yil 9 mayda tashkil etilgan. 1985 yil 15 yanvarda №8/1- 15.01.85 sonli qaror bilan Rayon mehnat va shon-shuhrat muzeyiga aylantirilgan. 1993 yil 7 yanvarda Rayon hokimligining № 7 sonli qarori bilan o'lkashunoslik muzeyiga aylantirilgan.	Qiziltepa tumani O'zbekiston shoh ko'chasi, "Istirohat" bog'i
2	Tomdi tuman tarixiy-o'lkashunoslik muzeyi	1985 yil 30 yanvar	Tomdi tumani xalq deputatlari kengashi ijroya qo'mitasining 1985 y. 30. 01. dagi №09/1 sonli qarori	Tomdi tuman Tulebi ko'chasi 7-uy
3	Viloyat tarixiy-o'lkashunoslik muzeyi	1992 yil 30 dekabr	Navoiy viloyat hokimining 1992 yil 30 dekabrda № 12 284 sonli qarori	Karmana tumani Karmana ko'chasi 17-uy
4	Tomdi tuman Jabay Balimanov uy muzeyi	1993 yil 17 sentabr	Navoiy viloyat hokimining 1993 yil 23 dekabrda № K-325 sonli qarori	Tomdi tuman Balimanov shirkat xo'jaligi
5	Konimex tuman tarixiy-o'lkashunoslik muzeyi	1997 yil 30 aprel	Konimex tuman hokimining 1997 yil 30 aprelda K-180 sonli qarori	Konimex tumani Abay ko'chasi 59-uy
6	Karmana tuman Qosim Shayx majmua muzeyi (viloyat muzeyi filiali)	2002 yil 8 aprel	Navoiy viloyat hokimining 2002 yil 8 aprelda Q-74 sonli qarori	Karmana tumani Karmana ko'chasi
7	Xatirchi tuman tarixiy-o'lkashunoslik muzeyi	2002 yil 28 noyabr	Xatirchi tuman hokimining 2002 yil 28 noyabrda Q-9 62 qarori bilan tuman jamoatchilik muzey negizida tashkil etilgan.	Xatirchi tumani Axmad Yassaviy ko'chasi
8	Nurota tuman tabiiy-me'moriy majmua muzeyi	2003 yil 17 aprel	Navoiy viloyati hokimining 2003 yil 17 aprelda № K-172 sonli qarori bilan "Chashma" o'lkashunoslik muzeyi negizida tashkil etilgan.	Nurota tuman Qo'rg'on ko'chasi 1-a uy

9	Zarafshon shahar Qizilqum sahrosini o'zlashtirish tarixi muzeyi	2003 yil 22 sentabr	Viloyat hokimligining 2003 yil 11 sentabrdagi shahar o'lkashunoslik muzeyini markaziy kon boshqarmasi balansiga vaqtinchalik o'tkazish to'g'risidagi № 10-171 sonli qarori, Zarafshon shahar hokimining 2003 yil 22 sentabrdagi №729/09 sonli qarorlari	Zarafshon shahar 2-kichik shaharcha Navoiy Davlat Konchilik instituti filiali
10	Sarmishsoy tabiiy-arxeologik majmua muzey qo'riqxonasi	2004 yil 23 sentabr	Navoiy viloyati hokimining 2004 yil 23 sentabrdagi № 193 sonli qarori	Navbahor tuman Sarmish sh/x
11	Karmana tumani Mavlono Orif Deggaroniy tarixiy muzeyi	2007 yil 24 aprel	Navoiy viloyati hokimining 2007 yil 24 apreldagi № 101-Q sonli qarori	Karmana tumani Xazora sh/x
12	Qiziltepa tumani Toshpo'lat Hamid uy muzeyi	2007 yil 29 may	Navoiy viloyati hokimining 2007 yil 29 maydagi № 127-Q sonli qarori	Qiziltepa tuman Bo'ston j/x